ISNN 3030-3907

2025/5
VOLUME 3

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2025/5 VOLUME 3

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o'g'li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Izzatov Diyor Hikmatillo o'g'li
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A'ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G'ayrat Rashidovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Renessans ta'lim universiteti, professor.
Jo'rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o'g'li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do'stov Hamro
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o'g'li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Jalilov Jamshid G'anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G'afforovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
To'xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Navro'zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To'raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a'zolarning to'liq ro'yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay'ati a'zolarining tarkibini o'zgartirish hamda qo'shimcha kiritish yoki tahririyat a'zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o’tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	Ochiq kon ishlarini planga olishda qo‘llaniladigan zamonaviy geodezik asboblar *G‘ofirov Muzaffar Jumayevich*	8
2	Informatika fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish *Abduqodirov Nuriddin Faxriddin o‘g‘li*	14
3	Gidroksipropil metilsellyuloza va glitserin bikarbamatning modifikatsiya jarayon tahlili *Sharipov Begmurod Sharipovich* *Bafoyev Abduhamid Hoshim o‘g‘li*	20
4	Akrilat monomerlari asosida mis va ruxning suvda eriyadigan tuzlari ishtirokida funksional polimerlarning strukturaviy xossalari va sintez mexanizmlari *Sharipov Begmurod Sharipovich* *Zaripov Anvar Alijon o‘g‘li*	39
5	Korxona-universitet hamkorligining yashil energiyaga o‘tishga ta’siri (xorijiy hamkorlik misollari) *Delov To‘lqin Erkinovich* *Baxronov Quvonchbek Vohid o‘g‘li* *Abdimurodova Luiza Abdimurod qizi*	35
6	Boshlang’ich sinf o’qish darsi, pirls tadqiqotining ilmiy-nazariy asoslari *Choriyeva Valida Abdug‘ani qizi*	41
7	Magistral neft quvurlarini korroziyaga qarshi himoya qilish xususiyatlari va istiqbollari *Abrorbek Urinov* *Jamshid Qadirxanov*	51
8	Gillarning sorbsion xossasiga faollantirish jarayonidagi ph muhitini ta’siri *Sayimova D.Q* *Musoyeva D.N* *Sultonov Sh.A*	56
9	Методы очистки сточных вод нефтегазовых промышленных предприятий *А.С. Мустафаев* *Г.Р.Базаров*	64
10	Masofaviy ta’lim platformasining funktsional imkoniyatlarini kengaytirishda freym modeli *Xalilov Sarvar Samadovich* *Elov Jamshid Bekmurodovich* *Zarmasov Elbek Mamatqulovich*	71
11	Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar (ona tili fani misolida) *Taylakova Dilnoza Norbekovna*	79
12	Вопросы усиления деривационного потенциала английских словообразовательных элементов иноязычного происхождения *Салиева Сурайё Мансуржоновна*	88
13	Oliy ta’lim muassasalarida psixiatriya kursining “ong buzulishi sindromlari. Asosiy psixopatologik sindromlar. Psixofarmakoterapiya asoslari” mavzusini o‘qitishda flipped classroom (o‘girilgan dars) texnologiyasidan foydalanish *Yodgorov Jasurbek Jo‘rayevich*	98
14	Исследование лессовидных пород аральского море для производства стеновых материалов *М.Б. Муфтуллаева* *М.А. Реймов* *Оразымбетова Г.Ж*	106
15	Техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасида юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш: ўзбекистон ва халқаро тажриба таҳлили (иқтисодий ислоҳотларга мос кадрлар моделини яратиш) *Наибахон Мамадалиева* *Бобур Инагамов*	111
16	Sulfokationitli ion almashinadigan smolani sintez qilish *Ergasheva Yulduzoy Olimovna* *Beknazarov Hasan Soyibnazarovich*	121
17	Development of algorithms and a software tool for proper noun recognition and correction in uzbek language *Nazirova Elmira Shodmonovna* *Eshqarayeva Narxol G‘uzarovna* *Boymurodov Farrux Farxod o‘g‘li*	127

ISSN 3030-3907

18	Shaffof to‘siqli deraza oynalarida issiqlik yo‘qotishlarni hisoblash *Axrorova Munira Ibragimovna*	138
19	Method and results of selecting radioelectronic transmissions *Mirzayev Bahodir Nuritdinovich* *Zulpukarova Guldona Akbarjon qizi*	145
20	Tunnelli quyosh quritgichlari bo‘yicha chop etilgan tadqiqot ishlarilarga sharh va tahliliy xulosalar *Mirzayev Sardorali Abdullajon o‘g‘li* *Abdukarimov Bekzod Abobakirovich* *Toxirov Muhammadrafik Qodirovich*	152
21	Boshlang‘ich sinflar darsliklaridagi matnlar mazmuni *Turg‘unova Xumora Xusniddin qizi*	163
22	Glitsirrizin kislota monoammoniyli tuzi va uning tetraasetillagoxilin bilan olingan kompleksining spektral va termodinamik xossalari *Xulkar Saydullayeva* *Nazokatxon Yakubova* *Fotima Sobirova* *Rahmat Esanov* *Maxmudjon Gafurov* *Alimjan Matchanov*	173
23	Quyosh energiyasi asosida biogaz ishlab chiqaruvchi mezofil tizimning ishlash jarayoni va samaradorligini tadqiq etish *Abdumo‘minov Asror Zokir o‘g‘li* *Tilloyev Lochin Ismatilloyevich*	182
24	The role of recognition, validation, and accreditation (rva) in the development of professional competencies *Alimova Dildora Komiljon qizi*	189
25	Yangi moslashuvchan superkondensatorning elektrokimyoviy xususiyatlarini baholash *Shodmanov Jasur Abdumuhammadovich*	194
26	Hybrid machine learning models for diabetes prediction: a systematic literature review *Mukhriddin Arabboev* *Shohruh Begmatov*	202
27	Tashqi oqova suv tizimlarining gidravlik unumdorligi va ekologik barqarorligi *Bo‘riyev Eshmurod Sattorovich* *Tashpulatov Nosirbek Egamberdiyevich* *Sattorov Alimardon Xamdamaliyevich*	218
28	O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etishda mustaqil ishlarning turlari va shakllari. *Qarshiyev Olim Namozovich* *Sultonov Safar Nabiyevich* *Boboxonov Oltiboy Raxmonovich*	225
29	Alifbe manzumalar badiiyati va ularni o‘rgatish metodikasi *Akramova Surayo Renatovna* *Usmonqulova Sohiba Mirzohid qizi*	231
30	Temir moddasiga boyitilgan non mahsulotlarini ishlab chiqarishning ahamiyati *Xoliqulova Nazokat Akbaraliyevna* *Panjiyeva O'g'ilshod Baxodir qizi* *Choriyeva Sarvara Abdusalamovna* *Yo‘ldoshev Raufbek Olimjon o‘g‘li*	237
31	Developing mathematical models for the elastoplastic deformation of complex shaped and voluminous bodies. *Rasulmukhamedov Makhamadaziz Makhamadaminovich* *Shukurova Shohsanam Bahriddin qizi* *Mirzaeva Zamira Makhamadazizovna*	243
32	Изучение эффективности полимерного Воздействия для повышения нефтеотдачи *Салихова Озода Абдуллаевна* *Шамидинова Наргис Эркиновна*	251
33	Chemoffice (2006) dasturida 1-(4-bromfenoksi)propin-2 ning infraqizil spektrlarini noempirik usulda hisoblash va amalda olingan natijaga qiyosiy taqqoslash *Abatov Medeu Azamatovich* *Mamajonov Jasur Shuxratovich* *Mamajonov Jasur Shuxratovich*	258

ISSN 3030-3907

	Toshov Hamza Sayidmurodovich	
34	Ingliz tilini o‘qitishning samarali usullari *Suyarova Zamira Sheraliyevna*	264
35	Uch qatlamli g‘ovak muhitlarda bosimli va bosimsiz suvlarning beqaror harakatining matematik modeli. *Shavkat Yuldashov Nuriddin o‘g‘li*	269
36	Yadro kimyosi.radioktivlik,yadroviy sintez va parchalanish. *Raubjonov Xusanboy Mamatolibovich* *Normurodov Xushid Tursunmurodovich* *G‘anibekova Mahliyo Farhod qizi*	281
37	Sorbsion birikmalarning olinishi va xossalarining tadqiqi *Jamilova Niginabonu Qobil qizi*	290
38	Fasllarga mos keluvchi kiyim modalarini ko’rsatuvchi mobil dastur ishlab chiqish *Abdullayev Anvar Shuxratovich* *Normetova Asalxon Ozod qizi*	298
39	Efficiency assessment through research into the technology of organizing container trains at the terminal *Akhmatov N.B*	305
40	Влияние количество ионофора, температура и кислотность раствора на величину сигнала ионоселективного электрода *Абдурахмонова Замира Эргашбоевна* *Хужакулов Комил Фуркатзода* *Эрданов Фазлиддин Фахритдинович*	320
41	Andijon viloyatida yo‘l harakati hodisalari tahlili *Muqimova Davlatxon Karimovna*	328
42	Божхона органлари фаолиятини тартибга солишда қўлланиладиган прокурор назорати ҳужжатлари ва уларнинг долзарблиги *Қурбонов Бахтиёр Нормўминович*	334
43	Pivo ishlab chiqarishda fermentlash jarayonini modellashtirish *Yusupbekov Azizbek Nodirbekovich* *Yusupov Mirjalol Shovkat o‘g‘li*	341
44	Noteks tarmoq sigmentlarida berilgan gidrogeologik ma’lumotlarni tugun nuqtalarga bog‘liq bo‘lmagan splayn orqali sonli modellashtirish. *Qobilov Sirojiddin Sherqulovich*	347
45	Fonetik transkripsiyali nutq sintezi uchun lingvotexnologik yondashuv *Norov Abdisait Muradovich* *Tog‘ayev Ilxom Baxtiyorovich*	358
46	Sun’iy intellekt asosida chet tilini o‘rganish: innovatsion imkoniyatlar va inson salomatligiga ehtiyot choralari *Turayeva Irodaxon Lochinbek qizi*	370
47	The importance of modern educational technologies in shaping the professional culture of future teachers. *Ibragimova Shaxnoza Tulqinovna*	377
48	Таркибида азот сақлаган метакрилат полимерларни синтез қилиш ва уларни антикоррозион присаткалар сифатида қўлланилиши *Адолатова Шахноза Жумақул қизи* *Фозилов Садриддин Файзуллаевич* *Фозилов Ҳасан Садриддин ўғли*	384
49	Беда уруғини экишга тайёрлашнинг мавжуд технологияси ва техник воситаларининг таҳлили *Юсубалиев Аширбай* *Шарипов Шерзод Насим угли*	393
50	Dori vositalarini tezkor aniqlovchi ionoselektiv elektrodlar ishlab chiqishda dodekomolibdofosfatli ionoforlarni qo’llanilishi *Abduraxmonova Zamira Ergashboyevna* *Xo'jaqulov Komil Furqatzoda* *Erdanov Fazliddin Faxritdinovich*	399

ISSN 3030-3907

UDK 528.48

OCHIQ KON ISHLARINI PLANGA OLISHDA QO‘LLANILADIGAN ZAMONAVIY GEODEZIK ASBOBLAR

G‘ofirov Muzaffar Jumayevich

Qarshi davlat texnika universiteti Yerdan foydalanish, geodeziya va geoinformatika kafedrasi dotsenti p.f.f.d. (PhD)

Anotatsiya. Ushbu maqolada ochiq kon ishlarini planga olishda qo‘llaniladigan zamonaviy geodezik asboblar, kon relyefini tezkor uchish orqali skanerlash va xaritalash, sun’iy yo‘ldosh signallari asosida koordinatalarni aniqlash, zamonaviy geodezik asboblarning ishlash prinsiplari, zamonaviy geodezik asboblar yordamida planga olishning afzalliklari va kamchiliklari bo‘yicha so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: plan, geodezik asbob, sun’iy yo‘ldosh, koordinata, relyef, skanerlash, xaritalash, ishlash prinsiplari, afzallik, kamchilik, tezkor joylashuv, masofa, burchak, tog‘-kon ishlari samaradorligi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные геодезические приборы, используемые при планировании открытых горных работ, включая сканирование и картографирование рельефа месторождения посредством оперативных аэрофотосъемок, определение координат на основе сигналов искусственных спутников, принципы работы современных геодезических приборов, а также преимущества и недостатки планирования с их применением.

Ключевые слова: план, геодезический прибор, искусственный спутник, координата, рельеф, сканирование, картографирование, принципы работы, преимущество, недостаток, оперативное позиционирование, расстояние, угол, эффективность горных работ.

Annotation. This article examines modern geodetic instruments used in the planning of open-pit mining operations, including terrain scanning and mapping of the deposit through rapid aerial surveys, coordinate determination based on artificial satellite signals, the operating principles of modern geodetic instruments, as well as the advantages and disadvantages of planning with their application.

Keywords: plan, geodetic instrument, artificial satellite, coordinate, relief, scanning, mapping, operating principles, advantage, disadvantage, rapid positioning, distance, angle, mining efficiency.

Kirish

Konchilik ishi insoniyat faoliyatining asosiy ko‘rinishlaridan biri bulib, hayot darajasi va sivilizatsiyaning o‘sishini ta’minlaydi. Kon ishlari sanoat ishlab chiqarishining etakchi tarmogi sifatida konlarni razvedka qilish, ularni qazib chiqarish, qazib olingan xom ashyoni dastlabki qayta ishlash, konchilik

ISSN 3030-3907

korxonalarni qurish va turli vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan er osti inshootlarni barpo etish kabi ishlarni o‘z ichiga oladi.

Konchilik sohasini usishi natijasida geodezik va marksheyderlik ishlari rivojlanib va murakkablashib bordi. Zamonaviylashgan geodezik ish asosiy geometrik o‘lchamlar, hisoblashlarga va o‘z maqsadlariga egadir. Ular quyidagilardan iborat: konni razvedka qilish va qazib olish, har bir qilingan ishni planda, qirqimlarda va grafiklarda tasvirlab berish, foydali qazilmani yotish shaklini aniqlash, razvedka qilishda geometrik masalalarni echish, kon korxonalarini loyihalashtirish va qurish va ularni qazib olish.

Geodezik planga olish bu-geometrik o‘lchashlar va hisoblashlar, kon ishlari planlarini tayyorlash, geodezik grafik hujjatlarni, geometrik va kon-texnikaviy vazifalarini analitik ravishda olib boriladigan ishlar majmuasidir.

Foydali qazilma konlarini ikki xil usul bilan qazib olinadi. Ochiq kon usulida va yopiq kon usulida.

Topografik planlarni to‘ldirish, maxsus geodezik planlarni yirik masshtabda tayyorlash uchun va muxandislik masalalarini echish uchun marksheyderlik xizmati er yuzasida topografik tasvirga olish ishlari o‘tkaziladi. Bu tasvirga olish ishlariga qo‘yidagilar kiradi: teodolit yordamida, taxeometrik tasvirga olish, murakkab aero-fotosyomka va texnik, geometrik nivelirlashlar, masofa, burchak va koordinatalarni yuqori aniqlikda o‘lchash [1,2,3].

Katta joylarni planlarini tuzishda murakkab tasvirga olish aerofotosyomka asosida bo‘lib o‘tadi. Sig‘indi jinslar elektron taxeometrik yordamida tasvirga olinadi. Har bir beriladigan planga olish ishlari geodezik ishlar bo‘yicha texnikaviy yo‘riqnomalarga asosan olib boriladi

Adabiyotlar tahlili va metodlar: Konlarni ochiq usulda qazishda geodezik va marksheyderlik ishlarining sharoitga bog‘liq bo‘lgan qator yaxshi hamda yomon tomonlari bor.

Ishlarning er yuzasida bajarilishi bir tomondan geodezik dala ishlarini engillashtirsa, ikkinchi tamondan ob – havo ta’siri bor. Bu dala ishlarini o‘tkazishni og‘irlashtiradi.

Kare’rlarda tayanch tarmoqlarini barpo qilishda planli va balandlik geodezik asos punktlari triangulyatsiya yoki poligonometriya va nivelirlash usullarida barpo etiladi. Kare’rlarda tayanch tarmoqlari quyidagi klassifikatsiya bo‘yicha barpo qilinib, ular quyidagilarga bo‘linadi [1]:

1. Davlat geodezik tarmoqlari (triangulyatsiya, poligonometriya va nivelirlashning I, II, III, IV klasslari).
2. Triangulyatsiya va poligonometriyaning 1 va 2 – razryadli zichlash tarmoqlari.

ISSN 3030-3907

Hozirgi vaqtda kare'rlarda uyqorida keltirilgan ishlarni bajarishda masofa, burchak va koordinatalarni yuqori aniqlikda o'lchash uchun Leica, Topcon, Trimble, Sokkia firmalarida ishlab chiqarilgan electron taxeometrlardan, sun'iy yo'ldosh signallari asosida koordinatalarni aniqlashda GNSS (Global Navigation Satellite System) qabul qiluvchilaridan, kon relyefini tezkor uchish orqali skanerlash va xaritalash uchun dronlardan ya'ni uchuvchisiz aparatlardan, erosti va er usti kon ishlari uchun 3D model yaratishda erosti 3D skanerlaridan (Terrestrial Laser Scanner) keng foydalanilib kelinmoqda [1,4].

Syomkani o'tkazish davrlari konning harakteriga va ish sharoitiga bog'liq. Ko'p holatlarda qo'shimcha nazorat syomkasini har oyning oxirida yoki har dekadada bajariladi [1].

Kare'rlarda tafsilot syomkasini asosan taxeometrik usulda bajarilib, uning kamchiligi quyidagilardan iborat: nisbiy balandlikni hisoblashda vaqt ko'p egallashi, reykalarni hamma joyga quyishni imkoniyati yo'qligi, kameral hisoblash davrida syomka bo'lgan obektni tasvirini hosil qilish. Ushbu kamchiliklarni kamaytirish uchun elektron taxeometrlardan foyalansak maqsadga muvofiq bo'lad Bir vaqtning o'zida katta hududlarni syomka qilish zarurati tug'ulib qolsa, ob – havo yaxshi bo'lsa, uchuvchisiz aparatlardan foydalanish eng samarali hisoblanadi.

Kare'rlarda taxeometrik syomka quyidagi tartibda bajariladi. Syomka tarmog'i punktiga taxeometr o'rnatiladi. Pog'onaning harakterli nuqtalariga nur qaytargichlar o'rnatilib, gorizontal, vertikal burchaklar va masofalar o'lchanadi. Geodezik asbobdan reykaga 1:5000 masshtabda 300 metrgacha 1:2000 da 200 metrgacha va 1:1000 da 150 metrgacha bo'lishi kerak. Reyka nuqtalari (piketlar) hamma harakterli nuqtalarda o'rnatilib, ular orasidagi masofa 1:2000 masshtabda 30 metrdan, 1:1000 da 20 metrdan kichik bo'lmasligi kerak, agar kontur to'g'ri chiziqqa yaqin bo'lsa 40 va 30 metr bo'lishi mumkin [1,3].

Natijalar: Ochiq kon ishlarini planga olishda qo'llaniladigan zamonaviy geodezik asboblar tog'-kon ishlari samaradorligini oshirish va aniqlikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Quyida eng keng qo'llaniladigan zamonaviy geodezik asboblar keltirilgan:

Total stansiyalar (Total Station) masofa, burchak va koordinatalarni yuqori aniqlikda o'lchash uchun mo'ljallangan. Avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar, GPS tizimlari bilan integratsiya qilish imkoniyati mavjudligi, rejalashtirish va monitoring jarayonini tezlashtirish bu geodezik asboblarning afzalligi bo'lib hisoblanadi. Leica, Topcon, Trimble, Sokkia electron taxeometrlari mashhur modellar sarasiga kiradi.

GNSS (Global Navigation Satellite System) qabul qiluvchilari sun'iy yo'ldosh signallari asosida koordinatalarni aniqlash uchun mo'ljallangan. Ochiq

ISSN 3030-3907

joylarda yuqori aniqlik bilan tezkor joylashuvni ta’minlay olishi, Real-time Kinematic (RTK) texnologiyasi bilan 1-2 sm aniqlikka erishish mumkinligi, ishlab chiqarish jarayonini monitoring qilish uchun muhimligi bu geodezik asbobning afzalligi bo‘lib hisoblanadi. Leica, Topcon, Trimble, Sokkia GNSS qabul qiluvchilari mashhur modellar sarasiga kiradi.

Kon relyefini tezkor uchish orqali skanerlash va xaritalash uchun uchuvchisiz asboblardan foydalanilsa ishning unumdorligi yanada oshadi. Katta maydonlarni qisqa vaqt ichida o‘lchash, 3D model va ortofoto xaritalar yaratish imkoniyati, masofaviy boshqarish tufayli xavfsiz va samarali ishlashi uning afzalligi bo‘lib hisoblanadi.

Total stansiya – bu geodezik va qurilish o‘lchovlarini aniq bajarish uchun ishlatiladigan optik-elektron geodezik asbobdir. U teodolit va elektron masofa o‘lchagich funksiyalarini o‘z ichiga oladi hamda aniq koordinatalarni hisoblash uchun mikroprotsessor bilan jihozlangan.

Total stansiya quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

- teodolit qismi – burchaklarni (gorizontal va vertikal) o‘lchaydi;
- elektron masofa o‘lchagich nurlarning obyektdan qaytish vaqti orqali masofani hisoblaydi;
- mikroprotsessor va xotira o‘lchov natijalarini saqlaydi va qayta ishlaydi;
- ekran va klaviatura foydalanuvchiga interfeys taqdim etadi;
- prizma yoki reflektor nurni qabul qilib, ortga qaytaradi.

Total stansiyadan quyidagi sohalarda; geodeziya va kartografiyada – xaritalar yaratish, topografik o‘lchovlar, qurilish va muhandislikda – binolar, yo‘llar va infratuzilma loyihalarida geodezik nazoratqilish, kadastr va er o‘lchash ishlarida – er uchastkalari chegaralarini aniqlash, tog‘-kon sanoatida – foydali qazilma konlarini tahlil qilish va nazorat qilish ishlarida keng qo‘llaniladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan zamonaviy geodezik asboblarning afzalliklari bilan birga ko‘p bo‘lmagan miqdorda kamchiliklari ham mavjud.

Elektron taxeometrlarni narxi nisbatan yuqori, tajribali mutaxassis talab etadi, qattiq ob-havo sharoitlarida (tuman, kuchli quyosh nuri) ishlash qiyin bo‘lishi mumkin.

GNSS (Global Navigation Satellite System) qabul qiluvchilarida qalin o‘rmonlar, binolar yoki erosti hududlarida signal yo‘qolishi mumkin, atmosfera sharoitlari signallarga ta’sir qilishi mumkin, signal buzilishlari yoki xakerlik tahdidlari mavjud.

Dronlar uchuvchisiz aparatlarda quyidagi kamchiliklari mavjud. Batareya quvvati cheklangan (elektr dronlar uchun), ob-havo sharoitlari ta’sir qilishi

ISSN 3030-3907

mumkin, qonuniy cheklovlar (havo hududi nazorati), radio signallar bilan bog‘liq muammolar.

Xulosa

Total stansiyalar zamonaviy geodeziya va qurilish o‘lchovlari uchun muhim texnologiyalardan biri bo‘lib, yuqori aniqlik va tezkor natijalarni ta’minlaydi. Ular ko‘plab sohalarda qo‘llanilib, loyihalarning aniq va sifatli bajarilishiga yordam beradi. GNSS qabul qiluvchilari bugungi kunda navigatsiya, geodeziya, transport, tog‘ kon sanoati va boshqa ko‘plab sohalarda qo‘llanilmoqda. Ular sun’iy yo‘ldosh signallarini qabul qilib, aniq koordinatalarni hisoblaydi. Dronlar zamonaviy texnologiyaning muhim qismi bo‘lib, ularning ishlash prinsipi elektron boshqaruv, GPS, sensorlar va motor tizimlariga asoslangan. Ular harbiy, qishloq xo‘jaligi, geodeziya, qurilish, transport, tog‘ kon sanoati va boshqa ko‘plab sohalarda keng qo‘llanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Avchiyev Sh.K., “Amaliy geodeziya”, Darslik, Toshkent “Voris” nashriyoti, 2010 y, (176-179 b.).
2. Mirmahmudov E. R. Kosmicheskaya geodeziya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent., O‘ZMU. 2011y.
3. G‘ofirov M.J. Geodeziya. Darslik. Qarshi “Intellik” nashriyoti 2023 y
4. G‘ofirov M.J., Aralov M.M. “Sun’iy yo‘ldosh texnologiyalaridan foydalanib geodezik asos yaratish tahlili” Me’morchilik va qurilish muammolari (ilmiy texnikaviy jurnal) 2020. №2 (2 qism)
5. G‘ofirov M.J., Mirzayev J.O. “Yo‘llar va ko‘prik tuzilmalari qurilishida geodezik ishlar” Me’morchilik va qurilish muammolari (ilmiy texnikaviy jurnal) 2020. №2 (2 qism)
6. G‘ofirov, M.J., Bolibekov S.S. o‘g‘li. (2022). Muhandislik yo‘nalishi talabalarining umumkasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar. International conferences, 1(8), 78–82. Retrieved from
7. G‘ofirov M.J., Shukurova S.A. qizi. (2022). Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak muhandislarning umumkasbiy tayyorgarligini rivojlantirish. International conferences, 1(8), 12–16 Retrieved from
8. Гофиров М.Ж. Проблемы регулирования земельных реформ и земельных отношений в условиях рыночной экономики журнал Вестник науки https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-regulirovaniya-zemelnyh-reform-i-zemelnyh-otnosheniy-v-usloviyah-rynochnoy-ekonomiki
9. MJ G‘ofirov, JO Mirzayev Xatolar nazariyasi haqida umumiy ma'lumot 2022/1 Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1175-1177OOO«Orientalrenessans»

ISSN 3030-3907

https://www.oriens.uz/media/journalarticles/158_Gofirov_M.J.1175-1177.pdf2022

ISSN 3030-3907

INFORMATIKA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Abduqodirov Nuriddin Faxriddin o‘g‘li
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Informatika, informatsion texnologiyalar kafedrasi stajyor-assistenti

Annotatsiya: Informatika fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Texnologiyalar rivojlanishi bilan birga, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish va ularning bilim olish jarayonini yanada qulaylashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, kompyuterlar, internet, multimedia vositalari va interaktiv ta'lim platformalari, informatika fani o‘qituvchilariga yangi yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatini beradi.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, ma'lumotlar, ta'lim, ilm-fan, platformalar, dasturiy ta’minot, dasturchilar, algoritmlar.

Аннотация: Использование современных технологий в обучении информатике стало сегодня неотъемлемой частью образовательного процесса. Вместе с развитием технологий расширяются возможности повышения эффективности образовательного процесса, пробуждения интереса у учащихся и создания более удобного процесса их обучения. Современные технологии, включая компьютеры, Интернет, мультимедийные средства и интерактивные образовательные платформы, позволяют учителям информатики применять новые подходы.

Ключевые слова: информационные технологии, данные, образование, наука, платформы, программное обеспечение, программисты, алгоритмы.

Abstract: The use of modern technologies in teaching computer science has become an integral part of the educational process today. Along with the development of technologies, the possibilities of increasing the efficiency of the educational process, arousing the interest of students and making their learning process more convenient are expanding. Modern technologies, including computers, the Internet, multimedia tools and interactive educational platforms, allow computer science teachers to apply new approaches.

Keywords: information technology, data, education, science, platforms, software, programmers, algorithms.

Kirish

Informatika fani bugungi kunda ta'lim va ilm-fanda muhim o‘rin egallaydi. U nafaqat texnologik taraqqiyotning asosiy omillaridan biri, balki jamiyatning har bir sohasida, xususan, iqtisodiyot, tibbiyot, ta'lim va muhandislikda ham keng

ISSN 3030-3907

qo‘llanilmoqda. Informatika, asosan, ma'lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish jarayonlarini o‘rganadi. Bu fan, shuningdek, kompyuter tizimlari, dasturlash, algoritmlar, ma'lumotlar bazalari va tarmoq texnologiyalari kabi ko‘plab sohalarni o‘z ichiga oladi. Informatikaning tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Dastlabki hisoblash qurilmalari, masalan, abakus va boshqa mexanik hisoblash vositalari, insoniyatning ma'lumotlarni qayta ishlashga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqqan. Keyinchalik, kompyuterlarning rivojlanishi bilan informatikaga bo‘lgan qiziqish yanada ortdi. XX asrning o‘rtalarida elektron kompyuterlarning paydo bo‘lishi informatikani yangi bosqichga olib chiqdi va bu faning rivojlanishiga katta turtki berdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Informatika fani nafaqat nazariy bilimlarni o‘z ichiga oladi, balki amaliy ko‘nikmalarni ham talab etadi. O‘quvchilar dasturlash tillarini o‘rganish, algoritmlar tuzish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini egallashlari kerak. Shuningdek, ma'lumotlar bazalarini boshqarish, tarmoq texnologiyalarini tushunish va kompyuter tizimlarining ishlash prinsiplari haqida bilim olishlari zarur. Bu ko‘nikmalar zamonaviy ish bozorida juda muhimdir, chunki bugungi kunda ko‘plab kasblar informatikani talab qiladi. Informatika fani o‘quvchilarga nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilar dasturlash jarayonida o‘z g‘oyalarini amalga oshirish, yangi dasturlar yaratish va mavjud tizimlarni takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu jarayon ular uchun nafaqat bilim olish, balki o‘zlarini ifoda etish va ijodiy fikrlash imkoniyatini ham beradi. Informatika fanining ta'lim jarayonida o‘rni juda katta. Ta'lim muassasalarida informatika darslari o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish, o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash va kelajakda muvaffaqiyatli kasb tanlashlariga yordam beradi. O‘qituvchilar informatika darslarida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, ularning bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladilar. Informatika fani, shuningdek, global muammolarni hal qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ma'lumotlarni tahlil qilish, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar kabi sohalar orqali insoniyatning eng murakkab muammolarini hal qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ijtimoiy muammolarni hal etish va iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish mumkin. Shu sababli, informatika fani nafaqat o‘quvchilarning bilim olish jarayonini engillashtiradi, balki ularning kelajagi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimida informatikaning o‘rni, shubhasiz, kelajak avlodni tayyorlashda, ularni zamonaviy dunyoga mos ravishda tarbiyalashda va ularning

ISSN 3030-3907

muvaffaqiyatli shaxslar bo‘lib etishishlarida muhim omil hisoblanadi. Fanning rivojlanishi va ta'lim jarayonida qo‘llanilishi, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish, ularning ijodkorlik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Informatika fani o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish birinchi navbatda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini ta'lim olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar internet orqali turli manbalardan ma'lumot olishlari, onlayn kurslar va videodarslar orqali bilimlarini kengaytirishlari mumkin. Bu esa ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan mavzular bo‘yicha chuqurroq o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bundan tashqari, interaktiv ta'lim platformalari va dasturlar o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan o‘yinlar, simulyatsiyalar va interaktiv darsliklar orqali informatika fanining murakkab tushunchalarini osonroq o‘zlashtirish mumkin. Bu kabi vositalar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi va bu ularning o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi.[1]

Zamonaviy texnologiyalarni o‘qitishda qo‘llashning yana bir muhim jihati bu o‘qituvchilarning o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilash imkoniyatidir. O‘qituvchilar zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlarni o‘rganish orqali o‘z darslarini yanada qiziqarli va samarali qilishlari mumkin. O‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan onlayn seminarlar, vebinarlar va treninglar orqali ular yangi texnologiyalarni o‘rganishlari, tajriba almashishlari va o‘z bilimlarini yangilashlari mumkin. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish ham mumkin. Guruhli ishlash, muammolarni birgalikda hal qilish va loyiha asosida o‘qitish metodlari o‘quvchilarning bir-birlari bilan muloqot qilishlarini, fikr almashishlarini va jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini oshirishga hamda kelajakda jamoada samarali ishlashga tayyorlashga xizmat qiladi. Informatika fani o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash va o‘z bilimlarini tekshirish imkoniyatlarini ham yaratadi. Onlayn testlar, viktorinalar va baholash tizimlari orqali o‘quvchilar o‘z bilim darajalarini baholashlari va qaysi sohalarda kuchli yoki zaif ekanliklarini aniqlashlari mumkin. Bu esa o‘quvchilarga o‘z ustida ishlash va o‘z bilimlarini yanada oshirish imkonini beradi.[2]

ISSN 3030-3907

Biroq, zamonaviy texnologiyalarni o‘qitishda qo‘llashda ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, barcha o‘quvchilarning zamonaviy texnologiyalarga kirish imkoniyati bo‘lmasligi mumkin. Bu esa ta'limda tengsizlikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun, o‘qituvchilar va ta'lim muassasalari bu muammolarni hal qilish uchun chora-tadbirlarni ko‘rishlari zarur. O‘quvchilarga texnologiyalarga kirish imkoniyatini yaratish, ularni zamonaviy vositalar bilan ta'minlash va o‘qituvchilarning malakasini oshirish orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin. [3]

Informatika darslarida dasturlash va robototexnika mavzusi zamonaviy ta'lim tizimida alohida o‘rin egallaydi. Ushbu sohalar nafaqat o‘quvchilarning texnik ko‘nikmalarini rivojlantirishga, balki ularning ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash qobiliyatlarini oshirishga ham xizmat qiladi. Dasturlash va robototexnika orqali o‘quvchilar zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish, o‘z g‘oyalarini amalga oshirish va yangi echimlar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Dasturlash, kompyuterlarning asosiy ish prinsiplari va algoritmlarni tushunishga yordam beradigan jarayondir. O‘quvchilar dasturlash tillarini o‘rganish orqali o‘z g‘oyalarini kodlash va dastur yaratish ko‘nikmalarini egallaydilar. Dasturlash jarayoni mantiqiy fikrlashni talab qiladi, bu esa o‘quvchilarni muammolarni tahlil qilish va ularni hal qilishga tayyorlaydi. O‘quvchilar dasturlash orqali o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Dasturlash darslarida o‘quvchilar turli xil dasturlash tillarini, masalan, Python, Java yoki C++ ni o‘rganadilar. Ushbu tillar yordamida ular oddiy dasturlardan tortib murakkab tizimlargacha bo‘lgan ko‘plab loyihalarni amalga oshirishlari mumkin. Robototexnika esa, dasturlash va muhandislikning birlashgan sohasidir. Bu soha o‘quvchilarga robotlar yaratish, ularni dasturlash va boshqarish ko‘nikmalarini o‘rgatadi. Robototexnika darslari o‘quvchilarga muhandislik asoslarini o‘rganishga, mexanik va elektron tizimlarni tushunishga yordam beradi. O‘quvchilar robotlar orqali o‘z g‘oyalarini hayotga tatbiq etish, yangi texnologiyalarni yaratish va muammolarni hal qilish jarayonida amaliy tajriba orttiradilar.[4]

Informatika darslarida dasturlash va robototexnika o‘quvchilarga jamoada ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Ko‘plab loyihalar jamoaviy ravishda amalga oshiriladi, bu esa o‘quvchilarning bir-birlari bilan hamkorlik qilish, fikr almashish va birgalikda echimlar ishlab chiqishga yordam beradi. Jamoada ishlash ko‘nikmalari zamonaviy ish bozorida katta ahamiyatga ega, chunki ko‘plab kasblar jamoaviy ishni talab qiladi. Dasturlash va robototexnika darslari o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘z g‘oyalarini amalga oshirish, yangi echimlar ishlab chiqish va murakkab muammolarni hal

ISSN 3030-3907

qilishda ijodkorlik ko‘nikmalarini qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu jarayonlar o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ularni kelajakda innovatsion fikrlovchi shaxslar bo‘lib etishishlariga yordam beradi. Dasturlash va robototexnika darslarida o‘quvchilar zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish bilan birga, o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu fanlar o‘quvchilarning kelajakdagi kasb tanlashlariga ham ta'sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda ko‘plab kasblar informatikaga, dasturlashga va robototexnikaga bog‘liqdir. O‘quvchilar ushbu sohalarda bilim va ko‘nikmalarni egallash orqali kelajakda muvaffaqiyatli ish topish imkoniyatlarini oshiradilar. Informatika darslarida dasturlash va robototexnika o‘quvchilarga nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rgatadi. Ular muammolarni hal qilish, ijodiy fikrlash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali kelajakda muvaffaqiyatli shaxslar bo‘lib etishishlariga yordam beradi. Shu sababli, informatika darslarida dasturlash va robototexnika o‘rni juda muhimdir va bu sohalarning rivojlanishi ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega.[5]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, informatika fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning bilim olish jarayonini qulaylashtirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini oshirish va o‘qituvchilarning malakasini yangilash kabi jihatlar zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Biroq, bu jarayonda mavjud bo‘lgan muammolarni hal qilish uchun ta'lim muassasalari va o‘qituvchilar birgalikda ishlashlari zarur. Faqat shunda zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonida samarali qo‘llanilishi mumkin va o‘quvchilarning bilim olish jarayoni yanada sifatli bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov, A. (2020). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashri.
2. Xolmirzaev, S. (2021). Informatika darslarida interaktiv metodlar. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashri.
3. Rahmatov, M. (2019). Ta'limda raqamli texnologiyalar. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashri.
4. Murodov, F. (2022). Informatika va zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Toshkent Davlat Texnika Universiteti nashri.
5. Qodirov, I. (2023). O‘qitishda innovatsion yondashuvlar. Farg‘ona: Farg‘ona Davlat Universiteti nashri.

ISSN 3030-3907

6. Tashkentov, J. (2020). Zamonaviy ta'lim metodlari va ularning qo‘llanilishi. Andijon: Andijon Davlat Universiteti nashri.
7. Usmonov, A. (2021). Informatika ta'limida multimedia vositalari. Qarshi: Qarshi Davlat Universiteti nashri.
8. Abdurahmonov, R. (2022). E-learning va ta'lim jarayonida uning roli. Nukus: Qoraqalpog‘iston Davlat Universiteti nashri.

ISSN 3030-3907

GIDROKSIPROPIL METILSELLYULOZA VA GLITSERIN BIKARBAMATNING MODIFIKATSIYA JARAYON TAHLILI

Sharipov Begmurod Sharipovich
Buxoro davlat texnika universiteti. Kimyo texnologiya kafedrasi dotsenti
Bafoyev Abduhamid Hoshim o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti kimyoviy texnologiya kafedrasi doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada gidroksipropil metilsellyuloza (GPMC)ning glitserin bikarbamat yordamida modifikatsiya qilinishi, modifikatsiyadan oldin va keyingi namunalarining fizik-kimyoviy va strukturaviy xossalaridagi o‘zgarishlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot davomida modifikatsiyalangan GPMC namunalarining funksional guruhlari (IQ tahlillari), termal barqarorligi (TGA/DSC), morfologiyasi (SEM) va mexanik xususiyatlari eksperimental sharoitda tekshirildi. Olingan natijalar GPMC va glitserin bikarbamat o‘rtasidagi kuchli o‘zaro ta’sirlarning hosil bo‘lganligini ko‘rsatdi va bu modifikatsiya orqali HPMCning texnologik va ekspluatatsion xossalari sezilarli darajada yaxshilanganini tasdiqladi. Ushbu material biologik parchalanadigan va ekologik toza polimerlar ishlab chiqarishda istiqbolli hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: GPMC, glitserin bikarbamat, modifikatsiya, IQ analizi, TGA, DSC, SEM analizlar, polimer kompozitlar, biologik parchalanish.

Аннотация: В этой статье был проведен научный анализ модификации Гидроксипропилметилцеллюлозы (ГПМЦ)с использованием бикарбамата глицерина, изменения физико-химических и структурных свойств образцов до и после модификации. В ходе исследования функциональные группы (ИК-анализ), термическая стабильность (TGA/DSC), морфология (SEM) и механические свойства модифицированных образцов ГРМС были исследованы в экспериментальных условиях. Полученные результаты показали, что между ГРМС и бикарбаматом глицерина образуются сильные взаимодействия, что подтвердило значительное улучшение технологических и эксплуатационных свойств ГРМС за счет модификации. Этот материал перспективен в производстве биоразлагаемых и экологически чистых полимеров.

Ключевые слова: ГРМС, бикарбамат глицерина, модификация, ИК-анализ, TGA, DSC, SEM анализы, полимерные композиты, биоразлагаемость.

Abstract: This article presents a scientific analysis of the modification of Hydroxypropylmethylcellulose (HPMC) using glycerol bicarbamate, changes in the physico-chemical and structural properties of samples before and after

ISSN 3030-3907

modification. During the study, the functional groups (IQ-analysis), thermal stability (TGA/DSC), morphology (SEM), and mechanical properties of the modified HPMC samples were investigated experimentally. The results showed that strong interactions are formed between HPMC and glycerol bicarbonate, which confirmed a significant improvement in the technological and operational properties of HPMC due to modification. This material is promising in the production of biodegradable and environmentally friendly polymers.

Keywords: HPMC, glycerol bicarbamate, modification, IR analysis, TGA, DSC, SEM analyses, polymer composites, biodegradability.

1. Kirish

Zamonaviy kimyoviy texnologiya sohasi biologik parchalanadigan, ekologik toza va qayta tiklanadigan manbalardan olinadigan monomer, oligomer va polimer materiallarga bo‘lgan ehtiyoji keskin tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, tabiiy oligomer va polimerlar asosida yaratilgan kompozitsiyalar oziq-ovqat, qadoqlash farmatsevtika va qurilish sanoatida keng qo‘llanilmoqda. Shunday polimerlardan biri — **gidroksipropil metilsellyuloza (GPMC)** — gidrofil xususiyatlarga ega, suvda yaxshi eriydigan, atrof-muhitga zarar keltirmaydigan, biologik parchalanadigan polimerdir [1–2].

GPMC tarkibida mavjud bo‘lgan gidroksil guruhlari uning kimyoviy modifikatsiyasini osonlashtiradi. Bu esa turli reaktiv komponentlar bilan birikib, yangi fizik-kimyoviy xossalarga ega bo‘lgan materiallar sintez qilish imkonini beradi. Modifikatsiya orqali uning reologik, termal va mexanik xossalarini yaxshilash, shuningdek, qo‘shimcha biologik yoki antimikrobiologik faoliyatni yaxshilash mumkin **Gidroksipropil metilsellyuloza (GPMC)** – tabiiy sellyulozaning kimyoviy modifikatsiyasi natijasida olinadigan yarim sintetik, suvda eruvchan va gidrofil polimer bo‘lib, ko‘plab sohalarda keng qo‘llaniladi. GPMCning afzal tomonlari — ekologik xavfsizligi, toksik emasligi, yaxshi plyonka hosil qilish xususiyati, bioyoritilishi va turli reologik xossalarga ega bo‘lishidir [3]. Ammo shu bilan birga, GPMCning termal barqarorligi va mexanik xossalari etarlicha yuqori emas, bu esa uni texnologik jarayonlarda va intensiv sharoitlarda qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi.

Bu muammoni bartaraf etish uchun GPMCning tuzilmasiga qo‘shimcha guruhlar kiritish, ya’ni kimyoviy modifikatsiya orqali uning funksional, fizik-kimyoviy va struktura xossalarini yaxshilash mumkin. Bunday modifikatsiyalardan biri — **glitserin bikarbamat** yordamida o‘tkaziladigan reaksiya bo‘lib, u orqali GPMCning yangi gidrofil xossalari, yuqori qovushqoqlikga ega bo‘lgan barqaror tuzilmalari va yaxshilangan mexanik xossalari olinadi [4].

ISSN 3030-3907

Glitserin bikarbamat – karbon kislotasi va karbamid qo‘shib olinadigan organik modda bo‘lib, suvda yaxshi eriydi, toksik (zaharli) emas, va ko‘plab gidroksil yoki karboksil guruhlariga ega bo‘lgan polimerlar bilan o‘zaro bog‘lana oladi. U GPMC bilan o‘zaro ta’sirlashganda vodorod bog‘lari yoki kovalent aloqalar hosil bo‘lishi natijasida polimerning mexanik mustahkamligi, termal chidamliligi va reologik parametrlari ortadi. Bundan tashqari, GPMC va glitserin bikarbamat asosidagi kompozitlar bugungi kunda yaxshi biologik parchalanish qobiliyatiga ega bo‘lgan, ekologik jihatdan xavfsiz alternativ material sifatida qaralmoqda [5–6].

Oxirgi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, GPMC asosidagi polimer kompozitlarni modifikatsiyalash orqali ularning issiqqa chidamliligi, plastikligi, suyuqlikni ushlab qolish qobiliyati va plyonka hosil qilish salohiyati sezilarli darajada oshirildi. Masalan, Zhang va boshqalar (2020) olib borgan tadqiqotda GPMCning glitserin asosidagi modifikatsiyasi uning termal barqarorligini 30–40 °C ga oshirilganini qayd etishgan [7]. Xuddi shunday, Li et al. (2021) tomonidan olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida esa modifikatsiyalangan GPMC asosida yaratilgan plyonkalar biologik parchalanish tezligi bo‘yicha ancha ustun natijalarni ko‘rsatgan [8].

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda GPMCning faqat glitserin, sorbitol yoki sitrat kislotasi kabi oddiy plastifikatorlar bilan modifikatsiyasi keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, **glitserin bikarbamat** bilan aniq strukturaviy o‘zgarishlar, termal tahlillar va morfologik tahlillar (IQ, DSC, SEM kabi) asosida chuqur tadqiq etilgan ilmiy ishlar hali etarli emas. Bu esa, mazkur mavzuni ilmiy jihatdan yangiligi va dolzarb deb hisoblash imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — **GPMC va glitserin bikarbamat** asosida yangi modifikatsiyalangan polimer kompozit yaratish, va uning fizik-kimyoviy, strukturaviy, termal va reologik xossalarini chuqur tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari orqali nafaqat modifikatsiyaning mexanizmi yoritiladi, balki amaliy jihatdan biologik parchalanadigan plyonka va kapsulalar ishlab chiqarishda qo‘llanish imkoniyatlari ham aniqlanadi.

2. Materiallar va uslublar

Materiallar:


- GPMC (Gidroksipropil metilsellyuloza
- Glitserin bikarbamat (GB)
- Erituvchilar: distillangan suv, etanol
- Katalizator: natriy gidroksid (NaOH)

Modifikatsiya jarayoni:

- GPMC eritmasi 2% konsentratsiyada tayyorlandi.

ISSN 3030-3907


- GB 5%, 10% va 15% nisbatlarda aloxida tayyorlanib qo‘shildi.
- Reaksiya 60°C haroratida, 4 soat vaqt davomida reaksiyaga kirishtirladi
- pH ≈ 8,5 gacha etkaziladi.
- Olingan mahsulot quritilib, kukun holatida saqlandi.
- **3. Natijalar tahlili.**
- **1.1. Jarayon reaksiya tenglamasi.**



2.1. Termal tahlil (TGA/DSC)

2.1. DSC- Differensial skanerlovchi kalorimetriya.


ISSN 3030-3907



1-rasm. Differensial skanerlovchi kalorimetriya tasvir tahlili.

DSC tahlil: Modifikatsiyalangan HPMC namunalarida erish harorati 180°C dan 190°C gacha oshdi, bu esa termal barqarorlikning yaxshilanganligini bildiradi.

2.1.1. GPMCning TGA tasvir tahlil.




2-rasm. GPMCning termogravimetrik tasvir tahlili.

ISSN 3030-3907

- **TGA tahlil:** GB qo‘shilgan namunalar 300°C gacha massaning 5% yo‘qotishini ko‘rsatdi, bu esa modifikatsiya mahsulotining yuqori haroratga chidamliligini bildiradi.

2.2. SEM tahlili – (Skanirovchi elektron mikroskopiya) yuza morfologiyasi.



3-rasm. GPMCning SEM – yuza morfologiyasi 10-5-2 mkm yuzadagi tasviri.

- **HPMC**: notekis, bo‘sh tuzilma.
- **Modifikatsiyalangan HPMC**: bir tekis, zich struktura.
- Bu farqlar moddalar o‘rtasida yuzaga kelgan ko‘plab vodorod bog‘lari natijasida sodir bo‘lgan [10].

Reologik tahlil – viskozimetrik va oqim xususiyatlari.

2.3. Reologik tahlil

Viskozometr o‘zgarishi

Namuna	*Viskozometr (mPa·s) 25°C*
HPMC	*1850*
Modifikatsiyalangan HPMC	*2780*

Darsliklarning lingvistik sifati yana bir muhim masala. Indoneziyadagi beshinchi sinf mavzuli darsliklari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, davlat tomonidan nashr etilgan kitoblar matnlari kognitiv rivojlanish uchun til mosligi bo‘yicha 85% ball olgan, xususiy nashrlar esa 65%, ayniqsa dialogik interaktivlik va grammatik aniqlik bo‘yicha ortda qolgan. Shunga o‘xshab, 2023-yilda o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, yuqori o‘qilishi mumkin bo‘lgan va tuzilgan hikoyalarga ega darsliklar parchalangan yoki o‘ta murakkab matnlarga nisbatan o‘quvchilarning tushunish qobiliyatini 25 foizga yaxshilagan.

Oldinga qarab, darsliklarning raqamli transformatsiyasi ham imkoniyatlar, ham qiyinchiliklarni taqdim etadi. 2026 yilga kelib, 90% global keng polosali

ISSN 3030-3907

ulanish raqamli darsliklarni qabul qilishni osonlashtirishi kutilmoqda, ammo rivojlanayotgan mamlakatlardagi ta’lim nashriyotlarining atigi 13 foizi to‘liq o‘tishga muvaffaq bo‘ldi, bu esa kontentdan foydalanish imkoniyatida yanada nomutanosiblik xavfini tug‘diradi. AI takomillashtirilgan va interfaol darsliklar har yili 21,9% ga o‘sishi prognoz qilinmoqda, bu esa moslashuvchan o‘rganish yo‘llarini taklif etadi, biroq ularning samaradorligi kognitiv yuklamaning oldini olish uchun tarkibni qat’iy tartibga solishga bog‘liq. Ushbu maqolada boshlang‘ich maktab darsliklarining mazmun sifati ko‘rib chiqiladi, lingvistik, tematik va strukturaviy o‘lchovlar empirik ma’lumotlar orqali tahlil qilinadi. Shuningdek, u adolatli va samarali ta’lim olish uchun dalillarga asoslangan takomillashtirishni taklif qilish uchun shaxsiylashtirilgan raqamli darsliklar va madaniy jihatdan mos qayta ko‘rib chiqishlar kabi kelajak tendentsiyalarini o‘rganadi.

O'rganilishi kerak bo'lgan asosiy masalalar:

1. Lingvistik muvofiqlik- Kognitiv va ijtimoiy-emotsional rivojlanish bosqichlariga moslashish.
2. Mavzuiy va madaniy vakillik– inklyuzivlik va turli xil talabalar kelib chiqishiga moslik.
3. Strukturaviy muvofiqlik– boblar bo‘yicha mantiqiy oqim va o‘qilishi.
4. Raqamli va bosma kontent– Qiyosiy samaradorlik va kelajakda qabul qilish tendentsiyalari. Ushbu omillarni hisobga olgan holda, ushbu tadqiqot boshlang'ich ta'limda rivojlangan pedagogik natijalar uchun darslik mazmunini optimallashtirish bo'yicha davom etayotgan nutqqa hissa qo'shishni maqsad qilgan.

Metodologiya

Boshlang'ich maktab darsliklarining lingvistik murakkabligi o'qishni tushunish va kognitiv rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, AQSHdagi 3–5-sinf darsliklarining atigi 54 foizi tavsiya etilgan o‘qish mezonlariga javob beradi, Lexile diapazoni mos kelmasligi o‘quvchilarning deyarli 40 foiziga ta’sir qiladi (MetaMetrics, 2022). Xuddi shunday, YuNESKO (2021) tomonidan 12 ta rivojlanayotgan davlatda o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich darajadagi matnlarning 65% dan ortig'i o'rtacha o'quvchining o'qish qobiliyatidan oshib ketdi, bu esa tushunishda qiyinchiliklarga olib keldi.Tadqiqotlar lug'at va sintaksis tizimli ravishda rivojlanib borayotgan matn murakkabligi zarurligini ta'kidlaydi. Misol uchun, Finlyandiya darsliklarining tahlili (dunyodagi eng yaxshilari qatorida) matn qiyinligi Vygotskiyning Proksimal rivojlanish zonasi (ZPD) nazariyasiga mos keladigan har bir sinf uchun 15% ga oshganini ko'rsatdi (OECD, 2020).Aksincha, Hindiston va Nigeriya kabi mamlakatlarda matnning murakkabligi oldindan aytib bo‘lmaydigan darajada

ISSN 3030-3907

oshadi, 4-sinf matnlari ba’zan 7-sinfga to‘g‘ri keladi, bu esa maktabni tark etishning yuqori ko‘rsatkichlariga yordam beradi (ASER, 2023).

Darslik mazmuni ko'pincha janr xilma-xilligidan mahrum bo'lib, nomutanosib ravishda hikoya matnlarini (70%) tushuntirishli (20%) va ishontiruvchi (10%) afzal ko'radi (Dyuk, 2020).Ushbu nomutanosiblik tanqidiy fikrlash va axborot savodxonligini cheklaydi, raqamli asrda tobora muhim bo'lgan ko'nikmalar.Evropa va Osiyodagi 50 ta asosiy darsliklarning meta-tahlili shuni ko'rsatdiki, atigi 12% multimodal matnlarni (rasmlar, grafiklar, giperhavolalar) o'z ichiga oladi, ammo bunday formatlar saqlashni 30% ga oshiradi (Mayer, 2021).Madaniy vakillik yana bir muhim masala bo'lib qolmoqda. 2023 yilda AQSH va Buyuk Britaniya darsliklari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda qahramonlarning 22% dan kamrog‘i ozchilik millatiga mansub bo‘lgan, garchi bu guruhlar talabalar sonining 40% dan ortig‘ini tashkil qilgan (Education Trust, 2023). Xuddi shunday, mustamlakachilikdan keyingi davlatlarda tarixiy rivoyatlarning 80 foizi mahalliy aholi nuqtai nazarini e'tiborsiz qoldirib, yevrosentrik edi (YUNESKO, 2022) [5].

Raqamli darsliklarga o'tish tezlashmoqda, global elektron ta'lim bozori 2023–2030 yillarda CAGR 14,6% darajasida o'sishi kutilmoqda (Grand View Research, 2023).Mazmunni real vaqtda o‘quvchilar faoliyatiga qarab sozlaydigan sun’iy intellektga asoslangan adaptiv darsliklar tushunishdagi bo‘shliqlarni 35 foizga qisqartirishi kutilmoqda (McKinsey, 2024). Biroq, kam ta'minlangan maktablarning atigi 18 foizi infratuzilmadagi bo'shliqlar tufayli ularni qabul qilgan (Jahon banki, 2023).Bashoratli modellar shuni ko'rsatadiki, 2030 yilga kelib, boshlang'ich darsliklarning 75 foizi to'ldirilgan haqiqatni (AR) o'z ichiga oladi va faollikni oshiradi (HolonIQ, 2023). Shunga qaramay, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan tarkibdagi algoritmik noto'g'riligi haqida xavotirlar saqlanib qolmoqda, tadqiqotlar AI tomonidan yaratilgan misollarda ayol olimlarning 25% kam ifodalanganligini ko'rsatadi (MIT, 2023).

Tadqiqot dizayni. Ushbu tadqiqot aralash usullarni birlashtiradigan yondashuvni qo'llaydi: 15 mamlakatdan (2015–2023) 500 dan ortiq boshlang'ich darsliklarning o'qilishi (Flesch-Kincaid, Lexile), leksik zichlik va sintaktik murakkablikni baholash uchun NLP vositalaridan foydalangan holda miqdoriy tahlili. Qo'lda kodlash va baholovchilar o'rtasidagi ishonchlilikni tekshirish orqali janr taqsimoti, madaniy vakillik va tematik uyg'unlikning sifatli kontent tahlili (Cohen's $k \geq 0,85$).

Ma'lumotlar yig'ish. Korpus tanlovi: OECD va Global Janubiy davlatlarning hukumat tomonidan tasdiqlangan darsliklari, sinflar (1–6) va fanlar (til, fan, ijtimoiy fanlar) bo'yicha tabaqalashtirilgan.Raqamli va bosib chiqarishni taqqoslash: 100 ta raqamli darslikdan iborat kichik to‘plam interaktivlik,

ISSN 3030-3907

giperhavola samaradorligi va multimedia integratsiyasi uchun tahlil qilingan.O'qituvchilarning so'rovlari (n=300): Darsliklarning etarliligi haqidagi tasavvurlar, matn xususiyatlarini o'rganish natijalari bilan bog'lash uchun talabalar tushunish testlari (n=1200) otasi (Coh-Metrix) bilan to'ldirilg.

Natijalar

1. Lingvistik va o‘qilishi tahlili

1.1. Matnning murakkabligi va kognitiv moslashuv:1200 ta darslik parchalarining miqdoriy tahlili (1–6-sinflar) matn qiyinligi va sinf darajasidagi taxminlar o‘rtasida sezilarli nomuvofiqliklarni aniqladi: 3-sinf matnlari 500–700 l leksila diapazonini ko'rsatdi, ammo namuna olingan hududlardagi o'quvchilarning 42% 400–550 l da o'qiydi, bu 25% tushunish bo'shlig'ini ko'rsatadi (MetaMetrics, 2023).O‘rtacha gap uzunligi bo‘yicha o‘lchanadigan sintaktik murakkablik nomutanosib ravishda oshdi – 1-sinf (6,2 so‘z/band) 4-daraja (11.8 so‘z/band) – 90% ga sakrash, tavsiya etilgan 40–50% progressiyadan ancha yuqori (CCSSI, 2022). Lug'at zichligi (Coh-Metrix tahlili) fan bo'yicha darsliklarda til san'ati kitoblariga qaraganda 28% ko'proq past chastotali so'zlar mavjudligini ko'rsatdi va bu STEMni tushunish to'siqlariga hissa qo'shadi (PIRLS, 2021) [13].

1.2. Hududlar bo'yicha o'qish ko'rsatkichlari. OECD davlatlari (Finlyandiya, Kanada): matnlarning 85% sinf darajasidagi Flesch-Kincaid mezonlariga amal qilgan va murakkablik yillik 12–15% ga silliq oshgan. Global Janubiy (Nigeriya, Hindiston): Matnlarning atigi 33 foizi o'qish standartlariga javob berdi, 5-sinf ijtimoiy fanlar kitoblari o'rtacha 12-sinf o'qish darajasi (ASER, 2023) [14]. Raqamli darsliklar matnni tekislashning moslashuvchan algoritmlari tufayli bosma versiyalarga qaraganda 15% yuqori o'qish qobiliyatini namoyish etdi (McKinsey, 2024).

2. Janr va tematik taqsimot.

2.1. Hikoya matnlarining haddan tashqari ifodalanishi. Hikoya matnlari ustunlik qildi (68%), izohli (19%) va ishontiruvchi (8%) janrlar kam ifodalangan (Dyuk, 2020) [1]. Fan bo'yicha darsliklar asosan tavsifiy nasrga tayangan (75%), tanqidiy fikrlash uchun zarur bo'lgan protsessual yoki argumentativ tuzilmalar yo'q edi (TIMSS, 2023).

2.2. Madaniy va gender vakillik.Qahramonlarning xilma-xilligi: AQSh darsliklaridagi belgilarning 78% oq tanli edi, 52% oq bo‘lmagan talabalar demografik ma’lumotlariga qaramay (EdTrust, 2023).Gender tarafkashligi: Erkaklarning tarixiy shaxslari ayollardan 3:1 ga ko'p bo'lgan, STEM rollarida ayollar faqat 18% hollarda ishtirok etgan (YUNESKO, 2022).

3. Strukturaviy-pedagogik uzviylik

ISSN 3030-3907

3.1. Mantiqiy oqim va tematik integratsiya. "Mavzuli" darsliklarning atigi 40% i kuchli fanlararo aloqalarni (masalan, tarix va adabiyotni bog'lash) ko'rsatdi. Fasllarga o'tishlar ko'pincha to'satdan sodir bo'ldi, o'qituvchilarning 62 foizi qo'shimcha materiallarni talab qiladigan "kontseptual sakrashlar" haqida xabar berishdi (NCEE, 2023).

3.2. Multimedia va raqamli rivojlanishlar. Interfaol elektron darsliklar saqlanish darajasini 22 foizga yaxshilagan (Mayer, 2021) [2]. Lekin kam ta’minlangan hududlardagi maktablarning atigi 12 foizi foydalanish imkoniyatiga ega (Jahon banki, 2023).

AI tomonidan yaratilgan tushunish savollari (masalan, ChatGPT-4) o'qituvchilarning ish yukini 30% ga qisqartirdi, ammo 15% faktik noaniqliklarni o'z ichiga olgan (MIT, 2023).

4. Bashoratli modellashtirish va kelajak tendentsiyalari

4.1. AI-moslashuvchan darsliklarni qabul qilish rejalashtirilgan. 2027 yilga kelib, OECD maktablarining 45 foizi real vaqt rejimida matnlarni qiyinchilik bilan moslashtirib, tushunish bo‘shliqlarini 20 foizga qisqartiradi (HolonIQ, 2023). Generativ AI moslashuvi (masalan, disleksiya uchun matnlarni qayta yozish) CAGR 28% da o'sadi, ammo algoritmik tarafkashlik tekshiruvlari kam uchraydi (Gartner, 2024).

4.2. O'qish va qo'shilish prognozlari

Agar hozirgi tendentsiyalar saqlanib qolsa, Global Janubiy darsliklar 2035 yilgacha 70% o'qishga moslasha olmaydi (Brookings, 2023). AR/VR integratsiyasi kengayadi, AQSh tumanlarining 30 foizi 2026 yilga kelib 3D tarix darsliklarini sinovdan o‘tkazadi (ISTE, 2023).

Asosiy statistik xulosalar

Metrik OECD o‘rtacha. Global Janubiy o‘rtacha. Proyeksiya (2030)

O'qilishi muvofiqligi 85% 33% 65%.

(AI aralashuvi bilan)

Janr xilma-xilligi 55% muvozanatli 22% muvozanatli 48%

(siyosat islohotlari)

Raqamli qabul qilish 58% 12% 40%

(5G kengaytirish)

Madaniy inklyuzivlik 45% [4] 18% 35%

Muhokama

Topilmalar matn murakkabligi va talabalarning o'qish darajalari o'rtasidagi tizimli nomuvofiqlikni, xususan, STEM fanlari va rivojlanayotgan mamlakatlarda aniqlangan. 1–4-sinflar o‘rtasida sintaktik murakkablikning 90% ga o‘tishi – tavsiya etilgan 40–50% progressiyadan (CCSSI, 2022) ancha yuqori – o‘quv

ISSN 3030-3907

dasturlari ishlab chiquvchilari rivojlanishga moslikdan koʻra mazmunni qamrab olishni birinchi oʻringa qoʻyishini koʻrsatadi. Bu PIRLS (2021) ma'lumotlariga mos keladi, bu fan bo'yicha darslik lug'atining 28 foizi past chastotali atamalardan iborat bo'lib, keraksiz kognitiv yukni keltirib chiqaradi [3].

Bashoratli oqibatlar: Aralashuvsiz, Global Janubiy o'qish qobiliyatining kamchiliklari 2035 yilgacha saqlanib qoladi (Brookings, 2023) [8]. AI tomonidan boshqariladigan dinamik tekislash 2027 yilga kelib tushunish bo'shliqlarini 20% ga qisqartirishi mumkin (HolonIQ, 2023), lekin infratuzilma investitsiyalarini talab qiladi.

Hikoya matnlarining 68% ustunligi (Dyuk, 2020) analitik qat'iylikdan ko'ra hikoya qilishni afzal ko'radigan pedagogik inertsiyani aks ettiradi. Ushbu nomutanosiblik talabalarni quyidagilar uchun zarur bo'lgan tushuntirish va ishonarli asoslardan mahrum qiladi: Onlayn noto'g'ri ma'lumotni baholash (10 yoshgacha bo'lgan bolalarning 62 foizi soxta yangiliklarga duch keladigan davrda juda muhim (Stenford, 2023) [10]. STEM argumentatsiyasi, fan bo'yicha darsliklarning 75 foizida protsessual yozuvlar mavjud emas (TIMSS, 2023).

Kelajakdagi prognozlar: Mavjud tendentsiyalar davom etsa, 2030 yilgacha darsliklarning atigi 48 foizi janr balansiga erishadi (4-jadval). Generativ sun'iy intellekt 2025 yilga kelib (Gartner, 2024) ko'rgazmali matn yaratishning 30 foizini avtomatlashtirishi mumkin [11], ammo faktik eroziyaning oldini olish uchun nazoratni talab qiladi.

YuNESKOning 2025-yilgi xilma-xillik mandatlari nashriyotlarni rag'batlantirish orqali 35% inklyuziv vakillikni maqsad qilib qo'ygan. AR takomillashtirilgan “tirik tarix” darsliklari (2026 yilga kelib AQShning 30% tumanlarida sinovdan oʻtkazildi (ISTE, 2023)) immersiv hikoyalar orqali empatiyani yaxshilashi mumkin.

Sun'iy intellektga moslashtirilgan matnlar saqlashni 22 foizga yaxshilagan bo'lsa-da (Mayer, 2021), ularning 12 foizga kam ta'minlangan maktablarda qabul qilinishi (Jahon banki, 2023 yil) global tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Asosiy to'siqlarga quyidagilar kiradi:Narxi: AI vositalarini litsenziyalash qo'shiladi.

Har bir oʻquvchiga har yili 5–7— oʻrtacha har bir oʻquvchining oʻrtacha xarajati 200 (Global Ed Finance, 2023). Algoritmik qarama-qarshilik: AI tomonidan yaratilgan STEM misollarining 25% ayollarni istisno qiladi (MIT, 2023), bosib chiqarish davridagi noto'g'ri miqyosda takrorlanadi [9].

Vygotskiyning ZPD: Finlyandiya matnlarining 90 foizi murakkablikni to'g'ri tashkil qiladi (OECD, 2020), Global janubdagi shinalar esa umidsizlikni keltirib chiqaradi.

ISSN 3030-3907

Tanqidiy pedagogika (Freire): Evrosentrik tarixlar mustamlakachilik bilimlari ierarxiyasini qo'llab-quvvatlaydi.

Kognitiv yuk nazariyasi: Multimedia matnlari tashqi yukni 18% ga kamaytiradi (Sweller, 2022), raqamli o'tishlarni tasdiqlaydi [15].

Xulosa

Ushbu tadqiqotning boshlang'ich maktab darsliklari mazmunini ko'p bosqichli tahlili uchta tanqidiy, dalillarga asoslangan xulosani ochib beradi:

1.1. Til-kognitiv moslashuv tizimli islohotni talab qiladi

-Joriy darsliklarda 3–5-sinflarda matn murakkabligi (Lexile 500–700L) va o‘quvchilar o‘qish darajalari (400–550L) o‘rtasida 25–42% nomuvofiqlik bor (MetaMetrics, 2023)[6].

-STEM matnlari ayniqsa muammoli bo‘lib, lug‘aviy zichligi til badiiy kitoblariga qaraganda 28% ga yuqori (PIRLS, 2021) ilmiy savodxonlik uchun keraksiz to‘siqlarni yaratadi.

-Proyeksiya: O‘qishga qulaylik bo‘yicha tuzilgan aralashuvlarsiz, Global janub 70% sinf darajasidagi moslashuvga erishishda OECD davlatlaridan 12 yil orqada qoladi (Brookings, 2023).

1.2. Janr va vakillikdagi bo'shliqlar tengsizlikni davom ettirmoqda

-Hikoya matnlari ustunlik qiladi (68%), tanqidiy fikrlash janrlari esa ekspozitsiya (19%) va ishontirish (8%) marginal bo‘lib qolmoqda (Duke, 2020).

-Madaniy istisno tizimli: ozchilik qahramonlari AQSH/Buyuk Britaniyaning 22 foizida namoyon bo‘ladi, matnlar talabalarning 40% ni ifodalashiga qaramay (EdTrust, 2023)[12].

-Prognoz: YUNESKOning 2025-yilgi xilma-xillik vakolatlari 2030-yilga kelib, inklyuziv vakillikni 35% ga oshirishi mumkin, lekin faqat nashriyot imtiyozlari bilan amalga oshirilsa.

1.3. Raqamli yechimlar mavjud imkoniyatlar va xavflar

-Sun'iy intellektga moslashtirilgan darsliklar saqlashni 22% ga yaxshilaydi (Mayer, 2021 yil), ammo kam ta'minlangan maktablarning 88 foizida foydalanish imkoniyati yo'q (Jahon banki, 2023 yil).

-Algoritmik tarafkashlik saqlanib qolmoqda: AI tomonidan yaratilgan kontentning 25% STEMda ayollarni kam ifodalaydi (MIT, 2023).

-Proyeksiya: 5G kengayishi bilan 65% maktablar 2030-yilga kelib raqamli matnlarni qabul qilishi mumkin, ammo buning uchun 10 milliard dollar yillik EdTech sarmoyasi kerak (HolonIQ, 2023)[7].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1]. Dyuk, N. K. (2020). O'qishni tushunish fani: Boshlang'ich ta'limda janr xilma-xilligi. Journal of Literacy Research, 52(3), 287-312.

ISSN 3030-3907

https://doi.org/10.1177/1086296X20939576. Asosiy topilma: boshlang‘ich darsliklarning 68 foizi hikoya matnlarini haddan tashqari ko‘rsatadi, bu esa tanqidiy savodxonlikni rivojlantirishni cheklaydi.
[2].Mayer, R. E. (2021). *Raqamli darsliklarda multimediali ta’lim: 120 ta eksperimental tadqiqotlarning meta-tahlili*. Ta'lim psixologiyasi sharhi, 33 (4), 1021-1050. https://doi.org/10.1007/s10648-021-09638-1. Asosiy topilma: Interfaol elektron darsliklar statik bosma versiyalarga nisbatan saqlash darajasini 22% ga yaxshilaydi.
[3].Sweller, J. (2022). Kognitiv yuk nazariyasi va darslik dizayni: yosh o'quvchilar uchun murakkablikni optimallashtirish. Ta'lim va ko'rsatma, 80, 101629. https://doi.org/10.1016/j.learninstruc.2022.101629.Asosiy topilma: STEM darsliklari past chastotali so‘z boyligi tufayli 28% kognitiv yuklaydi.
[4]. OECD. (2023). PISA 2022 natijalari: 38 ta davlatda darsliklar mazmunidagi tenglik. Parij: OECD nashriyoti. https://doi.org/10.1787/19963777. Asosiy xulosa: OECD mamlakatlaridagi darsliklarning atigi 45% madaniy inklyuzivlik mezonlariga javob beradi.
[5].YUNESKO. (2022). Global ta'lim monitoringi hisoboti: darsliklarimizni kim yozadi? Parij: YuNESKO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000382976. Asosiy topilma: mustamlakachilikdan keyingi xalqlarning 80% tarix darsliklarida yevrosentrik hikoyalar saqlanib qolgan.
[6]. MetaMetrics. (2023). O'qish uchun Lexile Framework: Global matn murakkabligi tendentsiyalari 2023. Durham, NC: MetaMetrics Inc. https://lexile.com/global-report-2023. Asosiy topilma: 3–5-sinf matnlarining 42 foizi o‘quvchilar o‘qish darajasidan 150 litr va undan ko‘proq oshadi.
[7].HolonIQ. (2023). Global EdTech bozori prognozi 2023–2030: Darslik nashrida AI va AR. Nyu-York: HolonIQ. https://www.holoniq.com/edtech-2030. Prognoz: OECD maktablarining 65 foizi 2030 yilga kelib AIga moslashtirilgan darsliklarni yillik 10 milliard dollar sarmoya bilan qabul qiladi.
[8]..Brukings instituti. (2023). O'qish tengsizligi: Darslikdagi nomutanosibliklar ta'limdagi bo'shliqlarni qanday davom ettiradi. Vashington, DC: Brukings. https://www.brookings.edu/reading-inequality-2023. Bashorat: Islohotsiz, Global Janubiy o'qish qobiliyatining kamchiliklari 2035 yilgacha saqlanib qoladi.
[9].Raqamli iqtisodiyot bo'yicha MIT tashabbusi. (2023). AI tomonidan yaratilgan ta'lim mazmunidagi algoritmik tarafkashlik. Kembrij, MA: MIT. https://ide.mit.edu/ai-bias-education Asosiy topilma: sun’iy intellekt asosida yaratilgan STEM misollarining 25%i ayollar namunalarini o‘z ichiga olmaydi.
[10]..Stenford tarixi ta'lim guruhi (2023).Tanqidiy savodxonlik va noto'g'ri ma'lumotlar: darslik janridagi bo'shliqlar talabalarni qanday himoyasiz qoldiradi.

ISSN 3030-3907

Palo Alto, Kaliforniya: Stenford universiteti. https://sheg.stanford.edu/digital-misinformation. Asosiy topilma: 62% bolalar 10 yoshga to‘lganida matnni yetarlicha ishontiruvchi ta’sir ko‘rsatmaganligi sababli soxta yangiliklarga duch kelishadi.

[11]. Gartner (2024). EdTech 2024 uchun Hype Cycle: AI darsliklarini shaxsiylashtirish. Stamford, KT: Gartner Inc. https://www.gartner.com/en/education/hype-cycle-2024. Prognoz: DEI tomonidan o‘rgatilgan generativ AI 2025 yilga kelib darsliklar tarkibini kuratsiyalashning 30 foizini avtomatlashtiradi.*

[12].Ta'lim ishonch (2023). Vakillik masalalari: K–5 darsliklarida xilma-xillik. Vashington, DC: EdTrust. https://edtrust.org/diversity-in-textbooks-2023. Asosiy topilma: 40% talabalar demografiyasiga qaramay, ozchilik qahramonlari AQSH matnlarining atigi 22 foizida uchraydi.

[13].Xalqaro o'qish savodxonligini o'rganish (PIRLS) bo'yicha progress. (2021). Darslikning leksik zichligi bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bazasi. Boston: TIMSS & PIRLS xalqaro tadqiqot markazi. https://pirls2021.org/data. Ma’lumotlar to‘plami: Fan bo‘yicha darsliklarda til san’ati kitoblariga qaraganda 28% ko‘proq past chastotali so‘zlar mavjud.

[14].ASER markazi. (2023). Ta'limning yillik holati to'g'risidagi hisobot (ASER) 2023: Hindiston va Nigeriyada darsliklarni o'qish imkoniyati. Yangi Dehli: ASER. https://www.asercentre.org/aser2023. Ma’lumotlar to‘plami: Global Janubiy matnlarning 33% sinf darajasidagi o‘qish standartlariga javob beradi.

[15].Jonson, L. va Patel, R. (2024). Kengaytirilgan haqiqat darsliklari va kognitiv yuk: tasodifiy nazorat ostida sinov. EdArXiv. https://doi.org/10.35542/osf.io/7zq9x. Topilma: AR boshlang'ich fan ta'limida tashqi kognitiv yukni 18% ga kamaytiradi.

ISSN 3030-3907

UO‘K: 543.422.25:547.915

GLITSIRRIZIN KISLOTA MONOAMMONIYLI TUZI VA UNING TETRAASETILLAGOXILIN BILAN OLINGAN KOMPLEKSINING SPEKTRAL VA TERMODINAMIK XOSSALARI

Xulkar Saydullayeva
O‘zR FA Bioorganik kimyo instituti kichik ilmiy xodimi
Nazokatxon Yakubova
O‘zR FA Bioorganik kimyo instituti kichik ilmiy xodimi
Fotima Sobirova
Alfrganus universiteti v.b., dotsent, PhD
Rahmat Esanov
O‘zR FA Bioorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi, PhD
Maxmudjon Gafurov
O‘zR FA Bioorganik kimyo instituti yetakchi ilmiy xodimi, k.f.d., professor
Alimjan Matchanov
O‘zR FA Bioorganik kimyo instituti yetakchi ilmiy xodimi, k.f.d., professor

Annotatsiya: Bizga ma’lumki, shu kunga qadar supramolekulyar komplekslarning kimyoviy tuzilishini aniqlash ishlari asosan ultrabinafsha (UB) va infraqizil (IQ) spektroskopiya usullari asosida tavsiflanmoqda. Dori vositalari sifatida tabiiy birikmalardan foydalanish dorivor shakllarini ishlab chiqish ularning tarkibidagi asosiy ta’sir qiluvchi moddani modifikatsiya qilishda, ularni dastlabki ishlab chiqarish bosqichlarida hamda saqlashda ularning sifat nazoratini doimiy olib borishni talab qiladi. Ushbu maqolada glitsirrizin kislota monoammoniyli tuzining(GKMAT) eritmadagi holatini YaMR spektroskopik usuldagi tahlili va uning tetraasetillagoxilin(TetraALG) bilan olingan kompleksining suvli eritmadagi barqarorlik konstantasi hamda Gibbs erkin energiya qiymatlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: glitsirrizin kislota monoammoniyli tuzi, tetraasetillagoxilin, YaMR spektroskopiya, barqarorlik konstantasi, Gibbs erkin energiyasi, fosfatli bufer, antibat nisbat, izomolyar seriya, ultrabinafsha spektroskopiya, infraqizil spektroskopiya.

Аннотация: Известно, что до настоящего времени работы по определению химической структуры супрамолекулярных комплексов в основном характеризуются методами ультрафиолетовой (УФ) и инфракрасной (ИК) спектроскопии. Использование природных соединений в качестве лекарственных средств требует постоянного контроля качества при модификации основного действующего вещества в их составе, на начальных стадиях производства и при хранении при разработке лекарственных форм. В данной статье проведен ЯМР-спектроскопический анализ состояния

ISSN 3030-3907

моноаммонийной соли глицирризиновой кислоты (МАСГК) в растворе и определены константы устойчивости и значения свободной энергии Гиббса ее комплекса с тетраацетиллагохилином (ТетраАЛГ) в водном растворе.

Ключевые слова: моноаммониевая соль глицирризиновой кислоты, тетраацетиллагохилин, ЯМР-спектроскопия, константа устойчивости, свободная энергия Гиббса, фосфатный буфер, обратное соотношение, изомолярная серия, ультрафиолетовая спектроскопия, инфракрасная спектроскопия.

Annotation: as we know, to date, the work on determining the chemical structure of supramolecular complexes is characterized mainly on the basis of ultraviolet (UB) and infrared (IR) spectroscopy methods. The development of medicinal forms of the use of natural compounds as medicines requires constant control of their quality in the modification of the main influencing substance in their composition, in their initial production stages, as well as in their storage. In this paper, a yamr spectroscopic analysis of the solute state of the glycyrrizine acid monoammonium salt(GKMAT) and the stability constant in aqueous solution of its tetraacetylagoxylin(TetraALG) - derived complex as well as Gibbs free energy values have been identified.

Keywords: glycyrrhizine acid monoammonium salt, tetraacetyllagoxylin, YaMR spectroscopy, stability constant, Gibbs free energy, phosphate buffer, antibiotic ratio, isomolar series, ultraviolet spectroscopy, infrared spectroscopy.

Kirish

Bizga ma’lumki, bugungi kunda biologik faoll moddalarning terapevtik mexanizmlarni aniq tushunish, dorilarning molekulyar darajadagi biologik faolligini aniqlash bo‘yicha juda ko‘p savollarga aniq javoblar yo‘q. Bu sohalarda birikmalarning tuzilishi haqida aniq va to‘liq ma’lumotlar muhim rol o‘ynaydi. Fazoviy konfiguratsiyani va supramolekulyar sistemalar komponentlarining nisbiy fazoviy joylashishi bo‘yicha aniq tahlillarisiz hamda komplekslarning eritmalardagi barqarorliklarini aniqlamasdan bu sohada rivojlanish ham bo‘lmaydi. Shuning uchun ham hozirda juda ko‘p ilmiy tadqiqotlar supramolekulyar komplekslarning fazoviy konfiguratsiyasini va supramolekulyar sistemalardagi komponentlarning nisbiy fazoviy joylashishi tadqiqiga hamda eritmalardagi holat o‘zgarishlariga qaratilgan. Ushbu maqolaning mazmun mohiyati va maqsadi ham yuqorida keltirilgan ilmiy muammolarni yechimiga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Glitsirrizin kislota va uning tuzlarining fizik-kimyoviy hossalari molekulaning amfifil strukturasi bilan izohlanadi va bu o‘z navbatida biologik faol moddalarning suvda eruvchan komplekslarni olish imkonini beradi. Natijada

ISSN 3030-3907

ularning biomoslashuvchanligi ortadi hamda yangi dorivor shakllarining turlari kengayadi. Glitsirrizin kislotasining monoammoniyli tuzi “Glitsiram” nomli yallig‘lanishga va yo‘talga qarshi preparatning asosiy ta’sir qiluvchi moddasi hisoblanadi [1-3].

O‘simlik ekstraktlari asosidagi (qichitqi o‘t, tog‘ qalampiri, oddiy bodrezak po‘stlog‘i va boshq.) gemostatik vositalar xirurgiya, ginekologiya va terapiyada, shuningdek ichki organlar kasalliklarida keng qo‘llaniladi. Sarxushlantiruvchi lagoxilus yoki gangituvchi quyon lab (*Lagochilus inebrians*) – O‘zbekiston uchun endemik hisoblanuvchi o‘simlik bo‘lib, Markaziy Osiyo halq tibbiyotida qon to‘xtatuvchi vosita sifatida keng qo‘llaniladi, uning tarkibida lagoxilin, staxidrin alkaloidi, K vitamini va oshlovchi moddalari mavjud [4].

Adabiyotlarda glitsirrizin kislotasi va uning tuzlari spektroskopik tadqiqotlarning predmeti sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, bunda YaMR spektrlardagi uglerod va protonlar yadrolari signallarini to‘liq o‘rganish imkonini [2,5,7-10] va glikozidli qismdagi ^{1}H YaMR [1,6] spektrlaridagi protonlar va ularning signallari konfiguratsiyalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatish imkonini bergan. Protonlarning o‘zaro joylashuvi va konfiguratsiyasi to‘liq yoritilgan. Protonlar signallarini aniqlashdan tashqari, turli erituvchilarda signallar shakli va joylashuviga ta’sirni aniqlash maqsadida spektrlar qayd qilingan. Ushbu birikmalarning mass-spektrometrik analiziga ham alohida e’tibor qaratilgan, chunki bunday ma’lumotlar kamdan-kam uchraydi [11,12].

Tadqiqot metodologiyasi

YaMR spektrlar ^{1}H va ^{13}C yadrolar uchun 499,83 hamda 125,70 MGs ishchi chastotaga ega AVANCE 500 (Bruker-Biospin) spektrometrida qayd qilindi, bunda Z-gradientga ega keng chiziqli 5 mm li datchik (VVO) dan foydalanildi. Spektrlar CD_3OD, C_5D_5N va $CDCl_3$ dagi eritmalar uchun 293 K namuna haroratida yozib olindi, ichki standart sifatida δ 3.31 m.u., 8.74 m.u, 7.26 m.u. (^{1}H YaMR) va 49.00 m.u., 150.35 m.u, 77.16 m.u. (^{13}C YaMR) erituvchi signali qo‘llanildi.

Barcha eksperimental ma’lumotlar Topspin 2.0 dasturiy paketidan foydalangan holda olindi va ularga ishlov berildi.


Olingan supramolekulyar kompleksdagi GKMAT va TetraALGning stexiometrik nisbatini aniqlashda izomolyar seriyalar usulidan (Ostromislenskiy-Job usuli) foydalanildi [14].

Tahlil va natijalar


GKMATning piridinda olingan YaMR ma’lumotlari [8,9] manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga mos keladi, bunda ^{1}H spektrlarda juft C-8 – C-14, ^{13}C spektrdagi juft 25-H va 2’-H signallar uchun unchalik katta bo‘lmagan farqlar mavjud bo‘lib, bu o‘z navbatida 2D spektrlardagi signallarning yopilib qolishi bilan

ISSN 3030-3907

izohlanadi. Bizning tajribalarimiz C-12 dagi proton bilan C-14 yadrosida kross-pikning mavjudligiga asoslanadi. C-8 uchun bunday ta’sirlanish hos emas. [7]-manbada ko‘pgina protonlar ko‘chib o‘tishlari kattaliklari biz tomondan olingan kattaliklardan tubdan farq qiladi [8,9].



GKMAT



TetraALG

MeOD-D_2O aralashmasida kimyoviy siljishlar qiymatlari konsentratsiyasiga, muhit pHga [2] va erituvchilar nisbatiga kuchli bog‘liqdir. Agarda ^{13}C spektrlaridagi signallarga erituvchilar nisbati unchalik ta’sir ko‘rsatmasa, unda 3:1 aralashmalar nisbatidan 2:1 nisbatga o‘tishda protonlar uchun o‘xshash effekt kuzatildi (1 jadvalda MeOD-D_2O=2:1 nisbati uchun ma’lumotlar keltirilgan). Qiziq tomoni shundaki, shu kabi ko‘chib o‘tishlar aglikonda ham, asosan qutbli guruhlarda uzoqlashgan protonlarda ham kuzatildi. Balki bunday holat molekulaning konformasiyasidagi qandaydir o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir, bu esa o‘z navbatida piridindagi va metanol-suv aralashmasidagi metilen juftliklari qatorining holatlarini tushuntirib berishga imkon beradi.

Aglikonning ko‘pgina metilenli protonlari uchun GKMATda ikkita sistema korrelyatsiyasi saqlanib qoladi: masalan, agarda α-proton piridinning ancha kuchsiz maydonida joylashib qolsa, unda bu MeOD-D_2O aralashmasida ham saqlanib qoladi. Bu jarayon C-21 va C-22 dagi protonlar uchun mos kelmaydi. Agar piridindagi β-protonga nisbatan α-proton kuchsiz maydonda joylashib qolsa, unda MeOD-D_2O aralashmada jarayon teskaricha sodir bo‘ladi. Natijada piridinda protonlarning kimyoviy siljishiga ta’sir ko‘rsatuvchi piridinli tuz hosil bo‘ladi, u o‘z navbatida piridin ioniga bevosita yaqin joylashgan bo‘ladi. Aslida MeOD-D_2O aralashmasiga qaraganda piridinda protonlar ancha kuchsiz maydonda joylashadi, masalan, C-23, C-24, C-29 kabilari ahamiyatli darajada siljiydi (bu yerda takroran piridin ta’siri kuzatiladi).

NOESY spektrlarda GKMATning konfiguratsion nisbatlarini aniqlash uchun quyidagi ta’sirlanishlarni informativ deb hisoblash mumkin. Piridinning 9α-protoni

ISSN 3030-3907

1α-H, 5α-H va 27-H lar bilan kross-piklarni; 18β-protoni 19β-H, 22β- H, 28- H lar bilan kross-piklarni; 27- H esa 7α- H, 15α- H, 16α- H, 19α- H bilan; 25- H – 1β- H, 2β- H bilan; 22β- H esa faqatgina 21β- H bilan ta'sirlashadi. Shuni ta'kidlash joizki, COSY spektrida D va E halqalardagi 18β- H – 16β- H va 19β- H – 21β- H juftlar o'rtasida kross-piklarning mavjudligi stereokimyoga taaluqli ekanligini bildiradi. Molekulaning glikozidli qismining NOESY spektridagi ta'sirlanishi [1] ishda to'liq yoritilgan.

1-jadval

GKMATning YaMR spektr ma'lumotlari (δ, m.u.) (aglikon)

	D_5 piridindagi **1b** birikma		D_4-D_2O metanoldagi **1b** birikma	
#	C	H	C	H
1	40.08	1.12/3.09	39.99	0.99/2.61
2	27.05	2.42/2.09	26.93	1.82/1.76
3	89.82	3.43	91.17	3.23
4	40.40	-	40.33	-
5	55.95	0.77	56.02	0.74
6	18.14	1.55/1.34	18.02	1.60/1.42
7	33.46	1.61/1.30	33.42	1.69/1.40
8	46.13	-	46.62	-
9	62.65	2.48	62.86	2.44
10	37.75	-	37.59	-
11	200.41	-	203.92	-
12	129.07	6.04	128.32	5.58
13	170.95	-	174.20	-
14	44.07	-	44.38	-
15	27.41	1.13/1.75	27.24	1.23/1.84
16	27.24	2.14/0.98	26.63	2.11/1.02
17	32.73	-	32.67	-
18	49.42	2.62	49.68	2.14
19	42.66	1.76/2.21	41.91	1.72/1.80
20	45.01	-	44.83	-
21	32.43	2.36/1.48	31.59	1.42/1.91
22	39.19	1.47/1.79	38.55	1.43/1.31
23	28.73	1.34	28.04	1.03
24	17.45	1.15	16.73	0.82
25	17.30	1.26	16.92	1.11
26	19.34	1.10	19.12	1.10

ISSN 3030-3907

27	24.14	1.46	23.66	1.38
28	29.37	0.83	29.03	0.81
29	29.66	1.40	28.66	1.17
30	180.86	-	181.76	-

Metilen protonlari: surat/mahraj=α/β protonlar.

2 jadval.

GKMATning YaMR spektr ma'lumotlari (δ, m.u.) (glyukuron kislota fragmenti, C_5D_5N va CD_3OD-D_2O)

	D_5 piridinda		D_4-D_2O metanolda	
#	C	H	C	H
1	105.38	4.94	104.51	4.57
1	105.17	5.56	104.60	4.77
2	81.22	4.52	81.54	3.66
2	77.16	4.18	75.59	3.33
3	78.60	4.38	77.27	3.67
3	78.37	4.33	76.48	3.49
4	*76.81	4.26	72.79	3.53
4	*76.68	4.26	72.79	3.53
5	*74.61	4.25	*76.63	3.74
5	*74.61	4.31	*76.55	3.74
6	*176.37	-	174.87	-
6	*176.51	-	174.31	-

Glitsirrizin kislotasi monoammoniyli tuzi (GKMAT) bilan tetraasetillagoxilinning (TetraALG) supramolekulyar komplekslari olingan va ularning ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari hamda spektral xususiyatlari(UB-, IQ-) o'rganilgan [13].

Olingan supramolekulyar kompleksdagi GKMAT va TetraALGning stexiometrik nisbatini aniqlashda izomolyar seriyalar usulidan foydalanildi [14].

Analiz o'tkazish uchun ikkala komponentning bir xil molyar konsentratsiyali (10^{-4}M) eritmalari tayyorlandi va antibat nisbatlarda (1:9 dan 9:1 gacha) aralashtirildi. Bunda eritma hajmining hamda reagentlarning umumiy konsentrasiyasi doimiyligi saqlanadi ($V_M+V_R=const$; $C_M+C_R=const$). Eritmalarning optik zichliklari, eritmaning ion kuchi va pH ko'rsatkichlari doimiyligini saqlash maqsadida moddalar pH=7,2 bo'lgan fosfatli buferda (Na_2HPO_4–NaH_2PO_4) eritildi.


UB-spektrofotometr yordamida antibat nisbatlardagi izomolyar eritmalarning UB spektrlari olinganda ular quyidagi ko'rinishda bo'ladi (a. 1-rasm). Ushbu izomolyar seriyalarning spektridan ko'rinib turibdiki 290 nmda izobestik nuqta

ISSN 3030-3907

mavjud. Bu izobestik nuqtaning mavjudligi eritmada bir hil tipdagi ta’sirlashuvlar mavjudligidan dalolat beradi.

Olingan izomolyar seriyalarning optik zichligi bilan dastlabki reagentlarning konsentratsiyalar nisbati orasidagi bog‘liqlik grafigidan hosil bo‘lgan kompleks tarkibidagi dastlabki moddalarning mol nisbatini aniqlash mumkin (b. 1-rasm).

Bu grafikdan (b) ko‘rinib turibdiki GKMAT va TetraALG~2:1 mol nisbatda kompleks hosil bo‘lishining maksimal unumiga erishadi.



a **b**

1-rasm. a) izomolyar seriyalarning UB spektrlari;
b) GKMAT va TetraALG optik zichligi bilan dastlabki reagentlarning konsentratsiyalari nisbati orasidagi bog‘liqlik grafigi.

Ushbu 2:1 mol nisbatdagi kompleksning barqarorligi quyidagi (1) formula [15] asosida aniqlanganda (K_s = 4,48×10^6 M^{-1}). K_s ning qiymatidan foydalanib hosil bo‘lgan kompleksning Gibbs erkin energiyasi quyidagi formulaga (2) asosan topildi: ΔG= - 3,84×10^4 Dj/mol.

$$K = \frac{(c_1\sqrt[3]{\Delta A_2} - c_2\sqrt[3]{\Delta A_1})(\Delta A_1\sqrt[3]{\Delta A_2} - \Delta A_2\sqrt[3]{\Delta A_1})^2}{4(\Delta A_1 c_1 - \Delta A_2 c_1)^3}, \quad (1)$$

$$\Delta G = -2,3RT \lg K \,. \quad (2)$$

Bu yerda c_1-moddaning umumiy konsentratsiyasi, M; c_2 – suyultirilgandan keyingi umumiy konsentratsiyasi, M; ΔA_1 va ΔA_2- suyultirishdan oldingi va keyingi optik zichliklarni o‘zgarishi. Olingan kompleksning suvli eritmadagi barqarorlik konstantasi va Gibbs erkin energiyasining son qiymatlari asosida ushbu komplekslar yetarli darajada barqaror deb xulosa qilish mumkin.

Xulosa va takliflar

Ikki o‘lchamli YaMR spektroskopiya usuli yordamida terpenoidlar guruhiga hos bo‘lgan vodorod va uglerod atomlari yadrolari signallari aniqlandi hamda kimyoviy siljishga erituvchilar ta’siri o‘rganildi. O‘rganilgan birikmalar uchun erituvchilarni o‘zgartirish natijasida spektrdagi signallarni korrelyatsion tahlil qilish zarurligi va signallarning shakllari diagnostik maqsadda foydalanish mumkin emasligi, chunki aksariyat asosiy signallar spektrning kuchli qutbli qismida joylashganligi va ular erituvchi signallari bilan yopilib qolishi aniqlandi. Olingan kompleksning suvli eritmadagi barqarorlik konstantasi (K_s = 4,48×10^6 M^{-1}) va

ISSN 3030-3907

Gibbs erkin energiyasining son qiymati ($\Delta G = -3{,}84 \times 10^4$ Dj/mol) asosida ushbu kompleks suvli ertimalarda yetarli darajada barqaror ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. E. E. Tykarska, Z. Dutkiewicz, D. Baranowski, Z. Gdaniec, M. Gdaniec, Cryst. Growth and Design, 14, 11 (2014) 5871-5880.
2. S. S. Petrova, A. A. Schlotgauer, A. I. Kruppa, T. V. Leshina. Z. Phys. Chem., 231, №4 (2016) 839-855.
3. N. E. Polyakov, V. K. Khan, M. B. Taraban, T. V. Leshina, N. F. Salakhutdinov, G. A. Tolstikov J. Phys. Chem. B, 109, (2005) 24526-24530.
4. Ф. А. Собирова, А. Х. Исламов, Л. К. Элмуродов, А. Х. Расулов, З. А. Собирова, Г. Н. Артикова, А. Д. Матчанов Химия растит. сыря, №1, (2022) 123-132.
5. N. N. Gibadullina, L. A. Yakovishin, V. I. Grishkovets, L. V. Spirikhin, V. A. Vakhitov, D. V. Ishmetova, V. A. Dokichev Russ. Chem. Bulletin 73, №1 (2024) 179-188.
6. Zhao, Yanyan; Liu, Liyan; Han, Yuanyuan; Wang, Yan; Shi, Minjian, Zhongguo Yiyao Gongye Zazhi, 45, №7 (2014) 663-670.
7. Venkata Sai Prakash Chaturvedula, Oliver Yu, Guohong Mao Eur. Chem. Bull., 3 №1 (2014) 104-107.
8. L. A. Baltina, O. Kunert, A. A. Fatykhov, R. M. Kondratenko, L. V. Spirikhin, L. A. Baltina (Jr.), F. Z. Galin, G. A. Tolstikov, E. Haslinger Chem. Nat. Compd., 41, № 4 (2005) 432-435.
9. G. G. Zapesochnaya, E. N. Zvonkova, V. A. Kurkin, E. V. Kazakova, L. N. Pervykh, B. I Sheichenko, V. A. Bykov, Chem. Nat. Comp. 30, №6 (1994) 720-726.
10. Yasumasa Yamada, Atsuko Nakamura, Kiyoko Yamamoto, and Hiroe Kikuzaki Biosci. Biotech. Biochem., 58, №2 (1994) 436-437.
11. Zheng, Y.-F., Qi, L.-W., Zhou, J.-L., Li, P. Rapid Communications in Mass Spectrometry 24, №22 (2010) 3261–3270.
12. Tao, W., Duan, J., Zhao, R., Li, X., Yan, H., Li, J., Guo Sh., Yang N., Tang, Y. Food Chemistry, 141, №3 (2013) 1681–1689.
13. Исломов А.Х, Матчанов А.Д, Qурбанова А.Дж, Комилов Q.У. //Лагохилиннинг ацетил hосилаларининг глицирризин кислотаси, унинг тузлари билан комплекс бирикмалари ва гемостатик фаоллиги//Монография. “Lesson Press”МЧЖ нашриёти, Тошкент-2022., 108 б.
14. Булатов М. И., Калинкин И. П. Практическое руководство по фотометрическим методам анализа// [5-е изд.]. – Л. Химия, 1986. – 432 с.

ISSN 3030-3907

15. Бабко А.К. Физико-химический анализ комплексных соединений в растворах/– К.: Изд-во АН УССР, 1955. – 328 с.

ISSN 3030-3907

QUYOSH ENERGIYASI ASOSIDA BIOGAZ ISHLAB CHIQARUVCHI MEZOFIL TIZIMNING ISHLASH JARAYONI VA SAMARADORLIGINI TADQIQ ETISH

Abdumo‘minov Asror Zokir o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti talabasi
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti

Annotatsiya: mazkur maqolada chorvachilik chiqindilarini biologik qayta ishlash orqali biogaz olish jarayonida quyosh energiyasidan issiqlik manbai sifatida foydalanish imkoniyati o‘rganilgan. Tadqiqot mezofil harorat rejimida olib borilib, quyosh energiyasi bilan ta'minlangan issiqlikning biogaz hosil bo‘lishiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, ishlab chiqilgan qurilmaning O‘zbekistonning turli hududlarida samarali ishlash imkoniyati baholangan va keng joriy etish uchun mos ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: biogaz, mezofil, termofil, psixofil, quyosh, issiqxona.

Аннотация: в данной статье исследуется использование солнечной энергии в качестве источника тепла при биологической переработке отходов животноводства для получения биогаза в мезофильном режиме. Рассматривается влияние солнечного тепла на выход биогаза и анализируется эффективность процесса. Кроме того, оценена возможность применения разработанной установки в различных регионах Узбекистана, и сделан вывод о целесообразности её широкого внедрения.

Ключевые слова: биогаз, мезофил, термофил, психрофил, солнце, теплица.

Abstract: this article investigates the use of solar energy as a heat source in the biological processing of livestock waste to produce biogas under mesophilic conditions. The study examines the impact of solar-generated heat on biogas yield and analyzes the efficiency of the process. Furthermore, the applicability of the developed system across various regions of Uzbekistan has been evaluated, concluding that the device is suitable for widespread implementation.

Keywords: biogas, mesophile, thermophile, psychrophile, sun, greenhouse.

Kirish

Bugungi kunda jahon miqyosida energiyaga bo‘lgan talabning barqaror o‘sib borishi fonida an’anaviy uglevodorod xom ashyosi — neft, gaz va ko‘mir zaxiralari sezilarli darajada kamayib bormoqda. Bu holat iqtisodiy jihatdan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun energetik xavfsizlik masalasini dolzarb muammolardan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarining barqaror ishlashi, transport sohasining uzluksiz ta’minoti va aholining energiyaga bo‘lgan

ISSN 3030-3907

ehtiyojini qondirishda muqobil energiya manbalariga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshgan.

Shu munosabat bilan, quyosh, shamol, biomassa va boshqa qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanishga asoslangan energiya texnologiyalarini joriy etish dolzarb ilmiy-texnik va iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Ular nafaqat energetik mustaqillikni ta’minlash, balki atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish, chiqindilardan samarali foydalanish va energiya tejamkorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xususan, chorvachilik chiqindilaridan foydalanib biogaz ishlab chiqarish texnologiyalarini quyosh energiyasi bilan integratsiyalash orqali ekologik toza, iqtisodiy jihatdan samarali va barqaror energiya tizimlarini shakllantirish mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat energiya ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki qishloq xo‘jaligi chiqindilarini utilizatsiya qilishning innovatsion yechimi sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Biogaz olish qurilmalarining ish prinsipi tabiiy biologik jarayonlarning amaldagi ifodasidir. Zamonaviy biogaz ishlab chiqarish tabiatda sodir bo‘ladigan jarayonlarga asoslanadi, ya’ni hayvonlar oshqozonida hazm qilish faoliyati natijasida sodir bo‘ladigan chiqindilardan metanni hosil bo‘lishi asos qilib olingan[1-3].

Bakteryalar ta’sirida organik moddalarni parchalanishi natijasida biogaz hosil bo‘ladi. Suv, uglerod oksidi va minerallardan tashkil topgan organik moddalar substratini (oqsil, yog‘, uglevod, minerallarga) bakteryalarning har xil guruhlari parchalaydi. Bu tabiiy jarayon hisoblanib, anaerob sharoitida boradi, ya’ni kislorod ishtirokisiz boradi. Bu parchalanish jarayonini bijg‘ish deb ham atalib – bu jarayonni balchiq ko‘llarda, botqoqliklarda va boshqa joylarda kuzatiladi[4].

Agar bu muhitda kislorod ishtirok etsa, organik moddalarni boshqa anaerob bo‘lmagan bakteriyalar parchalaydi, bu holda jarayon kompostirlash deyiladi. Kompostirlash jarayonida metan gazi hosil bo‘lmay, boshqa birikmalar etil spirt, mochavina va boshqa moddalar hosil bo‘ladi.

Bijg‘ish jarayonida hosil bo‘lgan energiya issiqlik manbaiga aylanmay metan bakteriyalarini hayotiyligini ta’minlab, bu bakteryalarni erkin shiddatli o‘z-o‘zidan ko‘payishiga va metan gazi hosil bo‘lishiga olib keladi. Metan bakteriyalari qadimdan ma’lum bo‘lib, yerdagi tirik organizmdir [5-6].


Bijg‘ish jarayonlari o‘rmonlarda dengizlarda, daryo va ko‘llarda keng tarqalgan. Bijg‘ish o‘z-o‘zidan botqoqliklarda, shag‘alda, kislorod yo‘q muhitda sodir bo‘ladi. Bundan tashqari bijg‘ish jarayoni axlat uyulmalari, go‘ng uyulmalarida , go‘ng qoldiqlarida, sholizorlarda, hamda juft tuyoqli hayvonlar axlatida sodir bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

Suv ostidagi ishlab chiqarilayotgan metan gazining yuqoriga ko‘tarilayotgan pufakchalari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Kislorodsiz har qanday muhitda biogaz ishlab chiqarish mumkin. O‘simliklarni yer ostida qolgan qismlarini chirishi uchun ma’lum vaqt va baktriyalar yetarli darajada bo‘lishi kerak.

Biogaz – bu yonuvchan gaz. Biogaz organik substansiyalarni anaerob va mikrobiologik jarayonlarda hosil bo‘ladigan, tarkibi 50-70% metandan (CH_4), shuningdek 30-40% CO_2, ozroq miqdorda H_2S, NH_3, H_2, CO bo‘lgan gazlar aralashmasidan iborat [7-8]. Quyidagi 1- diagrammada ham ko‘rishingiz mumkin.

Dunyoda energetik inqirozning yuzaga kelishi bilan keyingi yillarda yoqilg‘ilarning tiklanuvchan va alternativ sohasidagi ishlarni rivojlanishiga, shu qatori biogaz sanotining rivojlanishiga turtki bo‘ldi.




Yuqori energetik qiymatga ega bo‘lganligi tufayli biogazdan nafaqat issiqlik ishlab chiqarishda, balki elektr energiyasi ishlab chiqarish sohasida ham energiya toshuvchi sifatida foydalaniladi. Biogazdagi energiya kuchi uning tarkibidagi metan gazi miqdoriga bog‘liq. 28 m^3 biogazdan hosil bo‘ladigan energiya 16,8 m^3 tabiiy gaz, 20,8 l neft yoki 18,4 l dizel yoqilg‘isiga ekvivalent hisoblanadi. Biogazning energetik sig‘imi to‘g‘ridan – to‘g‘ri uning tarkibidagi metanning miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. 1 m^3 metandan 9,94 kilovatt-soat energiya olish mumkin. 60% metan saqlovchi biogazning 1 m^3 dan 6 kilovatt – soat elektr energiya olish mumkin [3, 5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Biogaz qurulmalarida biomassani qizdirib metanli bijg‘ish jarayoni amalga oshorish harorati 10 ^{0}C dan 55 ^{0}C ga qadar bo‘lgan harorat diapozonida olib boriladi. Bu harorat oralig‘ida metanli bijg‘ish jarayoni uchta rejimga bo‘linadi[7].

- -psixofil rejim: bunda harorat chegarasi 10 ^{0}C dan 25 ^{0}C gacha bo‘lsa, optimal harorati 15 ^{0}C dan 17 ^{0}C oralig‘i.
- -mezofil rejim: bunda harorat chegarasi 25 ^{0}C dan 40 ^{0}C gacha bo‘lsa, optimal harorati 33 ^{0}C dan 35 ^{0}C oralig‘i.

ISSN 3030-3907

•-termofil rejim: bunda harorat chegarasi 40 ^{0}C dan 55 ^{0}C gacha bo‘lsa, optimal harorati 53 ^{0}C dan 55 ^{0}C oralig‘i.



1-rasm. Reaktori quyoshli issiqxonada joylashgan mezofil rejimda ishlovchi biogaz qurilmasining oddiy sxematik ko‘rinishi: 1- quyoshli issiqxona; 2-reaktor; 3-aralashtirgich. Oqimlar: I-biogaz; II-substrakt; III-bijg‘ib bo‘lgan maxsulot.

Bijg‘ish jarayonini tezlashtirish va normallashtirish maqsadida reaktordagi biomassani isitish talab qilinadi. Buning uchun isitishning bir qancha yo‘llari va turlari mavjud. Masalan, issiq suv, elektr toki yordamida isitish tizimiga ega bo‘lgan bir qancha biogaz qurilmalari mavjud [9]. Quyida ko‘rsatilgan biogaz qurilmasi, quyosh energiyasi yordamida mezofil rejimda ishlaydi (1-rasm). Ushbu biogaz qurilmasining reaktori quyosh yordamida qizdiriladi.

Ushbu qurilmaning faqatgina reaktori issiqxonada joylashtirilgan bo‘lib unda substrakt kiritish uchun patrubka va bo‘shatish uchun patrubka hamda hosil bo‘lgan biogazni reaktordan chiqarish uchun patrubkalari mavjud bo‘lib, reaktor issiqlikni yaxshi o‘tkazuvchi materialdan tayyorlanadi.

Reaktor qobig‘i po‘latdan tayyorlangan bo‘lib qobiq tashqi tomonidan qora rangga bo‘yalgan, qobiqni ichki tomoniga biomassa kiritilgach qobiq korroziyaga uchramasligi uchun, korroziyaga qarshilik qiluvchi himoya qatlami bilan qoplangan.

Ushbu tadqiqotda quyosh energiyasi yordamida biogaz ishlab chiqarish uchun ishlab chiqilgan reaktorning samaradorligini o‘rganish maqsadida bir nechta metodologik yondashuvlar qo‘llanildi. Birinchi navbatda, reaktorning ish faoliyatini uzaytirish va samaradorligini oshirish uchun uning sirlanishi ko‘rib chiqildi. Reaktorni sirlash orqali issiqlikni saqlash va energiya yo‘qotishlarini kamaytirish, shuningdek, qurilmaning xizmat ko‘rsatish muddatini uzaytirish mumkin.

Keyingi bosqichda, reaktorni turli funksiyalarni bajarishga moslashtirish imkoniyatlari o‘rganildi. Bunga xom-ashyoni uzluksiz kiritib turish, pnevmatik

ISSN 3030-3907

tizim yordamida xom-ashyoni yuklash va bo‘shatish hamda aralashtirish jarayonini pnevmatik tarzda amalga oshirish kabilar kiradi. Ushbu metodologik yondashuvlar reaktorning ishlash samaradorligini oshirib, biogaz ishlab chiqarish jarayonini yanada avtomatlashtirishga yordam beradi.


Biogaz qurilmasining issiqxona qismini quyosh nurini samarali o‘tkazadigan shaffof materiallardan, masalan, shisha yoki pilyonkadan tayyorlash belgilandi. Bu materiallar quyosh nurlarini to‘g‘ri o‘tkazib, issiqlikni maksimal darajada saqlashga yordam beradi, natijada reaktor ichidagi harorat barqaror bo‘lishi ta’minlanadi. Bularning barchasi reaktorning samarali ishlashi va mezofil rejimda biogaz ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Issiqxonaning quyosh tushadigan tomoni Buxoro sharoitida 39^0 qiyalikda quyosh nuriga perpendikulyar o‘rnatiladi. Bundan maqsad tushadigan quyosh nuri to‘g‘ridan to‘g‘ri sinmasdan o‘tishini ta’minlashdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan quyosh energiyasi asosida ishlovchi reaktorning mezofil rejimda biogaz ishlab chiqarish samaradorligi eksperimental jihatdan o‘rganildi. Qurilma reaktoriga biomassa yuklangach, quyosh nuri ta’sirida tizim harorati 48–72 soat ichida mezofil rejimga mos keluvchi harorat oralig‘iga yetdi (ya’ni 30–40 °C). Bu davr ichida quyosh energiyasi yordamida tizim asta-sekin kerakli termik barqarorlikka erishdi.

Reaktor ishga tushganidan so‘ng, haroratning 24 soatlik o‘zgarishi kuzatilib, qurilmaning tashqi muhitdagi harorati, issiqxona ichidagi harorat hamda reaktor ichidagi biomassaning harorati orasidagi bog‘liqlik aniqlashtirildi. 2-rasmda taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, reaktor ichidagi biomassa haroratining o‘zgarishi atigi 2,5 °C dan 3,0 °C gacha bo‘lgan diapazonda bo‘ldi, bu esa tizimning issiqlikni yaxshi ushlab qolish xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Biogaz qurilmasida haroratni o‘zgarishi: 1-chiziq qurilma tashqarisidagi harorat; 2-chiziq issiqxona ichkarisidagi harorat; 3-chiziq reaktordagi biomassaning harorati.

Ushbu natijalar reaktordagi biomassaning kunduz kuni quyoshdan olgan energiyasini kechki vaqtlarda ham samarali saqlab qola olishini tasdiqlaydi. Bu esa qurilmaning mezofil harorat rejimida barqaror ishlashini ta’minlab, doimiy va samarali biogaz ishlab chiqarishga imkon yaratadi. Qurilmaning energetik jihatdan avtonomligi va termik barqarorligi uni turli iqlim sharoitlarida, xususan O‘zbekistonning turli hududlarida joriy etish uchun qulay echim sifatida ko‘rsatmoqda.

Agar reaktor sirlansa uning xizmat ko‘rsatish muddati uzayadi. Ushbu qurilma reaktorini turli xil funksiyalarni bajaradigan qilib qurish ham mumkin. Masalan, xom-ashyoni uzluksiz kiritib turish yoki xom ashyoni pinevmatik yuklash va bo‘shatish hamda aralashtirish jarayonini ham pinevmatik tarzda amalgam oshirish mumkin. Ushbu biogaz qurilmasining issiqxonasi quyosh nurini yaxshi o‘tkazadigan shaffof materiallardan tayyorlanadi. Masalan, shisha yoki pilyonkadan yasaladi.

Asosiy qism. Ongli o‘qishni ifodali o‘qishdan ajratib bo‘lmaydi. Ammo analitik o‘qishning birinchi bosqichida ifodali o‘qish mumkin emas, chunki bolalar so‘zda urg‘uli bo‘g‘inni ajrata olmaydilar, tugallangan intonatsiyani, so‘roq ohangini, hatto, orfoepik to‘g‘ri o‘qishni ham bilmaydilar. Shuning uchun analitik o‘qish bosqichida so‘zni yaxlit, orfoepik qayta o‘qish tavsiya qilinadi. Bunday qayta o‘qish to‘g‘ri intonatsiyaga, ifodalilikka rioya qilib o‘qishga o‘rgatibgina qolmay, o‘qishning ongli bo‘lishiga ham yordam beradi. Savod o‘rgatishning birinchi darslaridayoq o‘quvchilarga tabaqalashtirib (differensial) yondashish (bunda o‘quvchilarnig o‘qishga tayyorgarliklaridagi fikrlar hisobga olinadi) amalga oshiriladi. O‘qishning ongliligini va ta’sirchanligini ta’minlash uchun matn mazmunini o‘quvchilam ing ko‘rgan-kechirganlari, taassurotlari bilan bog‘lash lozim. Shunda o‘quvchida o‘qishga, o‘rganishga qiziqish ortadi.Ongli o‘zlashtirishni amalga oshirishda lug‘at ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. So‘zlarnig ma’nosi ustida to‘xtalish, birinchidan, fikmi oydinlashtirsa, ikkinchi tom ondan matnni tushunishga ham yordam beradi.She’r, tez aytish, topishm oq, qo‘shiq, maqol, hikmatli so‘zlardan o‘qitish, yod oldirish ham o‘quvchilam ing o‘qishga qiziqishini oshiradi, o‘qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarining uchdan ikki qismi o‘qishni mashq qilishga ajratilishi lozim.

O‘qishga o‘rgatish uchun, avvalo, o‘quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo‘g‘indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo‘nalishda amalga oshirilishi mumkin:

1. Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog‘lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so‘ng kerakli so‘z ajratib olinadi, so‘ngra so‘z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiriladi.

2. So‘z asos qilinib, analitik mashqlar yordamida o‘rganiladigan tovush ajratib olinadi. Masalan: oy. O‘qituvchi oy rasmini ko‘rsatadi, o‘quvchilar uning nomini - so‘zni aytadi. O‘qituvchi o tovushini cho‘zib (o-o-o-y) aytadi va qaysi tovushni cho‘zib aytayotganini o‘quvchilardan so‘raydi. O‘quvchilar o tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob o‘tkaziladi. O tovushli so‘zlar o‘ylab toptiriladi. Shundan so‘ng o harfi kesma harfdan yoki rasmli alifbodan ko‘rsatiladi. Bunda o harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e’tibor qaratiladi.

3. O‘rganilgan harflar ichiga bugun o‘rganiladigan harf aralashtirib qo‘yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so‘ng o‘qituvchi bu harf

ISSN 3030-3907

ifodalaydigan tovushni aytadi. O‘quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmli alifbodan ko‘rsatadilar. Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o‘qishga o‘rgatish ustida ishlanadi. O‘qishga o‘rgatishda bo‘g‘in asos qilib olinadi. Buning uchun o‘qituvchida bo‘g‘in jadvali bo‘lishi lozim. Bo‘g‘in jadvali asosida o‘qish namunasi ko‘rsatiladi, ya’ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko‘z bilan ko‘rib, uning nom ini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko‘rish va ikkalasini bog‘lab, unlini mo‘ljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bo‘g‘in o‘qish o‘qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi. Bunda quyidagi kabi chizmalardan foydalanish mumkin: Bunda “Alifbe” sahifalaridagi so‘zlarni oldin bo‘g‘inga bo‘lish, so‘ng o‘qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O‘qituvchining namunali o‘qishidan so‘ng birgalikda ovoz chiqarib o‘qish, yakka-yakka o‘qish, shivirlab o‘qishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin o‘qiydigan o‘quvchilar bo‘lgan sinflarda xor bilan o‘qitish o‘qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o‘quvchilarining o‘qish ko‘nikmalaridan kelib chiqib, matndagi so‘zlarni xattaxtada bo‘g‘inlarga bo‘lib yozish, o‘rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo‘shim cha so‘z birikmalari, gaplar tuzib yozish va o‘qitish usulidan ham foydalaniladi.

Savod o‘rgatish uch davrdan iborat:

1. Tayyorgarlik davri.
2. Alifbe harfiy davr.
3. Alifbedan keyingi - o‘qish va yozishga o‘rgatish davri.

Tayyorgarlik davri bir hafta davom etadi, bu davrning ahamiyati shundaki, bolalar nutqni o‘stirishga, harflarning belgisini yozishga o‘rganishlari kerak.

Tayyorgarlik davrining vazifalari quyidagilardir:

1. Maktab hayoti bilan tanishtiriladi, qoidalari hamda talablari o‘rgatiladi.
2. O‘qituvchi o‘quvchilar jamoasini tashkil etish va har bir o‘quvchi shu jamoaning a’zosi hamda barcha o‘quvchilar bir-biriga tutungan aka-uka hamda opa-singil ekanligini ular ongiga singdiradi.
3. Partada to‘g‘ri o‘tirish, o‘ng qo‘l qoidasi, ya’ni savol yoki javob berishdan avval qo‘l ko‘tarish, hamma eshitadigan qilib shoshilmay, dona-dona qilib, tushunarli holda gapirish, kitob va daftar hamda o‘tirgan o‘rnini ozoda tutish, maktab jihozlarini yaxshi saqlash lozimligi va boshqalar haqida tushuntiriladi.
4. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan tanishadi, ularni o‘rganib chiqadi.
5. O‘quvchilar o‘quv qurollari vas inf xonasi bilan tanishtiriladi. Birinchi navbatda, “Alifbe” kitobi bilan tanishtiriladi. Uning muqovasi, muallifi, varaqlari bilan tanishtiriladi.
6. Yozuv daftarini qanday tutish kerakligi tushuntiriladi.

ISSN 3030-3907

7. O‘quvchilarning nutqini o‘stirish uchun so‘z, gap, hikoya ustida ishlanadi.
8. Tovushni analiz va sintez qilishga o‘rgatiladi.

Nutqni analiz qilishga o‘quvchilarni o‘rgatishda, asosan, analitik mashqlardan foydalaniladi. Bunda o‘quvchilar gapni so‘zlarga bo‘lish yuzasidan dastlabki mashqlarni bajaradi. Ular quyidagilardir:

1. Alifbe kitobidagi rasmlarga qarab gaplar tuziladi.
2. Har bir gapdagi so‘zlar nechta ekanligi aniqlanadi.
3.Tuzilgan gapdagi so‘zlar chiziqlar bilan belgilab ko‘rsatiladi.
4. Gaplar sxemaga solinadi.
5. So‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘linadi: bo-la, mak-tab, daf-tar.
6. So‘zdagi ayrim unli va undosh tovushlar haqida ma’lumot beriladi.

Yozuvga o‘rgatish. Birinchi sinf o‘quvchilari uchun harf va harflarni to‘g‘ri qo‘shib yozish qiyin va muhim mashg‘ulot hisoblanadi. Alifbegacha bo‘lgan davrda bolalar yozuvga tayyorlaydigan mashqlarni bajaradilar.

Avvalo, bolalarni yozuv mashqini bajarish vaqtida to‘g‘ri va erkin o‘tirishga, ruchkani to‘g‘ri ushlashga, daftarni parta ustida me’yordagi qiyalikda qo‘yishga o‘rgatish muhim ahammiyatga ega. Buning uchun “Yozganda to‘g‘ri o‘tir” nomli rasmdan foydalaniladi.

Daftar chiziqlari bilan tanishtiriladi va unga harf qismlarini yozishga, ular oralig‘ini to‘g‘ri chamalashga o‘rgatiladi.

Savod o‘rgatishning dastlabgi davrida o‘quv mashg‘ulotlari yetti yoshli bolaning yosh xususiyatlarini, uning diqqatini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bu davrda o‘quvchilar uzoq vaqt bir xil ish bilan shug‘ullana olmaydilar. Shuning uchun ham, ish turi har 10-15 minutda boshqasi bilan almashtirib turilishi lozim. Darsda ish shunday uyushtirilishi kerak: hikoya qilish va suhbatlar o‘quvchilarning faol harakati va jismoniy mashqlar bilan almashtirib turiladi.

Alifbedan rasmlar mazmuni asosida gapni so‘zlarga bo‘lish yuzasidan olib borilgan suhbatdan so‘ng o‘quvchilarga ertak aytiladi. Shu ertak qahramonlarining rasmlarini chizadilar. Ertakdan bitta gap olinib, gap tarkibida nechta so‘z borligi so‘raladi hamda doskaga to‘g‘ri chiziq bilan sxemasi chiziladi. O‘quvchilarning o‘zlari ham doskada va daftarlarida shunday mashqlarni bajaradilar.

Yozuv darsida o‘qituvchining tushuntirishi o‘quvchilarning barmoq harakati yuzasidan bajaradigan mashqlari bilan almashtirib turiladi, ya’ni o‘quvchilar ruchka ushlagan qo‘llaridagi barmoqlarning qanday ko‘tarilishi va pastga tushirilishini ko‘rsatadilar. Bunda ularga harflarni havoda yozish mashqlari qo‘l keladi. O‘quvchilar yozadilar, ularning qo‘llari charchasa, qo‘l va barmoqlarini harakatga keltiruvchi mashqlar bajartiriladi. Masalan,

Yozdik, yozdik,

ISSN 3030-3907

Charchadik.
Ruchkani qo‘ydik,
Dam oldik.
Bu singari mashqlar bolalarni tez charchab qolishlarini oldini oladi hamda ularning diqqatini jamlashga yordam beradi.

O‘quv jarayonini tashkil etish nuqtayi nazaridan savodxonlik jarayonida o‘quvchilarga tabaqalashtirilgan va individual yondashish lozim. Bu bolalarning umumiy rivojlanishdagi sezilarli farqlar bilan bog‘liq. 1-sinfga kelgan yeti yoshli bolalarda o‘qish va yozishga tayyorlik darajasi tadqiqotlarga ko‘ra shuni ko‘rsatdiki, ular harflarning 80 foizini yoki barcha harflarni biladi.
Ularning ko‘plari tahliliy – bo‘g‘inlar, ba’zilari sintetik, ya’ni so‘zlar bilan o‘qiydilar.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashlash lozimki, o‘quvchilar tomonidan gap tuzdirilganda, ularning nutqiga, tovushlarning qanday talaffuz qilishlariga ovozlarini boshqara olishlariga ham e‘tibor berish lozim. Alifbegacha bo‘lgan davrda o‘qituvchi bolalarni dastlab, maktab hayoti, uning ichki tartib qoidalari bilan tanishtiradi, o‘quvchilar maktabda, darsda, tanaffuz vaqtida maktabdan tashqari vaqtda o‘zlarini qanday tutishlari lozimligi o‘rgatiladi, shuningdek maktab va oilada kundalik rejimga ko‘nikma hosil qilib, unga odatlantirila boriladi. Bu davrda o‘qituvchilar o‘quvshilar kollektvini tashkil etishi va har bir o‘quvshi shu kollektivning a’zosi ekanligini ular ongiga singdirish, bolalarga kollektiv bo‘lib ishlashni asosiy tartib qoidalarini o‘rgatishi kabi vazifani bajaradilar: o‘quvchilarda dars jarayonida partada to‘g‘ri o‘tirish, savol yoki javob berishdan oldin qo‘l ko‘tarish, hammaga eshitarli qilib, shoshmasdan, tutilmasdan gapirish kabi, kitob va daftarlarni, shuningdek, sinfdagi jihozlarni ehtiyot qilib saqlash, tanaffuzga chiqish va darsga kirishda shopmaslik kabi ko‘nikmalarni hosil qila boradi. Bolalar maktab binosi, tevarak atrof bilan tanishtiriladi. Ular o‘qituvshining aytganlarini diqqat bilan tinglash, topshiriqlarini o‘z vaqtida bajarish, savolga javob qaytarish va savol berishga, o‘rtoqlarining javobini tinglashga odatlantiriladi. Ayniqsa, o‘quvchilarni o‘z vazifalarini tushunib, uning o‘z vaqtida to‘liq tushunishga odatlanishi, har bir o‘quvchiga individual yondashib, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini savod olishga qanchalik tayyor ekanligini vaqtida aniqlab olish savod o‘rgatish darslarining to‘g‘ri uyushtirilishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: 2017- yil
2. Akramova S.R. Boshlang‘ich ta’limda bolalar adabiyoti. Buxoro-2023.

ISSN 3030-3907

3. G‘afforova T. G‘ulomova X. 1-sinfda o‘qish dasrlari (O‘qituvchi Kitobi.) Toshkent. Sharq 2003 -yil.
4. Oxunjon Safarov, Bashorat Jamilova, Nigora Safarova, Bolalar adabiyoti va folklori. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent-“Turon-zamin ziyo” 100b
5. Shermuhammad Munis Xorazmiy. “Savodli ta’lim”. T.: 2010.

ISSN 3030-3907

TEMIR MODDASIGA BOYITILGAN NON MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHNING AHAMIYATI

Xoliqulova Nazokat Akbaraliyevna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar Universiteti, Yengil sanoat va oziq-ovqat texnologiyalar kafedrasi stajyor o'qituvchisi
Panjiyeva O'g'ilshod Baxodir qizi
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar Universiteti, Yengil sanoat va oziq-ovqat texnologiyalar kafedrasi assisstenti
Choriyeva Sarvara Abdusalamovna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar Universiteti, Yengil sanoat va oziq-ovqat texnologiyalar kafedrasi assisstenti
Yo'ldoshev Raufbek Olimjon o'g'li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar Universiteti, Yengil sanoat va oziq-ovqat texnologiyalar kafedrasi assisstenti

Annotatsiya. Temir tanqisligi dunyo miqyosida sog'liq uchun dolzarb muammolardan biri bo'lib, ayniqsa ayollar va bolalar orasida kamqonlikning keng tarqalishiga olib kelmoqda. Shu bois, oziq-ovqat mahsulotlarini, ayniqsa nonni temir moddasiga boyitish orqali ushbu muammoni kamaytirish imkoniyati mavjud. Non mahsulotlari aholining kundalik ratsionida asosiy o'rinda turadi, bu esa uni mikronutrientlar bilan boyitishga eng mos mahsulotga aylantiradi.

Mazkur maqolada temir bilan boyitilgan non mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi, ularning afzalliklari, biologik qiymati va sog'liqqa ijobiy ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, O'zbekistonda temir moddasiga boy mahsulotlarga ehtiyoj, amaldagi loyihalar va tadbirkorlik imkoniyatlari haqida ma'lumotlar beriladi. Maqolada eksperimental tahlillar, statistik ko'rsatkichlar va xalqaro tajribalar asosida ilmiy asoslangan fikrlar keltiriladi.

Maqolaning asosiy maqsadi — aholining temirga bo'lgan ehtiyojini qoplashda non mahsulotlarini boyitishning o'rni va samaradorligini ilmiy asosda ko'rsatishdir. Xulosa sifatida, temir moddasiga boyitilgan non ishlab chiqarishni kengaytirish nafaqat sog'liqni saqlash, balki oziq-ovqat sanoati rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar. Temir moddasi, non mahsulotlari, boyitish, kamqonlik, mikronutrientlar, oziqlanish, biofoydalanish, oziq-ovqat xavfsizligi.

Abstract. Iron deficiency is one of the most pressing health problems worldwide, leading to the widespread prevalence of anemia, especially among women and children. Therefore, there is an opportunity to reduce this problem by enriching food products, especially bread, with iron. Bakery products occupy a central place in the daily diet of the population, which makes them the most suitable product for enrichment with micronutrients.

ISSN 3030-3907

This article studies the technology of production of iron-fortified bakery products, their advantages, biological value and positive impact on health. It also provides information on the need for iron-rich products in Uzbekistan, current projects and business opportunities. The article presents scientifically based opinions based on experimental analyses, statistical indicators and international experience.
The main purpose of the article is to demonstrate on a scientific basis the role and effectiveness of fortification of bakery products in meeting the population's need for iron. In conclusion, it is emphasized that expanding the production of iron-fortified bread is important not only for health care, but also for the development of the food industry.

Keywords. Iron, bakery products, fortification, anemia, micronutrients, nutrition, bioavailability, food safety.

Kirish

Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha 2 milliarddan ortiq inson temir tanqisligi tufayli salomatlik muammolariga duch kelmoqda. Bu holat, ayniqsa, ayollar va bolalar orasida kamqonlik darajasining oshishiga olib kelmoqda. O‘zbekistonda ham bu muammo dolzarb bo‘lib, aholining oziqlanish sifatini yaxshilash choralari ko‘rilmoqda. Bunda non mahsulotlarini temir bilan boyitish samarali yondashuv hisoblanadi.

Non — o‘zbek xalqining kundalik ovqatlanishida ajralmas mahsulotdir. Uni temir bilan boyitish orqali kundalik ratsion orqali organizmning temirga bo‘lgan ehtiyojining muhim qismini qoplash mumkin. Bu yondashuv nafaqat arzon, balki keng qamrovli yechim sifatida ham e’tirof etiladi. Temirli non iste’molining kengayishi bilan sog‘liq holatidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) va BMT oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ham oziq-ovqat mahsulotlarini, jumladan nonni boyitishni global tavsiya etilgan strategiya sifatida belgilagan. Bu xalqaro tajriba O‘zbekistonda ham amalga oshirilayotgan loyihalar bilan uyg‘unlashmoqda. Temir bilan boyitilgan non iste’molining kengayishi aholi salomatligiga uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ushbu maqola temir bilan boyitilgan non mahsulotlarining ahamiyatini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qiladi. Maqolada muammoning dolzarbligi, xalqaro va mahalliy tajriba, tahlil uslublari va erishilgan natijalar keng yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Temir tanqisligi va kamqonlik muammosi yuzasidan JSST tomonidan olib borilgan tadqiqotlar nonni boyitish orqali ushbu muammoni kamaytirish imkonini ko‘rsatgan. Misol uchun, Hindiston va Bangladeshda o‘tkazilgan tadqiqotlar non

ISSN 3030-3907

boyitish orqali kamqonlik darajasi 20–30% ga kamayganini ko‘rsatdi. Bu tajriba O‘zbekiston sharoitida ham qo‘llanilishi mumkin.

Mahalliy olimlar, xususan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Oziq-ovqat xavfsizligi markazi tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar ham temir bilan boyitilgan non mahsulotlarining biologik qiymatini oshirishini isbotlagan. Ularning tadqiqotlarida ferrosulfat, ferrofumarat va boshqa temir tuzlari qo‘llanilgan.

Shuningdek, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarining sog‘liqni saqlash sohasida olib borgan monitoring natijalari non mahsulotlarini boyitishning iqtisodiy samaradorligini ham asoslab bergan. Bu jarayonda davlat siyosati, xususiy sektor va jamoatchilik o‘rtasida hamkorlik muhim o‘rin tutgan.

Ilmiy adabiyotlarda, temirni organizm tomonidan o‘zlashtirilishini oshirish uchun C vitamini bilan birgalikda iste’mol qilish tavsiya etiladi. Shu bois, boyitilgan non bilan mevali sharbatlar yoki sabzavotli taomlar iste’moli foydalidir.

Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonning bir nechta non ishlab chiqaruvchi korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar o‘rganildi. Temir moddasining miqdori, biologik faolligi va pishirishdagi saqlanish darajasi laboratoriyada maxsus analizlar yordamida aniqlangan. Tadqiqotda atom-absorbsiya spektroskopiyasi usuli qo‘llanildi.

Tadqiqot davomida sinov namunalariga temirning ikki shakli — ferrosulfat va ferrofumarat qo‘shilib, ularning o‘zlashtirilish darajasi solishtirildi. Har bir variantdan 50 dan ortiq namunalar olinib, statistik tahlillar amalga oshirildi. Eksperimentda 100 nafar volontyor ishtirok etib, ularning sog‘liq holatidagi o‘zgarishlar monitoring qilindi.

Shuningdek, aholining boyitilgan non iste’moli bo‘yicha xabardorlik darajasi ijtimoiy so‘rovnoma yordamida baholandi. So‘rovnoma Toshkent, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida o‘tkazilib, 500 nafar respondent qamrab olindi.

Metodologik yondashuvda xalqaro tajriba, oziq-ovqat xavfsizligi standartlari, JSST va FAO tavsiyalari asos bo‘lib xizmat qildi. Bu orqali tadqiqot natijalari ilmiy asoslangan va amaliyotga tadbiq etilishi mumkin bo‘lgan yondashuvlarga tayandi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, temir bilan boyitilgan non mahsulotlarini iste’mol qilgan ishtirokchilarda 3 oylik muddatda gemoglobin darajasi o‘rtacha 12% ga oshdi. Bu esa kamqonlik darajasining kamayishiga olib keldi. Ferrosulfat qo‘llanilgan non mahsulotlari eng samarali natijani berdi.

Boyitilgan non mahsulotlarining ta’mi, tashqi ko‘rinishi va pishish sifati ham yaxshi baholandi. Respondentlarning 82 foizi boyitilgan nonni oddiy nondan afzal

ISSN 3030-3907

ko‘rishini bildirgan. Bu iste’molchilar orasida mahsulotga bo‘lgan talab mavjudligini ko‘rsatadi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, aholining 60 foizi boyitilgan non haqida yetarlicha ma’lumotga ega emas. Bu esa axborot-kengash ishlari va reklama kampaniyalarini kuchaytirish zarurligini bildiradi. Iste’molchilarning e’tirozlari asosan narx farqiga oid bo‘lib, bunday nonlar odatda 10–15% qimmatroq bo‘ladi.

Laborator tahlillar non pishirish jarayonida temirning 80–85% gacha saqlanishini ko‘rsatdi. Bu esa ishlab chiqarish texnologiyasining to‘g‘ri tanlanganligini isbotlaydi va uni keng ishlab chiqarishga joriy etish imkonini beradi.

Quyidagi jadvalda nonga qo'shiladigan mahsulotlar va ularning ahamiyatini ko'rishimiz mumkin:

№	Nonga Qo'shiladigan Mahsulotlar	Ahamiyati
1	**Temir (Fe) qo'shilishi**	Temir moddasini qo'shish nonning sog'liq uchun foydasini oshiradi, ayniqsa temir tanqisligi bo'lgan shaxslarga.
2	**Vitaminlar (A, D, B guruhlari)**	Vitaminlar qo'shilishi nonning oziqlanish qiymatini oshiradi, ayniqsa, vitamin D va B12 tanqisligi bo'lganlarga yordam beradi.
3	**Kalsiy (Ca) qo'shilishi**	Kalsiyning qo'shilishi suyaklar va tishlarning mustahkamligini ta'minlashda, shuningdek, mushaklarning to'g'ri ishlashida yordam beradi.
4	**Fosfor (P) qo'shilishi**	Fosfor miqdorini oshirish miyaning faoliyatini yaxshilaydi va energiya ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sir qiladi.
5	**Selen (Se) qo'shilishi**	Selen organizmning immunitetini kuchaytiradi, shuningdek, antioksidant sifatida zararli erkin radikallardan himoya qiladi.
6	**Foliy kislotasi qo'shilishi**	Foliy kislotasi, ayniqsa homilador ayollar uchun juda foydali, bu uning rivojlanishi va sog'lom tug'ilishiga yordam beradi.
7	**Rux (Zn) qo'shilishi**	Rux qo'shilishi immunitetni oshiradi, yaralar tezroq tiklanishini ta'minlaydi va organizmning o'sish jarayoniga yordam beradi.

ISSN 3030-3907

8	**Laktoza fermenti qo'shilishi**	Laktoza fermenti qo'shilgan non laktaza tanqisligi bo'lgan shaxslar uchun eng foydali variant hisoblanadi, chunki bu laktozni hazm qilishni osonlashtiradi.

Boyitilgan nonni ishlab chiqarishda nonga turli foydali tarkibiy qismlar qo'shish, uning oziqlanish qiymatini sezilarli darajada oshiradi. Har bir qo'shilgan modda ma'lum bir ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi, masalan:

- **Temir** qo'shish organizmdagi gemoglobin darajasini oshiradi, bu esa qonning kislorod tashish qobiliyatini yaxshilaydi.
- **Vitaminlar** va **fol kislotasi** organizmni qo'shimcha energiya bilan ta'minlab, o'sish va rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.
- **Kalsiy** va **fosfor** qo'shilishi suyaklarning sog'lig'ini saqlashda yordam beradi.
- **Selen** va **sink** kabi minerallar organizmning immun tizimini kuchaytiradi va hujayralarni zararlı moddalar va oksidlanishdan himoya qiladi.

Temir moddasiga boyitilgan non mahsulotlarini ishlab chiqarishning ahamiyatini ko'rsatadigan jadval:

№	Omillar	Ahamiyati
1	**Sog'liqni saqlash**	Temir moddasiga boyitilgan non gemoglobin va miyoglobin kabi oqsillarni hosil qilishga yordam beradi, bu esa qonning kislorod tashish qobiliyatini oshiradi.
2	**Anemiya bilan kurash**	Temir tanqisligi tufayli rivojlanadigan anemiyaga qarshi samarali profilaktik vosita hisoblanadi.
3	**Samarali ovqatlanish**	Temir moddasini ko'proq qabul qilish orqali organizmning energiya zaxiralarini oshirishga yordam beradi.
4	**Iqtisodiy foyda**	Arzon narxlardagi non orqali temirni keng aholi qatlamiga yetkazish, iqtisodiy jihatdan samarali bo'ladi.
5	**Mahsulot turlarining xilma-xilligi**	Boyitilgan nonlar turli darajadagi temir miqdori bilan ishlab chiqarilishi mumkin, bu esa foydalanuvchilarga turli ehtiyojlarga mos keladigan variantlar tanlash imkonini beradi.
6	**Barqaror ishlab chiqarish**	Boyitilgan non ishlab chiqarish texnologiyasi oson integratsiya qilinishi mumkin, bu esa ishlab chiqarish jarayonining barqarorligini ta'minlaydi.

- Temir moddasiga boyitilgan non mahsulotlarini ishlab chiqarish, inson salomatligini yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega. Temir organizmda kislorod tashish uchun zarur bo'lgan asosiy mineraldir, shuning uchun temirni

ISSN 3030-3907

ko'proq iste'mol qilish organizmni mustahkamlashga yordam beradi. Bu mahsulotlar asosan anemiya bilan og'rigan yoki temir tanqisligi xavfi bor aholi guruhlari uchun foydalidir.

- Boyitilgan non mahsulotlarini ishlab chiqarishning iqtisodiy tomoni ham muhimdir, chunki arzon narxlardagi non orqali temirni keng aholi qatlamiga yetkazish mumkin. Bundan tashqari, temirni boyitish texnologiyasi oson amalga oshiriladi va ishlab chiqarish jarayonini barqarorlashtiradi.
- Temir moddasiga boyitilgan nonlarning turli turlari ishlab chiqarilishi mumkin, bu esa iste'molchilarga ularning ehtiyojlariga mos keladigan mahsulotni tanlash imkonini beradi.

Xulosa

Temir bilan boyitilgan non mahsulotlarini ishlab chiqarish kamqonlikni kamaytirishning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan maqbul usulidir. Tadqiqotlar bu yo‘nalishda katta salohiyat mavjudligini ko‘rsatdi. Aholi salomatligi va oziqlanish sifati sezilarli darajada yaxshilanadi.

Mazkur mahsulotlar orqali sog‘liqni saqlash xarajatlari kamayadi, mehnat unumdorligi ortadi va milliy rivojlanish ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatiladi. Bunda davlat siyosati, xususiy sektor va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi hamkorlik hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Aholining xabardorligini oshirish, ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot ishlarini kuchaytirish va subsidiya dasturlarini joriy etish boyitilgan non mahsulotlariga bo‘lgan talabni oshirishga yordam beradi.

Shu asosda, temir moddasiga boyitilgan non mahsulotlarini sanoat miqyosida ishlab chiqarishni jadallashtirish va ularga xalqaro sifat standartlarini joriy qilish dolzarb masala hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. World Health Organization (WHO). “Iron deficiency anaemia: assessment, prevention and control.” Geneva, 2021.
2. FAO. “Food Fortification: Technology and Implementation.” Rome, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. “Kamqonlikka qarshi kurash strategiyasi.” Toshkent, 2022.
4. Karimov Sh., Abdurahmonova D. “Oziq-ovqat mahsulotlarini mikronutrientlar bilan boyitish muammolari va yechimlari.” Toshkent, 2023.
5. UNICEF. “Fortified food products for children and women in Central Asia.” 2020.

ISSN 3030-3907

DEVELOPING MATHEMATICAL MODELS FOR THE ELASTOPLASTIC DEFORMATION OF COMPLEX SHAPED AND VOLUMINOUS BODIES.

Rasulmukhamedov Makhamadaziz Makhamadaminovich
Candidate of Physics and Mathematics, Associate Professor
Tashkent State Transport University,
E-mail: prof.rasulmukhamedov@gmail.com
Shukurova Shohsanam Bahriddin qizi
Supporting doctoral student of Tashkent State Transport University
E-mail: shoxsanamm2896@gmail.com
Mirzaeva Zamira Makhamadazizovna
Senior lecturer of Tashkent State Transport University,
E-mail: zmirzaeva83@mail.ru

Annotatsiya. Uch o'lchovli kartesian koordinata tizimida murakkab shakldagi hajmli jismlarning elastoplastik deformatsiyasining matematik modellari o'rganiladi. Ular, cheklangan farqlar, cheklangan elementlar yoki Vlasov-Kantorovich usullari yordamida hosil qilingan holda, statik va dinamik vaziyatlarda algebraik yoki oddiy differentsial tenglamalarga olib keluvchi tenglamalar tizimlari muhokama qilinadi. 8 tugunli cheklangan elementlarga asoslangan sxemalarning variatsiyalari izoparametrik parallelepiped shaklida o'rganiladi.

Kalit so‘zlar: chekli ayirma, chekli element, Vlasov-Kantorovich usuli, algebraik tenglamalar tizimi.

Аннотация. В трехмерной декартовой системе координат рассматриваются математические модели эластопластической деформации объемных тел со сложными формами. Обсуждаются системы уравнений, которые приводят к алгебраическим или обыкновенным дифференциальным уравнениям в статических и динамических ситуациях, когда они выводятся с использованием конечных разностей, конечных элементов или методов Власова-Канторовича. Исследуются вариации схем на основе 8-узловых конечных элементов в форме изопараметрического параллелепипеда.

Ключевые слова: конечные разности, конечные элементы, метод Власова-Канторовича, система алгебраических уравнений.

Annotation. In a three-dimensional Cartesian coordinate system, the mathematical models of elastoplastic deformation of volumetric bodies with intricate shapes are examined. There is discussion of the systems of equations that result in algebraic or ordinary differential equations in static and dynamic situations when they are derived using finite differences, finite elements, or Vlasov-Kantorovich methods.

ISSN 3030-3907

In the form of an isoparametric parallelepiped, variations of schemes based on 8-node finite elements are investigated.

Keywords: finite differences, finite elements, Vlasov-Kantorovich method, system of algebraic equations.

Introduction.

The impact of the relative positions of finite elements on the quality of numerical solutions is not extensively researched, despite the known existence of such effects. By effectively managing computational elements, it is possible to enhance the convergence and accuracy of numerical schemes. The studies referenced in [1] [2] outline the principles for developing and utilizing three-dimensional open work schemes based on the approximation of variational equations, including finite element method schemes. These schemes rely on open meshes of finite elements, which can be created by removing part of a standard isoperimetric parallelepiped. This approach can reduce the number of computational cells by a factor of three or more. Consequently, this significantly cuts down the time needed to resolve issues by minimizing data redundancy in calculating the stress-strain state of the object. Alongside this, it also decreases the time required to establish the system of equations.

LITERATURE REVIEW.

The elastoplastic deformation of materials is a critical area of research, particularly for complex shaped and voluminous bodies encountered in various engineering applications. Understanding the transition from elastic to plastic behavior is essential for predicting material performance under stress.

The foundational theories in elastoplastic modeling include the von Mises yield criterion and the associated flow rule. These theories provide a basis for developing constitutive models that describe the stress-strain relationships in materials. The Ramberg-Osgood equation is frequently used to characterize the nonlinear elastic and plastic behavior, allowing for more accurate predictions in engineering applications.

Finite Element Analysis (FEA) has emerged as a powerful tool for simulating elastoplastic behavior in complex geometries. Research has shown that advanced FEA techniques can effectively capture the intricate deformation patterns and stress distributions in three-dimensional bodies. The incorporation of adaptive meshing and nonlinear solvers further enhances the precision of these simulations.

RESEARCH METHODOLOGY.

Currently, one of the most universal and effective methods widely used for the approximate solution of equations is the finite difference method and the

ISSN 3030-3907

Vlasov-Kantorovich variational method. In this case, the Ostrogradsky-Hamilton variational equation can be expressed for each element as follows:

$$\delta\int_{t_1}^{t_2}(\int_{v}(\rho[R]dv)\{g\}^{э}-(\int_{V}[B]^{'}[D][B]dV)\{g\}^{э}-(\int_{V}[B]^{'}[\overline{D}]\varpi[B]dV)\{g\}^{э}+\int_{S^{э}}[N]^{'}\{P\}dS\}dt=0 \quad (1)$$

or by introducing notations

$$[AU]^{э}=(\int_{V^{э}}[B]^{'}[D][B]dV)$$

$$[AP]^{э}=(\int_{V^{э}}[B]^{'}[\overline{D}]\varpi[B]dV)$$

$$\{F\}^{э}=\int_{S^{э}}[N]^{'}\{P\}dS$$

here

$[AU]^{e}$ – elastic element stiffness matrix;

$[AP]^{e}$ – additional plastic element to the stiffness matrix;

$\{F\}^{e}$ - node force vector.

here $\sum_{э}\{F_i\}^{э}$ i – the sum of the force components of all elements connected to the node. It is clear that only the elements containing the i-th node contribute to the sum. Now, by combining all the equations, we can express the overall system in the following form:

$([AU]-[AP])\{G\}=\{F\}$, (2)

To solve equations (1)-(2), we will first use the Vlasov-Kantorovich method, which expresses displacements in this form.

$$u_i=u_{i0}(x_1,x_2,x_3,t)+\sum_{j=1}^{N_0}u_{ij}(x_3,t)\,f_{ij}(x_1,x_2) \quad (3)$$

here

$$\begin{cases} u_{i0}(x_1,x_2,x_3,t)-\text{predefined functions} \\ u_{ij}(x_3,t)-\text{the sought function} \\ f_{ij}(x_1,x_2)-\text{sequence of non}-\text{linear functions} \end{cases}$$

satisfying the boundary conditions (1).

Reduction to a system of ordinary differential and algebraic equations.

Using the relationships between stress and strains, as well as between strains and displacements, the state equations of the given body can be expressed as follows:

$$\rho\ddot{u}_i=\sum_{j=1}^{3}\frac{\partial}{\partial x_j}(\alpha_{jj}H\sigma_{ij})+\sum_{\substack{j=1\\ i\#j}}^{3}H(\alpha_{ij}\sigma_{ij}-\alpha_{ji}\sigma_{jj})+P_iH \qquad (i=1,2,3) \quad (4)$$

According to the surface boundary conditions of S_p and S_u

$$(\sigma_{ij}-\sigma_{ij}^{*})\delta u_j\big|_{x_i=const}=0 \quad (i,j=1,2,3) \quad (5)$$

ISSN 3030-3907

and with initial conditions

$$u_i\big|_{t=t_0} = \varphi_i \quad , \quad \dot{u}_i\big|_{t=t_0} = \psi_i \qquad \text{(i=1,2,3)} \qquad (6)$$

The displacement (3) to (4) and the result

$$\delta T = -\int_v [\rho \sum_{i=1}^{3} \frac{\partial^2 u_i}{\partial t^2} \delta u_i] dV \qquad (7)$$

$$\delta \Pi = \int_v [\sum_{i=1}^{3} \sum_{j\#i}^{3} \sigma_{ij} \delta \varepsilon_{ij}] dV \qquad (8)$$

$$\delta A = \int_v \sum_{i=1}^{3} P_i \delta u_i dV + \int_s \sum_{i=1}^{3} q_i \delta u_i dS\,, \qquad (9)$$

(ρ -material density)

We substitute (7) into (9), then the components of stresses, strains, and displacements are expressed through coordinate functions. The Ostrogradskiy-Hamilton principle (1) and $\delta \int_{t_1}^{t_2} (T - \Pi + A) dt = 0$

Taking into account nnn, we perform integration over the variables x_1 and x_2, and we obtain

$$\int_{t_1}^{t_2} \{ \int_{x_{3,0}}^{x_{3,c}} [\overline{R} Y_{tt} \delta Y + (\overline{A} Y_{x_3} + \overline{B} Y + Q_1) + (\overline{D} Y_{x_3} + \overline{E} Y + Q_2) \delta Y] dx_3 - Q_3 \Big|_{x_3 = x_{3,0}}^{x_3 = x_{3,c}} = 0 \qquad (10)$$

in this case

$$\overline{A}_{ij} = \{\delta_{kl} A_{klij}\}, \overline{R}_{ij} = \{\delta_{kl} R_{klij}\}, \overline{B}_{ij} = \{B_{klij}\}, \overline{D}_{ij} = \{D_{klij}\}, \overline{E}_{ij} = \{E_{klij}\},$$

$$Y = \{Y_i\},\ Q_k = \{Q_{ki}\},\ Y_i = \begin{Bmatrix} u_{1,i} \\ u_{2,i} \\ u_{3,i} \end{Bmatrix},\ Q_{ki} = \begin{Bmatrix} Q_{k,1,i} \\ Q_{k,2,i} \\ Q_{k,3,i} \end{Bmatrix} (k,l = 1,2,3;\ i,j = \overline{1, N_0})$$

and $\overline{B}_{1,2,i,j}, \overline{B}_{2,1,i,j}, \overline{D}_{1,2,i,j}, \overline{D}_{2,1,i,j}$ – zero matrices. For the variable X_3, using the rectangular formulas [2], assuming $Y_{k+0.5} = 0.5(Y_{k+1} + Y_k)$, we bring the variational equation into the form (10).

$$\int_{t_1}^{t_2} \sum_{k=0}^{M-1} \left\{ -\overline{R}_{k+0.5} Y_{tt} \delta \frac{(Y_{k+1} + Y_k)}{2} + [\overline{A}_{k+0.5} \frac{(Y_{k+1} - Y_k)}{h} + \overline{B}_{k+0.5} \frac{(Y_{k+1} + Y_k)}{2} + \overline{Q}_{1,k+0.5}] \delta \frac{(Y_{k+1} - Y_k)}{h} + [\overline{D}_{k+0.5} \frac{(Y_{k+1} - Y_k)}{h} + \overline{E}_{k+0.5} \frac{(Y_{k+1} + Y_k)}{2} + \overline{Q}_{2,k+0.5}] \delta \frac{(Y_{k+1} + Y_k)}{2} \right\} dt + \int_{t_1}^{t_2} Q_3 dt \Big|_{x_3 = x_{30}}^{x_3 = x_{3c}} = 0 \qquad (11)$$

Here, M is the number of intervals in the direction of the variable x_3, and h is the length of the interval step. By setting the δY_k coefficients to zero, we obtain a system of ordinary differential equations (in dynamic problems).

$$-R_k \ddot{Y}_k - B_k Y_{k-1} + C_k Y_k - D_k Y_{k+1} = g_k(t) \qquad (12)$$

ISSN 3030-3907

with initial information's

$$Y_k(t_0) = \varphi_0, \qquad \dot{Y}_k(t_0) = \psi_0 \quad (k = \overline{0, M}). \tag{13}$$

We bring the system of second-order differential equations (12) into the following form [3]

$$\dot{Z} = \Phi Z + b \tag{14}$$

With initial conditions

$$Z\big|_{t=t_0} = Z_0 \tag{15}$$

in this case

$$Z = \begin{bmatrix} Y \\ \dot{Y} \end{bmatrix}, \qquad \Phi = \begin{bmatrix} 0 & I \\ -A & 0 \end{bmatrix}.$$

DISCUSSION AND RESULTS.

In the last decade, the FEM method has become one of the most widely used methods for calculating complex configuration bodies. This is explained by the fact that problems of any complexity can be modeled using this method, that is, systems for solving very high-order equations resulting from arbitrary boundary conditions and configurations of bodies, or related to solving systems of high-order algebraic equations, which can be addressed with the development of computer technologies.

The variational formula of the original problem (4) can be expressed in the following form:

$$\delta\int_{t_1}^{t_2}(-\int_v[\rho\sum_{i=1}^{3}\frac{\partial^2 u_i}{\partial t^2}\delta u_i]dV - \int_v[\sum_{i=1}^{3}\sum_{j\#i}^{3}\sigma_{ij}\delta\varepsilon_{ij}]dV + \int_v\sum_{i=1}^{3}P_i\delta u_i dV + \int_s\sum_{i=1}^{3}q_i\delta u_i dS)dt = 0 \tag{16}$$

In the finite element method, the initial step involves breaking down the given body into finite elements and creating shape functions to estimate the required displacements at the nodal points. Typically, the body is segmented into blocks, which are further divided into finite elements. During this segmentation, it is crucial to take into account all relevant characteristics of the body under study, such as the geometry of block boundaries, material properties, and the locations where applied loads vary. The integration of these blocks is achieved by establishing a straightforward hierarchy of volumes, surfaces, lines, and points. Consequently, a three-dimensional body is depicted as a system of interconnected volumetric elements, with boundary surfaces meeting along boundary lines, which in turn intersect at nodes.

The structure may be influenced by changes at the nodes. Therefore, to create the matrix ribbon structure, specific rules must be adhered to when numbering the nodes in the finite element model. If a reduction in the matrix ribbon's width is required, the frontal method can be utilized.

ISSN 3030-3907

The use of the finite element method is explored, where various problems in complex domains are addressed, making hexagonal finite elements, such as rectangles or oblique prisms, particularly beneficial.

The components of the displacement vector for a specific finite element EEE can be expressed as follows:

$$\{U\} = \begin{Bmatrix} u_1 \\ u_2 \\ u_3 \end{Bmatrix} = [IN_1, IN_2, ..., IN_n]\{g\}^э \qquad (17)$$

here

N_i – shape function;

n – Number of nodes in the element;

I – 3x3 dimensional unit matrix;

$\{g\}^э = \{u_{1,1}, u_{2,1}, u_{3,1}, u_{1,2}, u_{2,2}, u_{3,2}, ...u_{1,n}, u_{2,n}, u_{3,n},\}$ - Finite element node displacement vector.

Using the given information, we express the deformation and stress vectors as follows:

$$\{\varepsilon\}^э = [B]\{g\}^э , \qquad (18)$$

$$\{\sigma\}^э = [D]\{\varepsilon\}^э + \overline{\overline{[D]}}\varpi\{\varepsilon\}^э \qquad (19)$$

Here, [B] is the gradient matrix, where $[B]=[B_1,B_2,.....B_n]$,

$$[B_i] = \begin{bmatrix} \frac{\partial N_i}{\partial x_1} & 0 & 0 \\ 0 & \frac{\partial N_i}{\partial x_2} & 0 \\ 0 & 0 & \frac{\partial N_i}{\partial x_3} \\ \frac{\partial N_i}{\partial x_2} & \frac{\partial N_i}{\partial x_1} & 0 \\ 0 & \frac{\partial N_i}{\partial x_3} & \frac{\partial N_i}{\partial x_2} \\ \frac{\partial N_i}{\partial x_3} & 0 & \frac{\partial N_i}{\partial x_1} \end{bmatrix}, \qquad (20)$$

$$[D] = \begin{bmatrix} \frac{E(1-\mu)}{(1+\mu)(1-2\mu)} & \frac{E\mu}{(1+\mu)(1-2\mu)} & \frac{E\mu}{(1+\mu)(1-2\mu)} & 0 & 0 & 0 \\ \frac{E\mu}{(1+\mu)(1-2\mu)} & \frac{E(1-\mu)}{(1+\mu)(1-2\mu)} & \frac{E\mu}{(1+\mu)(1-2\mu)} & 0 & 0 & 0 \\ \frac{E\mu}{(1+\mu)(1-2\mu)} & \frac{E\mu}{(1+\mu)(1-2\mu)} & \frac{E(1-\mu)}{(1+\mu)(1-2\mu)} & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & \frac{E}{2(1+\mu)} & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & \frac{E}{2(1+\mu)} & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & \frac{E}{2(1+\mu)} \end{bmatrix}$$

ISSN 3030-3907

$$[\overline{\overline{D}}]=\begin{bmatrix} -\frac{4E}{3(2(1+\mu))} & \frac{2E}{3(2(1+\mu))} & \frac{2E}{3(2(1+\mu))} & 0 & 0 & 0 \\ \frac{2E}{3(2(1+\mu))} & -\frac{4E}{3(2(1+\mu))} & \frac{2E}{3(2(1+\mu))} & 0 & 0 & 0 \\ \frac{2E}{3(2(1+\mu))} & \frac{2E}{3(2(1+\mu))} & -\frac{4E}{3(2(1+\mu))} & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & -\frac{E}{(2(1+\mu))} & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & -\frac{E}{(2(1+\mu))} & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & -\frac{E}{(2(1+\mu))} \end{bmatrix}$$

In this case, the Ostrogadsky-Hamilton variational equation (16) can be written for each element as follows:

$$\delta\int_{t_1}^{t_2}(\int_{v}(\rho[R]dv)\{g\}^{э}-(\int_{V}[B]^{'}[D][B]dV)\{g\}^{э}-(\int_{V}[B]^{'}[\overline{D}]\varpi[B]dV)\{g\}^{э}+\int_{S^{э}}[N]^{'}\{P\}dS\}dt=0 \quad (21)$$

or by introducing a notation

$$[AU]^{э}=(\int_{V^{э}}[B]^{'}[D][B]dV)$$

$$[AP]^{э}=(\int_{V^{э}}[B]^{'}[\overline{D}]\varpi[B]dV)$$

$$\{F\}^{э}=\int_{S^{э}}[N]^{'}\{P\}dS$$

here

[AU]^{e} – elastic element stiffness matrix;

[AP]^{e} – addendum to the stiffness matrix for a plastic element;

{F}^{e} - node force vector.

Here, i is the sum of the force components of all elements connected to node i. It is evident that only the elements containing node i contribute to the sum. Now, by combining all the equations from (21), we can express the overall system in the following form:

([AU]-[AP]){G}={F}, (22)

Designated surface loads are automatically accounted for by the external force vector, with displacements being the exception [6].

Expected Result.

Thus, by determining surface loads and specified displacements, various problems related to the elastic and elastoplastic states of a body with geometric properties can be solved, taking into account different shapes of voids, pits, or additions.

CONCLUSION.

The discussed approach significantly enhances the effectiveness of numerical methods for solving three-dimensional problems in elasticity and plasticity theory. The effectiveness of the proposed schemes is demonstrated by

ISSN 3030-3907

solving test problems and comparing them with solutions based on traditional finite element method schemes.

REFERENCES.

1. Buriyev T., Rasulmakhamadov M.M., *Algorithmic System for Calculating Three-Dimensional Elastic Bodies*, Tashkent: NPO "Cybernetics" of the Academy of Sciences of Uzbekistan, 1994.
2. M. Sikulovich, *Finite Element Method*, Moscow: Stroyizdat, 1993.
3. O. Zenkievich, *Finite Element Method in Engineering*, Moscow: Mir, 1975.
4. A. Samarsky, *Introduction to Numerical Methods*, Moscow: Lan, 2009.
5. Morozov E.M., Nikishkov G.P., *Finite Element Method in Fracture Mechanics*, Moscow: Nauka, 1980.
6. Abdusattorov A., Rasulmakhamadov M.M., "On Solving Spatial Problems of Elasticity Theory by the Finite Difference Method," *Bulletin of TashIIT*, vol. 3, no. 4, pp. 23-27, 2012.
7. V. Vlasov, *Selected Works*, Moscow: Nauka, 1964.
8. N. Kilchevsky, *Course in Theoretical Mechanics: Textbook*, Moscow: Nauka, 1977.

ISSN 3030-3907

ИЗУЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПОЛИМЕРНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ НЕФТЕОТДАЧИ

Салихова Озода Абдуллаевна
Кандидат технических наук, доцент Ташкентского химико-технологического института
E -mail: ozodaxon.salihova@gmail.com
Шамидинова Наргис Эркиновна
Ст. препод. Ташкентского химико-технологического института
E-mail: nargisxon@mail.ru

Аннотация: Изучено влияние концентрации полимера в растворе, проницаемости пористой среды, скорости фильтрации, температуры, адсорбции, динамики разрушения молекул химических веществ на величину начального и остаточного факторов сопротивления, характер течения растворов. На практике большинство проектов было обосновано с использованием информации, полученной при проведении некондиционных экспериментов. Например, результаты опытов на кварцевом песке безосновательно использовали в качестве основы для проектирования промышленного применения технологии полимерного заводнения в сцементированных пористых средах, причем даже не в терригенных отложениях, а в карбонатных**.**

Ключевые слова: физико-химические технологии повышения нефтеотдачи, полимерное заводнение, коэффициент вытеснения, конечный коэффициент извлечения нефти, деструкция.

Abstract: The effect of polymer concentration in solution, permeability of a porous medium, filtration rate, temperature, adsorption, and dynamics of destruction of chemical molecules on the magnitude of initial and residual resistance factors, and the flow pattern of solutions has been studied. In practice, most of the projects were justified using information obtained from conducting substandard experiments. For example, the results of experiments on quartz sand were unreasonably used as the basis for designing industrial applications of polymer flooding technology in cemented porous media, and not even in terrigenous deposits, but in carbonate ones.

Keywords: physico-chemical technologies for enhanced oil recovery, polymer flooding, displacement coefficient, final oil recovery coefficient, destruction.

Annotatsiya: Eritmadagi polimer kontsentratsiyasining, g'ovakli muhitning o'tkazuvchanligi, filtrlash tezligi, harorat, adsorbsiya, kimyoviy moddalar molekulalarining parchalanish dinamikasining dastlabki va qoldiq qarshilik omillari qiymatiga ta'siri, eritmalar oqimining tabiati o'rganildi. Amalda,

ISSN 3030-3907

loyihalarning aksariyati nostandart eksperimentlar paytida olingan ma'lumotlardan foydalangan holda asoslandi. Masalan, kvarts qumidagi tajribalar natijalari asossiz ravishda polimer suv quyish texnologiyasini tsementlangan gözenekli muhitda va hatto terrigen konlarida emas, balki karbonatda sanoat qo'llanilishini loyihalash uchun asos sifatida ishlatilgan.

Kalit so'zlar: Neftni qayta ishlashni oshirish uchun fizik-kimyoviy texnologiyalar, polimerlarni quyish, siljish koeffitsienti, neftni qazib olishning yakuniy koeffitsienti, yo'q qilish.

Введение

Для получения сопоставимых результатов лабораторных экспериментов с использованием реальных пористых сред в существует отраслевой стандарт. Кроме того, разработаны дополнительные критерии подобия для экспериментов по оценке эффективности вытеснения нефти растворами полимеров, эмульсиями и пенами. Эксперименты, проведенные с соблюдением требований лабораторного моделирования, позволяют определить условия эффективного применения технологий в различных типах коллекторов. При несоблюдении критериев подобия результаты экспериментов нельзя использовать для проектирования промышленного применения, поскольку искажается реальная эффективность технологий.

Несмотря на наличие отраслевого стандарта, регламентирующего проведение лабораторных исследований эффективности вытеснения нефти при заводнении и его модификациях, значительная часть промысловых экспериментов обоснована с использованием результатов лабораторных исследований, проведенных на насыпных моделях пористых сред без должного соблюдения критериев подобия. Характеристики насыпных моделей часто значительно отличаются от фактических характеристик сцементированных песчаников и алевролитов, не говоря уже о карбонатных породах. В подобных экспериментах в качестве вытесняемой жидкости иногда использовали даже не нефть изучаемого объекта, а, например, трансформаторное или вазелиновое масло. Относительный прирост коэффициента вытеснения в экспериментах на насыпных моделях составлял в среднем 0,28, изменяясь в диапазоне 0,184-0,392, что приводило к ошибочному представлению об эффективности технологии.

Результаты подобных исследований в лучшем случае можно использовать в качестве предварительных для выявления ключевых закономерностей, которые в последующем необходимо учитывать при моделировании процессов на образцах горных пород.

ISSN 3030-3907

Анализ литературы по теме. Экспериментами установлено, что наиболее эффективна закачка растворов полимеров на начальной стадии заводнения. Относительное увеличение коэффициента вытеснения нефти *К*выт оторочкой 0,05%-ного раствора полимера размером 0,2-0,25 *V*пор (*V*пор – поровый объем) изменяется от 0,016 до 0,374 и в среднем составляет 0,088, т.е. в 3 раза меньше, чем на насыпных моделях (рис. 1).




Рис. 1. Гистограммы распределения коэффициента вытеснения нефти Квыт, полученного в лабораторных экспериментах по вытеснению оторочками растворов полимеров.

Методы: Лабораторными экспериментами как на керне, так и на насыпных моделях доказана эффективность многократных последовательных обработок полимерными составами, чередующимися с пачками воды или раствора ПАВ. По сути эти эксперименты показали более высокую эффективность обработок не большими порциями раствора полимера, которые продвигаются в пласт, и по мере их разрушения после создания оторочки воды вновь нагнетается небольшая порция раствора полимера. К сожалению, подавляющая часть исследований физико-химических технологий проведена без соблюдения критериев подобия, предъявляемых к лабораторным экспериментам.

Тем не менее результаты лабораторных исследований, выполненных по единой методике, свидетельствуют о возможности некоторого увеличения коэффициента вытеснения нефти оторочками растворов полимеров относительно обычного заводнения при благоприятных геолого-физических параметрах объектов и невозможности получения эффекта при отсутствии

ISSN 3030-3907

условий для его проявления. Несмотря на разработанные критерии, в лабораторных опытах невозможно учесть все основные факторы, влияющие на эффективность полимерного заводнения. Например, биологическая деструкция в пластовых условиях происходит в течение сравнительно длительного времени, поэтому в процессе кратковременных лабораторных экспериментов этот фактор не моделируется и эффективность технологий оказывается существенно выше. Вместе с тем в течение последней четверти двадцатого столетия проведен достаточно большой объем исследований эффективности полимерного заводнения на образцах горных пород, характеризующих объекты разработки как в терригенных, так и в карбонатных отложениях.

Результаты: Эксперименты по вытеснению нефтей из линейных моделей пластов показали, что при благоприятных условиях эффективность полимерного воздействия в карбонатных коллекторах может быть достаточно высокой (без учета биодеструкции), причем нагнетание различных полимеров при прочих равных условиях дает довольно близкие результаты (рис. 2)




Рис. 2. Зависимости относительного объема вытесненной нефти Vн /Vпор от объема закачки воды. Объем оторочек 0,05%-ных растворов ПАА (0,18-0,21) Vпор

Дополнительная добыча нефти в изученных карбонатных образцах определяется в основном эффективностью действия оторочки раствора полимера до завершения безводного периода вытеснения нефти. После прорыва воды, нагнетаемой вслед за раствором полимера, оторочка перестает суще ственно влиять на эффективность процесса. В целом прирост *К*выт сильно зависит от параметров пористой среды и свойств жидкостей (рис. 3).

ISSN 3030-3907

Основными факторами, снижающими технологический эффект от применения раствора полимера, являются высокая проницаемость пород, связанная с наличием в них крупных каналов фильтрации, а также значительная вязкость нефти, ее активность на границах раздела фаз и гидрофилизация поверхности.




Рис. 3. Зависимость относительного прироста коэффициента вытеснения нефти DКвыт /Квыт 0 оторочкой раствора ПАА из карбонатных пород от их проницаемости kпр и вязкости нефти mн

Коэффициент детерминации *R*2=0,823, средняя квадратическая погрешность оценки параметра составляет 0,015 . Из приведенного выражения следует, что в зависимости от вязкости вытесняемой нефти верхняя граница применимости полимерного заводнения в результате формирования в пласте большеобъемных оторочек смещается в сторону увеличения проницаемости пород. Однако даже при вязкости нефти 70 мПа·с она не превышает 0,5 мкм2, что соответствует результатам исследований, описанных ранее.

Эффективность полимерного заводнения определяется степенью увеличения фактора сопротивления при фильтрации растворов в пористых средах. Поэтому получаемые в лабораторных условиях приросты *К*выт можно использовать лишь для обоснования применения растворов полимеров с целью обработки призабойной зоны (ОПЗ), где существуют соизмеримые с лабораторными градиенты давления. Распространять их на удаленную зону пласта некорректно, особенно если учесть временной фактор, связанный с биологической деструкцией полимера в реальных условиях.

ISSN 3030-3907

Заключение: Эффекты, полученные в лабораторных экспериментах, свидетельствуют о возможности применения полимеров для ОПЗ с целью выравнивания профилей приемистости, но не для создания больше объемных оторочек, захватывающих удаленные зоны пласта, где их скорость не позволяет создать дополнительные фильтрационные сопротивления.

Градиенты давления, которые создаются в лабораторных условиях, в реальном пласте могут существовать только в очень узкой зоне вблизи нагнетательной скважины. Поэтому прирост *К*выт, полученный в лабораторных опытах, на практике не достижим вследствие того, что фильтрационные сопротивления в реальных пластах на порядки ниже, чем в лабораторных условиях. Самым надежным доказательством эффективности обработки являются результаты применения растворов полимеров в промысловых условиях.

ЛИТЕРАТУРА

1. Романчев М. А., Юрина Е. В., Алексанова В.В. Дополнительная записка к уточненной технологической схеме разработки Ончугинского месторождения//Фонды ЗАО Ижевский нефтяной научный центр. – 2014. – 273 с.

2. Жданов С.А. Коэффициент нефтеотдачи – важнейший показатель рациональности использования запасов нефти. В сб. Роль науки при расширении сферы деятельности нефтяников Татарстана. – Азнакаево, 2008. – С. 142-149.

3. О.А.Салихова, Л.А.Исмаилова. Исследование кинетики набухания глинистых пород. / innovative research in science international conference. с. 28-29. 2023. https://doi.org/10.5281/zenodo.7638129.-Belarussiya.

4. Salixova O.A., Changes in the composition of the catalyst depending on the production method, environment and temperature when calving different environments./ Salixova O.A., Sidikova G.A. Galaxy international interdisciplinary research journal. impact factor- 7.718. issn: 2347-6915 sjif impact factor (2024): 8.346 volume-12, issue 3, march -2024. https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj. page no:354-358. . india.

5. Salixova O.A., Ismailova L.A., Jalilov A./ Journal of chemistry. impact factor-6.739|. volume-7, issue-4, published |20-04-2024|. page no 10-15. Filipin.// Effects of surfactant concentration on interfacial properties.

6. R. Sayfutdinov, M. Abdumavliyanova, Sh. Mirkamilov/ Extraction of cellulose from paulownia plants and it’s simple ester carboxymethyl cellulose (Na-KMC) technology./ E3S Web of Conferences 371, 01018 (2023) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337101018 (скопус (q3)) p. 1-5.

ISSN 3030-3907

7. М.М. Муродов./ Маҳаллий хом ашёлар асосида (канакунжут, масхар) юқори сифат кўрсаткичларга эга бўлган целлюлоза олиш технологияси./ Композитцион материаллар илмий-техникавий ва амалий журнали. № 1/2018. 42-43 бетлар.

ISSN 3030-3907

CHEMOFFICE (2006) DASTURIDA 1-(4-BROMFENOKSI)PROPIN-2 NING INFRAQIZIL SPEKTRLARINI NOEMPIRIK USULDA HISOBLASH VA AMALDA OLINGAN NATIJAGA QIYOSIY TAQQOSLASH

Abatov Medeu Azamatovich
O‘zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston, magistr
abatov_m@nuu.uz; medewabatov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-8088-848X
Mamajonov Jasur Shuxratovich
O‘zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston, PhD, katta o‘qituvchi
E-mail: ximik.mamajonov@mail.ru
https://orcid.org/0009-0009-5780-7941
Mamajonov Jasur Shuxratovich
O‘zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston, k.f.d., dotsent
E-mail: ibragimaziz@yandex.ru
https://orcid.org/0009-0005-7350-4060
Toshov Hamza Sayidmurodovich
O‘zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston, PhD, dotsent
E-mail: khamzats1985@gmail.com
https://orcid.org/0000-0002-8787-7774

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1-(4-bromfenoksi)propin-2 ni ChemOffice (2006) dasturi orqali noempirik usulda HF, MP2 va DFT metodlarida hamda ularga tegishli bazaviy to‘plamlardan foydalangan holda hisoblab olingan IQ-spektr natijalari aniqlangan, shuningdek ushbu birikmaning amalda oligan IQ-spektri bilan dasturda olingan natijalarining qiyosiy tahlil qilindi

Kalit so‘zlar: p-brom arilpropargil efiri, 1-(4-bromfenoksi)propin, noempirik usul, IQ-spektr, HF, MP2, DFT, STO-2G, STO-3G, STO-4G, STO-5G, STO-6G, 3-21G, 6-21G, 4-31G, 5-31G, 6-31G, 6-311G.

Аннотация: В данной статье определены результаты ИК-спектров 1-(4-бромфенокси)пропина-2, рассчитанные с помощью программы ChemOffice (2006) неэмпирическим путем с использованием методов HF, MP2 и DFT и соответствующих им базисных наборов, а также проведен сравнительный анализ результатов, полученных в программе, с реальным ИК-спектром этого соединения и определен оптимальный метод среди них.

Ключевые слова: п-бром арилпропаргиловый эфир, 1-(4-бромфенокси)пропин, неэмпирический метод, ИК спектр, HF, MP2, DFT, STO-2G, STO-3G, STO-4G, STO-5G, STO-6G, 3-21G, 6-21G, 4-31G, 5-31G, 6-31G, 6-311G.


ISSN 3030-3907

Abstract: In this article, the IR-spectrum results of 1-(4-bromophenoxy)propyne-2 calculated using the ChemOffice (2006) program in a non-empirical way using the HF, MP2 and DFT methods and their corresponding basis sets were determined, as well as the comparative analysis of the results obtained in the program with the actual IR-spectrum of this compound was performed, and the optimal method was determined among them.

Keywords: p-brom arylpropargyl ether, 1-(4-bromophenoxy)propyne, non-empirical method, IR spectrum, HF, MP2, DFT, STO-2G, STO-3G, STO-4G, STO-5G, STO-6G, 3-21G, 6-21G, 4-31G, 5-31G, 6-31G, 6-31G.

Kirish

Brom almashingan arilpropargil efirlar uch bog‘ va efir guruhi tutgan birikmalarning muhim turlaridan biri hisoblanadi. P-brom arilpropargil efirining amalda olingan IQ-spektrida 818 sm^{-1} sohada C-Br, 1484 sm^{-1} sohada -C-O-C- efir, 1875 sm^{-1} sohada sp^2 gibridlangan C=C (aromatik halqa), 2122 sm^{-1} sohada sp gibridlangan C≡C, 2869-2919 sm^{-1} sohada sp^3 gibridlangan C-H, 3070-3093 sm^{-1} sohada esa aromatik halqadagi sp^2 gibridlangan C-H, 3292 sm^{-1} sohada sp gibridlangan C-H bog‘larga tegishli asosiy tebranishlari qayd etildi [1].



1-rasm. 1-(4-bromfenoksi)propin-2 ning amalda olingan IQ-spektri.

OLINGAN NATIJALAR TAHLILI. ChemOffice (2006) dasturida 1-(4-bromfenoksi)propin-2 ning hisoblashning noempirik usullari bo‘lgan HF, MP2 va DFT metodlari va ularga tegishli STO-2G, STO-3G, STO-4G, STO-5G, STO-6G, 3-21G, 6-21G, 4-31G, 5-31G, 6-31G, 6-311G bazaviy to‘plamlaridan foydalanib, IQ-spektri olindi va ushbu birikmaning amalda olingan IQ-spektr natijasi bilan

ISSN 3030-3907

qiyosiy taqqoslab tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu usullarda olingan natijalarning qay biri amalda olingan natijaga mos kelishi tahlil qilib xulosalar chiqarildi [2].

1-jadval

1-(4-bromfenoksi)propin-2 ning Chem3D Ultra dasturidagi HF metodining noempirik usullarida olingan IQ-spektr qiymatlari

№	Bog‘lar	Nazariy	STO-2G/sm^{-1}	STO-3G/sm^{-1}	STO-4G/sm^{-1}	STO-5G/sm^{-1}	STO-6G/sm^{-1}	3-21G/sm^{-1}	6-21G/sm^{-1}	4-31G/sm^{-1}	5-31G/sm^{-1}	6-31G/sm^{-1}	6-311G/sm^{-1}
1	C-Br	818	771	762	759	759	717	728	Yo‘q	729	729	729	Yo‘q
2	R-O-R’	1484	1711-1639	1683-1597	1684-1591	1688-1591	1684-1611	1383	Yo‘q	1384	1397	1399	Yo‘q
3	C=C (aromatik halqa)	1875	1875	1817	1818	1815	1790	1749	Yo‘q	1771	1785	1789	Yo‘q
4	C≡C	2122	2015	1928	1930	1923	1936	2251	Yo‘q	2268	2279	2281	Yo‘q
5	sp^3 C-H	2919-2869	2519	2448	2430	2420	2423	2958-2917	Yo‘q	2951-2905	2966-2917	2969-2920	Yo‘q
6	sp^2 C-H (aromatik halqa)	3093-3070	3698-3652	3566-3402	3529-3363	3527-3362	3504-3356	3098-3072	Yo‘q	3101-3074	3116-3091	3119-3094	Yo‘q
7	sp C-H	3292	3815	3702	3667	3665	3661	3275	Yo‘q	3298	3318	3322	Yo‘q

ISSN 3030-3907

2-jadval

1-(4-bromfenoksi)propin-2 ning Chem3D Ultra dasturidagi MP2 metodining noempirik usullarida olingan IQ-spektr qiymatlari


№	Bog'lar	Nazariy	STO-2G/sm^{-1}	STO-3G/sm^{-1}	STO-4G/sm^{-1}	STO-5G/sm^{-1}	STO-6G/sm^{-1}	3-21G/sm^{-1}	6-21G/sm^{-1}	4-31G/sm^{-1}	5-31G/sm^{-1}	6-31G/sm^{-1}	6-311G/sm^{-1}
1	C-Br	818	850	833	842	853	854	816	Yo'q	856	830	823	Yo'q
2	R-O-R'	1484	1580	1524	1520	1520	1542	1357	Yo'q	1349	1360	1362	Yo'q
3	C=C (aromatik halqa)	1875	1783	1712	1711	1708	1683	1659	Yo'q	1576	1592	1592	Yo'q
4	C≡C	2122	1937	1835	1839	1831	2331	2195	Yo'q	2218	2232	2235	Yo'q
5	sp^3 C-H	2919-2869	3476	3345	3307	3305	3296	2950	Yo'q	2949	2967	2971	Yo'q
6	sp^2 C-H (aromatik halqa)	3093-3070	3656-3600	3522-3468	3484-3431	3482-3428	3455-3393	3089-3033	Yo'q	3098-3042	3116-3061	3121-3065	Yo'q
7	sp C-H	3292	3785	3673	3641	3638	3633	3264	Yo'q	3291	3314	3320	Yo'q

ISSN 3030-3907

3-jadval

1-(4-bromfenoksi)propin-2 ning Chem3D Ultra dasturidagi DFT metodining noempirik usullarida olingan IQ-spektr qiymatlari

№	Bog'lar	Nazariy	5-31G/sm^{-1}	6-31G/sm^{-1}	6-311G/sm^{-1}
1	C-Br	818	829	826	Yo'q
2	R-O-R'	1484	1327	1329	Yo'q
3	C=C (aromatik halqa)	1875	1683-1590	1686-1590	Yo'q
4	C≡C	2122	2220	2223	Yo'q
5	sp^3 C-H	2919-2869	2911-2861	2915-2864	Yo'q
6	sp^2 C-H (aromatik halqa)	3093-3070	3083-3024	3087-3028	Yo'q
7	sp C-H	3292	3252	3258	Yo'q



***2-rasm.* 1-(4-bromfenoksi)propin-2 ning ChemOffice dasturi DFT/B3YLP(6-31G) usulida olingan nazariy IQ-spektri.**

TAJRIBA QISM. 1-(4-Bromfenoksi)propin-2 ning strukturasi Chem Office (2006) dasturining ChemDraw Ultra qismida chizildi va "Structure" bo'limidagi "Clean up Structure" ni tanlab chizilgan birikmaning strukturasi to'g'rilandi. Keyin chizilgan birikmani belgilab, "Edit" bo'limidan "Get 3D Model" ni bosib birikmaning 3D holati olindi va ustidan ikki marta bosish orqali Chem3D Ultra qismiga yo'naltirildi. Ushbu qismda molekulyar mexanika usulida, ya'ni MM2 da

ISSN 3030-3907

optimizatsiya qilib olindi. So‘ngra “Calculation” bo‘limining “GAMESS Interface” qismidan “Predict IR/Raman spectrum” bo‘limi orqali kerakli metod va bazaviy to‘plamlar tanlanib, shu usullarga mos IQ-spektr natijalari olindi [3].

XULOSA. ChemOffice (2006) dasturida olingan IQ-spektr natijalari birikmaning amalda olingan IQ-spektridan tegishli metodlar va ularning bazaviy to‘plamlariga qarab farq qildi. Ushbu metodlar bo‘yicha optimallik HF metodidan DFT metodiga qarab ortishi kuzatildi, shuningdek, ushbu metodlarning barchasida STO-2G dan STO-6G gacha bo‘lgan bazaviy to‘plamlardan olingan natijalar amaldagiga nisbatan judayam katta farq bilan xatolik kuzatildi. Lekin bazaviy to‘plamlar 3-21G dan 6-311G gacha o‘tishi bilan birikmaning amalda olingan IQ-spektr natijasiga deyarli mos kelishi kuzatildi [4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abatov M.A. Theoretical study of the biological activity of 1,6-bis(4-bromophenoxy)hexa-2,4-diine. // European Journal of Interdisciplinary Research and Development. –2024. –V.31. –P. 34-38.

2. https://pubchem.ncbi.nlm.nih.gov/compound/1-_4-Bromophenyl_prop-2-yn-1-ol.

3. https://en.wikipedia.org/wiki/ChemDraw

4. Abatov M.A. Abdugafurov I.A., Mamajonov J.SH. Atsetilen gazi va uning asosida propargil efirlarining sintezi. // “Tabiiy fanlar sohasidagi dolzarb muammolar va innovatsion texnologiyalar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 4-5 aprel. Toshkent, 2024. –B. 160-162.

ISSN 3030-3907

INGLIZ TILINI O‘QITISHNING SAMARALI USULLARI

Suyarova Zamira Sheraliyevna
Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti Ingliz tili fani o`qituvchisi
Tel. +998915561583

Annotatsiya: Ingliz tili butun dunyoda muhim til bo‘lib, uni o‘qitishda zamonaviy va samarali metodlardan foydalanish talab etiladi. O‘qituvchilar sifatli ta’lim berish uchun turli usullarni qo‘llashi, shuningdek, o‘quvchilarning qiziqishlarini uyg‘otishi kerak. Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitishning eng yaxshi usullari haqida so‘z yuritamiz.

Kalit so`zlar: Til, kompyuter, player, CD disklar, so’zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalar, so’z boyligi va uning ma’nolari, zamonaviy texnologiyalar, gazetalar, podcastlar, filmlar.

Аннотация: Английский язык является важным языком во всем мире, и его преподавание требует использования современных и эффективных методов. Преподаватели должны использовать разнообразные методы, чтобы обеспечить качественное образование, а также вызвать интерес у учащихся. В этой статье мы поговорим о лучших методах преподавания английского языка.

Ключевые слова: Язык, компьютер, проигрыватель, компакт-диски, произношение говорящего, грамматические правила, словарный запас и его значения, современные технологии, газеты, подкасты, фильмы.

Abstract: English is an important language all over the world, and modern and effective methods are required to teach it. Teachers should use various methods to provide quality education, as well as to arouse the interest of students. In this article, we will talk about the best methods of teaching English.

Keywords: Language, computer, player, CDs, speaker's pronunciation, grammatical rules, vocabulary and its meanings, modern technologies, newspapers, podcasts, films.

Kirish

Til – doimiy rivojlanishda bo‘lgan vositadir. Shunday ekan ma’lum tilni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish va o‘rganish uchun dastavval uning tarixini bilish lozim. Bir necha asrlik tarixga ega bo‘lgan ingliz tili ham uzoq yillik tadrijiy rivojlanish bosqichida o‘zining so‘z boyligini rivojlantirib borganligi ham ayni haqiqatdir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so’ng, chet tillarini o’rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko’plab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, “Hozirgi paytda xorijiy tillarni

ISSN 3030-3907

o’rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o’ziga munosib o’rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o’z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo’qdir”. Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini” o’rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida”gi Prezident Qarori chet tillarini o’rganish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Yurtimizda chet tilining o’qitilishi, chet tili o’qituvchilarining bilim va ko’nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko’ra umumta’lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o’quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o’quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o’rganishga bo’lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to’rt aspectga (o’qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo’linib, ularning har biri bo’yicha alohida tushuncha va ko’nikmalar berilmoqda.

Ta’lim texnologiyalari, bu ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta’lim jarayoniga zamonaviy innavatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o’rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnoogiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o’rganish va o’qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o’rganishning har bir aspect (o’qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo’l keladi.

Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o’rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o’quvchi bir paytning o’zida so’zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so’z boyligi va uning ma’nolariga e’tibor berishi talab qilinadi. Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o’quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o’rgatish va o’rganish eng samador usullardan biridir. Quyida bu usullarni ko`rib chiqamiz:

1. Kommunikativ Usul (Communicative Approach)

Prinsip: Tilni real hayotda ishlatishga qaratilgan.

Qo‘llash:

Suhbatlar, munozaralar va rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilarni nutqqa undash.

ISSN 3030-3907

Asliy materiallardan (gazetalar, podcastlar, filmlar) foydalanish.
Avval ravonlikka, keyin aniqlikka e’tibor berish.

2. Topshiriq Asosidagi O‘qitish (Task-Based Learning)

Prinsip: Tilni vazifalarni bajarish orqali o‘rganish.

Qo‘llash:

- Amaliy topshiriqlar berish (masalan, sayohat rejasini tuzish, intervyu olish).
- Guruh ishlarini tashkil etish, shu bilan birga tilni amaliy qo‘llashni rag‘batlantirish.
- Xatolarni faqat topshiriq tugagandan so‘ng tuzatish.

3. To‘g‘ridan-to‘g‘ri Usul (Direct Method)

Prinsip: O‘quvchilarni ingliz tiliga cho‘mdirish, tarjima qilmasdan.

Qo‘llash:

- So‘zlarni rasmlar, harakatlar va kontekst orqali tushuntirish.
- Darsda faqat ingliz tilida gaplashish.
- Avval tinglash va gapirish, keyin o‘qish va yozish ko‘nikmalarini o‘rgatish.

4. Grammatika-Tarjima Usuli (Grammar-Translation Method)

Prinsip: Grammatika qoidalari va tarjimaga asoslangan.

Qo‘llash:

- Murakkab grammatik qoidalarni tushuntirishda foydali.
- Akademik yozuv va rasmiy tilni o‘rgatishda yordam beradi.
- Faqat bu usulga tayanmaslik, balki interaktiv metodlar bilan aralashtirib ishlash kerak.

5. Jismoniy Harakatlar bilan O‘qitish (Total Physical Response - TPR)

Prinsip: Tilni harakatlar bilan bog‘lash.

Qo‘llash:

- Boshlang‘ich darajadagilar va yosh o‘quvchilar uchun juda samarali (masalan, "Tur", "Buruningga teg").
- Harakatlar orqali so‘zlar yaxshi esda qoladi.
- O‘rganishni qiziqarli va stressiz qiladi.

6. Leksik Yondashuv (Lexical Approach)

Prinsip: So‘zlarni yakka holda emas, balki taybir iboralar shaklida o‘rgatish.

Qo‘llash:

- Keng qo‘llanadigan iboralarni o‘rgatish (masalan, "Nima gap?" o‘rniga "Qalaysiz?").
- Flash-kartalar va takrorlash mashqlaridan foydalanish.
- So‘zlarni kontekstda o‘rganishni rag‘batlantirish.

7. Texnologiyalardan Foydalanish

ISSN 3030-3907

Prinsip: Raqamli vositalar yordamida til o‘rganishni qiziqarli qilish.

Qo‘llash:

- Mobil ilovalardan (Duolingo, Memrise) foydalanish.
- Interaktiv doskalar va onlayn testlarni joriy etish.
- Inglizcha videolar va seriallarni subtitrlar bilan ko‘rsatish.

O‘qituvchilar uchun foydali maslahatlar

✓ Darslarni shaxsiylashtiring – o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga oling.

✓ Ijobiy fikr-mulohaza bering – xatolarni tuzatishda hushmuomala bo‘ling.

✓ Mustaqil o‘rganishni rag‘batlantiring – kitoblar, podcastlar va til almashish dasturlarini tavsiya eting.

✓ Darslarni qiziqarli qiling – o‘yinlar, qo‘shiqlar va hikoyalardan foydalaning.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo’llash natijasida o’quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to’g’ri javob berish malakasi shakllanadi.Bunday usullar o’quvchida bilimga ishtiyoq uyg’otadi. O’quvchi darslarga puxta hozirlik ko’rishga intiladi. Bu esa o’quvchilarni ta’lim jarayonining faol sub’yektlariga aylantiradi.

Ingliz tilini samarali o‘qitish uchun turli metodlarni uyg‘unlashtirish kerak. Kommunikativ, topshiriq asosidagi va interaktiv usullardan foydalanib, o‘quvchilarni faol nutqda qatnashishga undash orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin. Asosiy maqsad – ingliz tilini ishlatishga ishonchi yuqori bo‘lgan, ravon so‘zlashuvchilarni tayyorlash.

ADABIYOTLAR

1. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o’qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil

2. Отабоева, M. P. Chet tilini o’qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / M. P. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — C. 36–37. — URL: https://moluch.ru/archive/138/39058/ (дата обращения: 27.04.2020)

3. N. Q. Xatamova, M.N.mirzayeva. “INGLIZ TILI DARSLARIDA QO’LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR” (uslubiy qo’llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.

4. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. “CHET TILINI O’QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH”. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005

ISSN 3030-3907

5. O’.Hoshimov, I. Yoqubov. “INGLIZ TILI O’QITISH METODIKASI” (o’quv qo’llanma) Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003

6. Муминова, Ф. М. Ingliz tilini o’qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish / Ф. М. Муминова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 18 (308). — С. 590-592. — URL: https://moluch.ru/archive/308/69404/ (дата обращения: 26.04.2025).

ISSN 3030-3907

UCH QATLAMLI G‘OVAK MUHITLARDA BOSIMLI VA BOSIMSIZ SUVLARNING BEQAROR HARAKATINING MATEMATIK MODELI.

Shavkat Yuldashov Nuriddin o‘g‘li
TATU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada uch qatlamli g‘ovak muhitlarda bosimli va bosimsiz suvlarning beqaror harakatining matematik modeli qurilgan. Model A.N. Myatiev va N.K. Girinskiy gipotezalariga asoslanib, o‘tkazuvchan va kam o‘tkazuvchan qatlamlararo suv oqimi xususiyatlari hisobga olingan. Chekli ayirmalar usuli va progonka algoritmi yordamida sonli yechimlar ishlab chiqilgan. Hisoblash natijalari asosida sizot va bosimli suvlarning harakat dinamikasi tahlil qilinib, amaliy prognozlar uchun samarali dasturiy ta’minot ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: g‘ovak muhit, bosimli suv, bosimsiz suv, matematik model, filtratsiya, sonli usul, chekli ayirmalar, progonka usuli.

Аннотация. В данной статье разработана математическая модель неустановившегося движения напорных и безнапорных вод в трёхслойной пористой среде. Модель основана на гипотезах А.Н. Мятиева и Н.К. Гиринского, учитывая особенности водного потока между проницаемыми и малопроницаемыми слоями. С использованием метода конечных разностей и алгоритма прогонки получены численные решения. На основе расчётных результатов проведён анализ динамики движения грунтовых и напорных вод и разработано эффективное программное обеспечение для практических прогнозов.

Ключевые слова: пористая среда, напорные воды, безнапорные воды, математическая модель, фильтрация, численный метод, конечные разности, метод прогонки.

Abstract. This article develops a mathematical model for the unsteady flow of confined and unconfined groundwater in a three-layer porous medium. The model is based on the hypotheses of A.N. Myatiev and N.K. Girinskiy, considering the flow characteristics between permeable and low-permeability layers. Numerical solutions are obtained using the finite difference method and the Thomas algorithm. Based on the computational results, the dynamics of groundwater and confined water movement are analyzed, and efficient software for practical forecasting is developed.

Keywords: porous medium, confined water, unconfined water, mathematical model, filtration, numerical method, finite differences, Thomas algorithm.

Kirish

ISSN 3030-3907

Bizning respublikamizda filtratsiya nazariyasi bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar, yer osti suvlarining darajasi o‘zgarishini to‘g‘ri prognoz qilish va sun'iy va tabiiy drenaj tizimlarining yer osti suvlarining darajasiga ta'sirini baholash masalalari maxsus ahamiyatga ega. Shuningdek, bosimli suvlarning harakati gidrogeologiya, melioratsiya va tuproqshunoslik uchun juda muhimdir.

Ma'lumki, yer osti suvlarining ko‘tarilishi turli sabablarga ko‘ra atrof-muhitga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Bu yuzaki tuproqlarning sho‘rlanishiga, ortiqcha sug‘orishga, yer osti suvlarining rejimi va balansining o‘zgarishiga, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishga va melioratsiya xo‘jaliklarini boshqarishga olib keladi. Shu sababli, yer osti suvlarining ekspluatatsiya zaxiralarini dinamik baholash kompleks tadqiqotlarga asoslanishi kerak, bu tadqiqotlar iqlim sharoitlarini, gidrotexnikani, melioratsiyani va suv ta'minotini hisobga olishi zarur.

Matematik model. Uch qatlamli bir jinsli bo‘lmagan qatlamda yer osti suvlari harakatining beqaror jarayonini ko‘rib chiqamiz. Bu qatlam quyidagilardan tashkil topgan: yuqori qismida erkin sathga ega bo‘lgan yer osti suvlari joylashgan kam o‘tkazuvchan qoplovchi qatlam; pastki qismida suv o‘tkazmaydigan qatlam bilan chegaralangan, o‘rtada esa yaxshi o‘tkazuvchan bosimli suv tutuvchi qatlam joylashgan.

A.N. Myatiev – N.K. Girinskiy gipotezasiga ko‘ra qatlamlar chegarasidagi oqim chiziqlari yaxshi o‘tkazuvchan qatlam tomonida gorizontalga yaqin, qoplovchi qatlam tomonida esa vertikalga yaqin shakllanadi. Shu sababli, qoplovchi qatlamdagi filtratsiya tezligining gorizontal tarkibiy qismlarini ularning juda kichikligi sababli e’tiborga olmaslik mumkin. Bug‘lanish jarayoniga nisbatan esa M.M. Krylov – S.F. Averyanov gipotezasi asosli deb qabul qilinadi.

Bundan tashqari, quduqlar faqat yaxshi o‘tkazuvchan bosimli qatlamdan foydalanadi, degan farazni qabul qilamiz.

Yuqoridagi farazlarga asoslangan holda, ko‘rib chiqilayotgan filtratsiya jarayoni quyidagi kvazichiziqli, xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemasi bilan, ya’ni parabolik tipdagi tizim bilan ifodalanadi.

$$\begin{cases} \dfrac{\partial H}{\partial t} = \dfrac{\mu}{\mu_b T_x}\dfrac{\partial}{\partial x}\left[K_b H \dfrac{\partial H}{\partial x}\right] - \dfrac{\mu}{\mu_b}K_b\left(1-\dfrac{h_1}{H}\right) + \dfrac{\mu}{\mu_b}(f-w) \\ \dfrac{\partial h_1}{\partial t} = \dfrac{\partial}{\partial x}\left[T_1 \dfrac{\partial h_1}{\partial x}\right] + K_b\left(1-\dfrac{h_1}{H}\right) - \dfrac{K_\Pi}{h_\Pi}(h_2-h_1) - Q \\ \dfrac{\partial h_2}{\partial t} = \dfrac{\partial}{\partial x}\left[T_2 \dfrac{\partial h_2}{\partial x}\right] + \dfrac{K_\Pi}{h_\Pi}(h_2-h_1), \quad 0<x<L, \quad t>0. \end{cases} \qquad (3.1)$$

chegara shartlari bilan

ISSN 3030-3907

$$H(x,t_0)=F_1(x); \quad h_1(x,t_0)=F_2(x); \quad h_2(x,t_0)=F_3(x); \tag{3.2}$$

$$-k\frac{\partial H}{\partial x}=\alpha(H_A-H),\ x=0; \quad k\frac{\partial H}{\partial x}=\alpha(H_A-H),\ x=L \tag{3.3}$$

$$-k\frac{\partial h_1}{\partial x}=\alpha(h_A-h_1),\ x=0; \quad k\frac{\partial h_1}{\partial x}=\alpha(h_A-h_1),\ x=L \tag{3.4}$$

$$-k\frac{\partial h_2}{\partial x}=\alpha(h_A-h_2),\ x=0; \quad k\frac{\partial h_2}{\partial x}=\alpha(h_A-h_2),\ x=L \tag{3.5}$$

Bu yerda

H(x,t) – asosiy suv tutuvchi qatlam tomidagi grunt suvlarining erkin sathgacha bo‘lgan darajasi;

$h_1(x, t)$, $h_2(x, t)$ – asosiy suv tutuvchi qatlamning bosimlari (naporlari);

Kb(x) – qoplovchi qatlamning filtratsiya koeffitsienti;

$T_1(x) = K_1m$, $T_2(x) = K_2m$ – bosimli qatlamning suv o‘tkazuvchanlik koeffitsientlari;

m(x), K(x) – asosiy qatlamning quvvati, filtratsiya koeffitsienti va elastik suv beruvchanlik koeffitsienti;

– qoplovchi qatlamning suv beruvchanlik koeffitsienti yoki to‘yinish yetishmovchiligi;

f(x,t) – infiltratsiya funksiyasi;

w(x,t) – bug‘lanish.

Ko‘plab dala kuzatuvlari shuni ko‘rsatadiki, bug‘lanish grunt suvlarining chuqurligiga bog‘liq. M.M. Krylov va S.F. Averyanov bug‘lanish uchun quyidagi formula asosli deb hisoblashadi.

$$w=\begin{cases} w_0\left(\dfrac{H-H_{KP}}{m_B-H_{KP}}\right)^n; & H>H_{KP} \\ 0; & H\le H_{KP} \end{cases} \tag{3.6}$$

bu yerda w_0 – yer yuzasidan bug‘lanish miqdori (maksimal bug‘lanish);

HKP – kritik chuqurlik (grunt suvlarining bug‘lanishga ta’sir qilmaydigan eng katta chuqurligi);

n – parametr.

Qo‘yilgan chegara masalasi, noaniq (nolinelinear) hadlarni linearlashtirish uchun kvazilinearlashtirish usulidan foydalangan holda, chekli farqlar usuli yordamida yechiladi.

(1)-tenglama va (2)–(5) chegara shartlar tizimida o‘lchamsiz o‘zgaruvchilarga o‘tamiz.

ISSN 3030-3907

$$H^* = \frac{H}{H_x};\ h_1^* = \frac{h_1}{H_x};\ h_2^* = \frac{h_2}{H_x};\ h_\Pi^* = \frac{h_\Pi}{H_x};\ K_b^* = \frac{K_b}{K_x};\ K_\Pi^* = \frac{K_\Pi}{K_x};$$

$$T^* = \frac{T}{T_x};\ \tau = \frac{T_x t}{\mu L^2};\ x^* = \frac{x}{L}.$$

Bu yerda K_x, H_x, T_x – mos funksiyalarga tegishli ba'zi xarakterli (odatda maksimal yoki o‘rtacha) qiymatlar.

Yozuvni soddalashtirish maqsadida o‘lchamsiz o‘zgaruvchilar ustidagi yulduzcha belgilarni tashlab yuborsak, o‘lchamsiz ko‘rinishdagi differensial tenglamalar sistemasini olamiz:

$$\begin{cases} \dfrac{\partial H}{\partial \tau} = \dfrac{K_x \mu H_x}{\mu T_x}\dfrac{\partial}{\partial x}\left[K_b H \dfrac{\partial H}{\partial x}\right] - \dfrac{K_x \mu L^2}{\mu_b T_x H_x} K_b\left(1-\dfrac{h_1}{H}\right) + \dfrac{\mu L^2}{\mu_b T_x H_x}(f-w) \\ \dfrac{\partial h_1}{\partial \tau} = \dfrac{\partial}{\partial x}\left[T_1 \dfrac{\partial h_1}{\partial x}\right] + \dfrac{K_x L^2}{T_x H_x} K_b\left(1-\dfrac{h_1}{H}\right) - \dfrac{K_x L^2}{T_x H_x}\dfrac{K_\Pi}{h_\Pi}(h_2-h_1) - \dfrac{K_x L^2}{T_x H_x} Q \\ \dfrac{\partial h_2}{\partial \tau} = \dfrac{\partial}{\partial x}\left[T_2 \dfrac{\partial h_2}{\partial x}\right] + \dfrac{K_x L^2}{T_x H_x}\dfrac{K_\Pi}{h_\Pi}(h_2-h_1) \end{cases} \qquad (3.7)$$

O‘lchamsiz masala (3.7) chegara shartlari (3.2) – (3.5) bilan chekli-ayirmalar usuli va oddiy iteratsiyalar yordamida yechiladi.

Sonli model va bosimli-bosimsiz filtratsiya masalalarini yechish algoritmini ishlab chiqish

Sonli model. Sonli yechim uchun chegara masalasi (3.7), (3.2) – (3.5) ni yechish maqsadida filtratsiya sohasida to‘rlarni quramiz:

$$D = \{0 \le x \le 1;\quad 0 \le t \le T\}$$

$$\omega_{h\tau} = \left\{ x_i = ih,\ h = \frac{1}{N},\ t_l = l\tau,\ \tau = \frac{T}{M},\ i = 0,1,...,N,\ l = 0,1,2,...,M \right\}$$

Yozuvni soddalashtirish maqsadida, chekli-ayirmalar masalasi (3.7) shaklida quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$\nu = \frac{K_x \mu H_x}{\mu_b T_x};\ \nu_1 = \frac{K_x \mu L^2}{\mu_b T_x H_x};\ \nu_2 = \frac{\mu L^2}{\mu_b T_x H_x};\ \nu_3 = \frac{K_x L^2}{T_x H_x};\ \nu_4 = \frac{K_x L^2}{T_x H_x}\frac{K_\Pi}{h_\Pi};$$

Belgilashlarni kiritgandan so‘ng, quyidagi tenglamalar tizimini olamiz:

$$\begin{cases} \dfrac{\partial H}{\partial \tau} = \nu \dfrac{\partial}{\partial x}\left[K_b H \dfrac{\partial H}{\partial x}\right] - \nu_1 K_b\left(1-\dfrac{h_1}{H}\right) + \nu_2(f-w) \\ \dfrac{\partial h_1}{\partial \tau} = \dfrac{\partial}{\partial x}\left[T_1 \dfrac{\partial h_1}{\partial x}\right] + \nu_3 K_b\left(1-\dfrac{h_1}{H}\right) - \nu_4(h_2-h_1) - \dfrac{K_x L^2}{T_x H_x} Q \\ \dfrac{\partial h_2}{\partial \tau} = \dfrac{\partial}{\partial x}\left[T_2 \dfrac{\partial h_2}{\partial x}\right] + \nu_4(h_2-h_1) \end{cases} \qquad (3.8)$$

ISSN 3030-3907

Dastlabki va chegara shartlari quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$H(x,0)=H_0;\quad h_1(x,0)=h_{10};\quad h_2(x,0)=h_{20};$$

(3.9)

$$-k\frac{\partial H(0,t)}{\partial x}=\alpha\left[H_A-H(0,t)\right];\quad k\frac{\partial H(1,t)}{\partial x}=\alpha\left[H_A-H(1,t)\right] \quad (3.10)$$

$$-k\frac{\partial h_1(0,t)}{\partial x}=\alpha\left[h_A-h_1(0,t)\right];\quad k\frac{\partial h_1(1,t)}{\partial x}=\alpha\left[h_A-h_1(1,t)\right] \quad (3.11)$$

$$-k\frac{\partial h_2(0,t)}{\partial x}=\alpha\left[h_A-h_2(0,t)\right];\quad k\frac{\partial h_2(1,t)}{\partial x}=\alpha\left[h_A-h_2(1,t)\right] \quad (3.12)$$

Agar (3.8) differensial tenglamalar sistemasini approksimatsiyalasak, unda chekli-ayirmalar tenglamasi l+1 -vaqt qatlami uchun quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$H_i^{l+1}-H_i^l=v\frac{\Delta\tau}{\Delta x^2}\left[\frac{H_i^l+H_{i+1}^l}{2}\left(H_{i+1}^{l+1}-H_i^{l+1}\right)-\frac{H_{i-1}^l+H_i^l}{2}\left(H_i^{l+1}-H_{i-1}^{l+1}\right)\right]-$$

$$-v_1\left(1-\frac{h_{1i}^l}{H_i^l}\right)+v_2(f-w);$$

$$h_{1i}^{l+1}-h_{1i}^l=\frac{\Delta\tau}{\Delta x^2}T_1\left(h_{1i-1}^{l+1}-2h_{1i}^{l+1}+h_{1i+1}^{l+1}\right)+v_3\left(1-\frac{h_{1i}^l}{H_i^l}\right)-v_4\left(h_{2i}^l-h_{1i}^l\right)-Q;$$

$$h_{2i}^{l+1}-h_{2i}^l=\frac{\Delta\tau}{\Delta x^2}T_2\left(h_{2i-1}^{l+1}-2h_{2i}^{l+1}+h_{2i+1}^{l+1}\right)+v_4\left(h_{2i}^l-h_{1i}^l\right).$$

$$i=1,2,...,N-1.$$

Bu yerda:

H_i^l – grunt suvlarining l-vaqt qatlamidagi sathi;

H_i^{l+1} – grunt suvlarining l+1-vaqt qatlamidagi sathi;

h_{1i}^l – l-vaqt qatlamidagi bosim (napor);

h_{1i}^{l+1} – l+1-vaqt qatlamidagi bosim (napor);

h_{2i}^l – l-vaqt qatlamidagi bosim (napor);

h_{2i}^l – l+1-vaqt qatlamidagi bosim (napor).

Endi dastlabki va chegara shartlarni yondashamiz (ya’ni, ularni sonli ko‘rinishga keltiramiz).

$$H_i^{(0)}=H_0,\quad h_{1i}^{(0)}=h_{10},\quad h_{2i}^{(0)}=h_{20},\quad i=0,1,...,N. \quad (3.13)$$

$$-k\frac{H_0^{(l+1)}+H_1^{(l+1)}}{h}=\alpha\left(H_A-H_0^{(l+1)}\right),\quad k\frac{H_N^{(l+1)}-H_{N-1}^{(l+1)}}{h}=\alpha(H_A-H_N^{(l+1)}), \quad (3.14)$$

ISSN 3030-3907

$$-k\frac{h_{10}^{(l+1)}+h_{11}^{(l+1)}}{\Delta x}=\alpha\left(h_A-h_{10}^{(l+1)}\right),\quad k\frac{h_{1N}^{(l+1)}-h_{1N-1}^{(l+1)}}{\Delta x}=\alpha(h_A-h_{1N}^{(l+1)}),\qquad(3.15)$$

$$-k\frac{h_{20}^{(l+1)}+h_{21}^{(l+1)}}{\Delta x}=\alpha\left(h_A-h_{20}^{(l+1)}\right),\ k\frac{h_{2N}^{(l+1)}-h_{2N-1}^{(l+1)}}{\Delta x}=\alpha(h_A-h_{2N}^{(l+1)}).\qquad(3.16)$$

Yondashgandan (approksimatsiyadan) so‘ng quyidagi uch nuqtali chekli-ayirmali tenglamalarini olamiz. Birinchi tenglama va uning chegara sharti quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\begin{gathered}(3k-2\Delta x\alpha)H_0^{(l+1)}-4kH_1^{(l+1)}+kH_2^{(l+1)}=2\Delta x\alpha H_A\\ A_iH_{i-1}^{(l+1)}-C_iH_i^{(l+1)}+B_iH_{i+1}^{(l+1)}=-F_i^j,\quad i=1,2,...,N-1\qquad(3.19)\\ (3k-2\Delta x\alpha)H_N^{(l+1)}+4kH_{N-1}^{(l+1)}-kH_{n-2}^{(l+1)}=-2\Delta x\alpha h_{1A}.\end{gathered}$$

Bu yerda:

$$A_i=\frac{v\Delta\tau}{\Delta x^2}a_iH_i^{(l)},\ B_i=\frac{v\Delta\tau}{\Delta x^2}a_{i+1}(H_i^{(l)}),\ C_i=\frac{v\Delta\tau}{\Delta x^2}\left[a_{i+1}(H_i^{(l)})+a_i(H_i^{(l)})\right]+1,$$

$$a_i(H_i^{(l)})=\frac{H_{i-1}^{(l)}+H_i^{(j)}}{2}$$

$$F_i=H_i^{(l)}-v_1(1-h_{1i}^{(l)}(H_i^{(l)}))+v_2(f-w)$$

Ikkinchi tenglama va uning chegara sharti quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\begin{gathered}(3k-2\Delta x\alpha)h_{10}^{(l+1)}-4kh_{11}^{(l+1)}+kh_{12}^{(l+1)}=2\Delta x\alpha h_{1A}\\ A_{1i}h_{1i-1}^{j+1}-C_{1i}h_{1i}^{j+1}+B_{1i}h_{1i+1}^{j+1}=-F_{1i}^j,\ i=1,2,...,N-1,\qquad(3.20)\\ (3k-2\Delta x\alpha)h_{1N}^{(l+1)}+4kh_{1N-1}^{(l+1)}-kh_{1N-2}^{(l+1)}=-2\Delta x\alpha h_{1A}.\end{gathered}$$

Bu yerda:

$$\begin{gathered}A_{1i}=\frac{T_1\Delta\tau}{\Delta x^2};\quad B_{1i}=\frac{T_1\Delta\tau}{\Delta x^2},\quad C_{1i}=\frac{2T_1\Delta\tau}{\Delta x^2}+1,\\ F_{1i}^{(l)}=h_{1i}^{(l)}+v_3\left[(1-h_{1i}^{(l)}(H_i^{(l)})-v_4(h_{2i}^{(l)}-h_{1i}^{)l)})\right]-Q;\end{gathered}$$

Uchinchi tenglama va uning chegara sharti quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\begin{gathered}(3k-2\Delta x\alpha)h_{20}^{(l+1)}-4kh_{21}^{(l+1)}+kh_{22}^{(l+1)}=2\Delta x\alpha h_{2A}\\ A_2h_{2i-1}^{(l+1)}-C_2h_{2i}^{(l+1)}+B_2h_{2i+1}^{(l+1)}=-F_{2i}^{(l)},\ i=1,2,...,N-1,\qquad(3.21)\\ (3k-2\Delta x\alpha)h_{2N}^{(l+1)}+4kh_{2N-1}^{(l+1)}-kh_{2N-2}^{(l+1)}=-2\Delta x\alpha h_{2A}.\end{gathered}$$

Bu yerda:

$$\begin{gathered}A_2=\frac{T_2\Delta\tau}{\Delta x^2};\quad B_2=\frac{T_2\Delta\tau}{\Delta x^2},\quad C_2=\frac{2T_2\Delta\tau}{\Delta x^2}+1,\\ F_{2i}^{(l)}=h_{2i}^{(l)}+v_4(h_{2i}^{(l)}-h_{1i}^{(l)}).\end{gathered}$$

Birinchi chekli-ayirmalar tenglamasini yechish uchun progonka usulidan (ya’ni, tridiagonal sistemani yechish usulidan) foydalanamiz.

ISSN 3030-3907

$$H_i^{(l+1)} = \alpha_{i+1} H_{i+1}^{(l+1)} + \beta_{i+1}, \qquad i = N-1, N-2, \ldots, 1, 0. \qquad (3.22)$$

Bu yerda progonka (oldinga-qaytish) koeffitsientlari quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\alpha_{i+1} = \frac{\beta_i}{C_i - A_i \alpha_i}, \quad \beta_{i+1} = \frac{A\beta_i + F_i^{(l)}}{C_i - A_i \alpha_i}, \quad i = 1, 2, \ldots, N-1, \qquad (3.23)$$

Progonka koeffitsientlarining boshlang‘ich qiymatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$H_0^{(l+1)} = \alpha_1 H_1^{(l+1)} + \beta_1$$

$$H_0^{(l+1)} - H_1^{(l+1)} = -\frac{\alpha \Delta x}{k} H_A + \frac{\alpha \Delta x}{k} H_0^{(l+1)}$$

$$(1 - \frac{\alpha \Delta x}{k}) H_0^{(l+1)} = H_1^{(l+1)} - \frac{\alpha \Delta x}{k} H_A$$

$$\frac{k - \alpha \Delta x}{k} H_0^{(l+1)} = H_1^{(l+1)} - \frac{\alpha \Delta x}{k} H_A \Rightarrow H_0^{(l+1)} = \frac{k}{k - \alpha \Delta x} H_1^{(l+1)} - \frac{\alpha \Delta x}{k - \alpha \Delta x} H_A$$

$$\alpha_1 = \frac{k}{k - \alpha \Delta x}, \ \beta_1 = \frac{\alpha \Delta x}{k - \alpha \Delta x} H_A$$

Bosimsiz suvlar funksiyasining yakuniy (oxirgi) qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$H_{N-1}^{(l+1)} = \alpha_N H_N^{(l+1)} + \beta_N, \quad H_N^{(l+1)} - H_{N-1}^{(l+1)} = \frac{\alpha x}{k}(H_B - H_N^{(l+1)}),$$

$$H_N^{(l+1)} - \alpha_N H_N^{(l+1)} - \beta_N = \frac{\alpha \Delta x}{k} H_B - \frac{\alpha \Delta x}{k} H_N^{(l+1)},$$

$$H_N^{(l+1)}(1 - \alpha_N + \frac{\alpha \Delta x}{k}) = \frac{\alpha \Delta x}{k} H_B + \beta_N,$$

$$H_N^{(l+1)} = \frac{\alpha \Delta x H_B / k + \beta_N}{1 - \alpha_N + \frac{\alpha \Delta x}{k}}.$$

Ikkinchi chekli-ayirmali tenglamasini yechish uchun ham progonka usulidan foydalanamiz.

$$h_{1i}^{(l+1)} = \alpha_{i+1}^{'} h_{1i+1}^{(l+1)} + \beta_{i+1}^{'}, \quad i = N-1, N-2, \ldots, 1, 0. \qquad (3.24)$$

Bu yerda progonka koeffitsientlari quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\alpha_{i+1}^{'} = \frac{\beta_i^{'}}{C_1 - A_1 \alpha_i^{'}}, \ \beta_{i+1}^{'} = \frac{A_1 \beta_i^{'} + F_{1i}^{(l)}}{C_1 - A_1 \alpha_i^{'}}, \ i = 1, 2, \ldots, N-1. \qquad (3.25)$$

Progonka koeffitsientlarining boshlang‘ich qiymati va bosimli suvlar funksiyasining yakuniy qiymati quyidagicha aniqlanadi:

ISSN 3030-3907

$$\alpha_1^{'} = \frac{k}{k - \alpha\Delta x}, \quad \beta_1^{'} = -\frac{\alpha\Delta x}{k - \alpha\Delta x} h_A,$$

$$h_{1N}^{(l+1)} = \frac{\alpha_N^{'}\Delta x h_A / k + \beta_N^{'}}{1 - \alpha_N^{'} + \frac{\alpha_N^{'}\Delta x}{k}},$$

Uchinchi chekli-ayirmali tenglamasini yechish uchun ham progonka usulidan foydalanamiz.

$$h_{2i}^{(l+1)} = \alpha_{i+1}^{"} h_{2i+1}^{(l+1)} + \beta_{i+1}^{"}, \; i = N-1, N-2, ..., 1, 0. \text{n} \quad (3.26)$$

Bu yerda progonka koeffitsientlari quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\alpha_{i+1}^{"} = \frac{\beta_i^{"}}{C_2 - A_2\alpha_i^{"}}, \; \beta_{i+1}^{"} = \frac{A_2\beta_i^{"} + F_{2i}^{(l+1)}}{C_2 - A_2\alpha_i^{"}}, \; i = 1, 2, ..., N-1. \quad (3.27)$$

Progonka koeffitsientlarining boshlang‘ich qiymati va bosimli suvlar funksiyasining yakuniy qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$\alpha_1^{"} = \frac{k}{k - \alpha\Delta x}, \quad \beta_1^{"} = -\frac{\alpha\Delta x}{k - \alpha\Delta x} h_B,$$

$$h_{2N}^{(l+1)} = \frac{\alpha\Delta x h_B / k + \beta_N^{"}}{1 - \alpha_N^{"} + \frac{\alpha\Delta x}{k}}.$$

Sonli yechim algoritmi. Mashina algoritmi quyidagi qadamlardan iborat:

1. Tenglamalar tizimiga kiruvchi parametrlarning qiymatlarini va dastlabki qatlamdagi grunt suvlarining darajasi H_i^0 va bosimli suvlarining darajasini $h_{1i}^0, h_{2i}^0 \; (i = 1, 2, ..., N)$ kiritish.

2. Chegara shartlaridan $\alpha_0, \beta_0, \; \alpha_0^{'}, \beta_0^{'}, \; \alpha_0^{"}, \beta_0^{"}$ progonka koeffitsientlarining dastlabki qiymatlarini aniqlash.

3. Parametrlarning qiymatlarini hisoblash, $A_i, B_i, C_i, F_i, \; A_i^{'}, B_i^{'}, C_i^{'}, F_i^{'} \; A_i^{"}, B_i^{"}, C_i^{"}, F_i^{"}$ uchta-diagonal chekli-ayirmalar tenglamalarini yechish.

4. $\alpha_i, \beta_i, \; \alpha_i^{'}, \beta_i^{'}, \; \alpha_i^{"}, \beta_i^{"} \; (i = 1, 2, ..., N-1)$. progonka koeffitsientlarining qiymatlarini hisoblash.

5. Chap chegarada funksiya qiymatini hisoblash: H_n, h_n, h_{2n}.

6. Funksiya qiymatini hisoblash: H_i, h_{1i}, h_{2i} $(i = 0, 1, 2, ..., N)$

7. Funksiya qiymatlarini jadval va grafik shaklida chiqarish: H_i, h_{1i}, h_{2i} $(i = 0, 1, 2, ..., N)$

8. Keyingi vaqt qatlamiga o‘tish. Shu bilan birga, olingan yechim keyingi vaqt qadamining dastlabki qiymati sifatida ishlatiladi.

9. Algoritmning 2-8 punktlari har bir vaqt qatlamida takrorlanadi.

ISSN 3030-3907

10. Masalaning yechimi tugatish.


Matematik model va hisoblash algoritmi asosida dasturiy ta’minot ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu dasturlar yordamida ikki qatlamli va uch qatlamli suv tutuvchi qatlamlar modellari uchun gidrogeologik va melioratsion prognoz masalalari yechiladi, bu jarayonda grunt va bosimli suvlarning filtratsiya jarayoniga ta’sir qiluvchi barcha tabiiy va sun’iy omillar hisobga olinadi.

Hisoblash eksperimenti: uch qatlamli g‘ovak muhitda bosimli va bosimsiz suvlarning filtratsiyasini tahlil qilish va o‘rganish


Sonli model asosida ikki dinamik ravishda bog‘langan qatlamlar tizimida bosimli filtratsiya (suv harakati) asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblash uchun dasturiy ta’minot ishlab chiqilgan. Dasturiy ta’minot kirish ma’lumotlarini kiritish, ko‘rsatkichlarni hisoblash va natijalarni chiqarish bloklaridan iborat. Hisoblash natijalari grafik ko‘rinishda taqdim etilgan.

Turli qatlam parametrlariga va quduqlarning debitlariga oid hisoblash tajribalari o‘tkazilgan. Illyustratsiya sifatida bir qator masalalar uchun sonli yechimlar keltirilgan, quyidagi dastlabki ma'lumotlar bilan. Masalaning dastlabki ma'lumotlari quyidagilar: ikki qatlamning uzunligi teng: L = 1300 m, Hx – qatlamdagi dastlabki suv bosimi uchun xarakterli qiymat, 20 kg/m, K_1, K_2 – suv o‘tkazuvchanlik koeffitsientlari, 2 m/kun, K_p – yomon o‘tkazuvchi qatlamning koeffitsienti, 0,0005 m/kun, h_1, h_2 – qatlamlar qalinligi, mos ravishda 10 metr, μ – suv beruvchanlik koeffitsienti, 2, q – quduqning debit (oqim) qiymati, 100 m^3/kun, n – tarmoqli filtratsiya maydonining tugunlari soni, n = 41. Hisoblash tajribalari natijalari rasm 3.2 va rasm 3.3 da taqdim etilgan. Birinchi grafikda (rasm 3.2) grunt suvlarining darajasi o‘zgarishi ko‘rsatilgan, ikkinchi grafikda (rasm 3.3) yuqori va pastki qatlamlardagi bosimning taqsimlanishi ko‘rsatilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yuqori qatlamning bosimi juda sekin kamaymoqda. Bu yuqori qatlamdan pastki qatlamga suv oqimi juda past ekanligini anglatadi, chunki suvning yomon o‘tkazuvchi qatlam orqali o‘tishi cheklangan.

ISSN 3030-3907



Rasm 3.2 - Suv horizontda sizot suvlarining o'zgarishi



Rasm-3.3 - Pastki va yuqori suv qatlamlarida bosimning o'zgarish dinamikasi

Ko‘p qatlamli bosimli va bosimsiz suvlar masalalarini yechish uchun ishlab chiqilgan yondashuvlar suv ta’minoti va sug‘orish sohalarida amaliy masalalarni yechishda qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan matematik model, samarali hisoblash algoritmi va uning dasturiy ta’minoti asosan dinamik ravishda o‘zaro bog‘langan ko‘p qatlamli bosimli va bosimsiz suvlar darajasining o‘zgarishini tahlil qilish va prognoz qilish imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan. Bu yer osti suvlarini ishlatishda juda muhim bo‘lib, ushbu yo‘nalishda turli xil masalalar sinfini yechishda katta yordam beradi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fomin S.A., Chugunov V.A. and Hashida T. Non-Fickian mass transport in fractured porous media // Advances in Water Resources. 34(2).- 2011.- P. 205–214.
2. Khuzhayarov B.Kh. Macroscopic simulation of relaxation mass transport in a porous medium // Fluid Dynamics. Vol. 29, №5. - 2004.- P. 693-701.
3. Khuzhayorov B., Dzhiyanov T., Khaydarov O. Double-Relaxation Solute Transport in Porous Media // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. Vol. 5, Issue 1, January 2018. – P. 5094-5100.
4. Khuzhayorov B., Dzhiyanov T., Khaydarov O. Double-Relaxation Solute Transport in Porous Media // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. Vol. 5, Issue 1, January 2018. – P. 5094-5100.
5. Suzuki A., Horne R.N., Makita H., Niibori Y., Fomin S.A., Chugunov V.A., Hashida T. Development of fractional derivative-based mass and heat transport model // Proceedings, Thirty-Eighth Workshop on Geothermal Reservoir Engineering Stanford University, Stanford, California, February 11-13. 2013. - SGP−TR−198.
6. Sylvian J. Pirson. Oil reservoir engineering. – McGraw – Hill Book Co. Inc, New – York – Toronto – London, 1958.
7. Абуталиев Ф.Б. ва бошқалар. Анализ динамики подземных вод аналитическими и численными методами. Изд Фан, Ташкент-1975.
8. Абуталиев Ф.Б. ва бошқалар. Эффективные приближенно-аналитические методы для решения задач теории фильтрации. Изд Фан, Ташкент-1978.
9. Абуталиев Ф.Б., Хаджибаев Н.Н., Измайлов И.И., Умаров У. Применение численных методов и ЭВМ в гидрогеологии. – Ташкент: Фан, 1976.-160 с.
10. Акилов Ж.А., Жиянов Т.О. Двойной релаксационный перенос вещества в пористой среде // Узбекский журнал «Проблемы механики», 2013, №2. – С.16-18.
11. Бельман Р., Калаба Р. Квазилиниаризация и нелинейные краевые задачи. Мир, М., 1968.
12. Бурнашев В.Ф. Численный анализ гидродинамических моделей фильтрации многофазных многокомпонентных жидкостей в пористых средах: Дисс… д-ра физ.-мат. наук. – Самарканд, 2019. - 212 с.
13. Воеводин В.В. Численные методы, параллельные вычисления и информационные технологии. М.: БИНОМ, 2008.
14. Высоцкий Л.И. Гидравлика, гидрология, гидрометрия / Учеб. для вузов: в 2 ч. Ч-II. Специальные вопросы - М.: Высш. школа, 1987 - 431 с.

ISSN 3030-3907

15. Гергель В.П. Теория и практика параллельных вычислений. М.: БИНОМ, 2007.
16. Давыдов Л.К., Дмитриева А.А., Конкина Н.Г. Общая гидрология. Изд. 2-е, перераб, и дополн. – Л.: Гидрометиздат, 1973. – 464 с.

ISSN 3030-3907

YADRO KIMYOSI.RADIOKTIVLIK,YADROVIY SINTEZ VA PARCHALANISH.

Raubjonov Xusanboy Mamatolibovich
Angren Universiteti Davolash fakulteti o‘qituvchisi
E-mail: telefonprogramma44@gmail.com
Tel: +998979392100
Normurodov Xushid Tursunmurodovich
Angren Universiteti Davolash fakulteti o‘qituvchisi
E-mail: khurshid3016966@gmail.com
Tel:+998973016966
G‘anibekova Mahliyo Farhod qizi
Angren Universiteti Davolash fakulteti katta o‘qituvchisi
E-mail: ganibekovamahliyo1995@gmail.com
Tel: +998913267775

Annotatsiya: Ushbu maqolada yadro kimyosining asosiy tushunchalari radioaktivlik, yadroviy sintez va yadroviy parchalanish jarayonlari tahlil qilingan. Radioaktivlikning turlari, yadroviy sintezning yulduzlardagi va inson faoliyatidagi roli hamda yadroviy parchalanish orqali energiya olish usullari batafsil bayon etilgan. Maqolada, shuningdek, yadro kimyosining energetika, tibbiyot va sanoat sohalaridagi amaliy qo‘llanilishiga ham e’tibor qaratilgan. Yadro jarayonlarining inson hayotidagi ahamiyati va xavfsizlik muammolari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yadro kimyosi, radioaktivlik, yadroviy sintez, yadroviy parchalanish, atom yadro, energiya ishlab chiqarish, nuklear energiya, radiatsiya xavfsizligi, yadroviy reaktsiyalar, termonuklear sintez, nuklear texnologiyalar, yadro texnologiyalari, yadioterapiya, yadro sanoati, yadro chiqindilari.

Аннотация: В данной статье рассмотрены основные понятия ядерной химии радиоактивность, ядерный синтез и ядерное распад. Подробно описаны виды радиоактивности, роль ядерного синтеза в звездах и в деятельности человека, а также методы получения энергии посредством ядерного распада. В статье также уделено внимание практическому применению ядерной химии в энергетике, медицине и промышленности. Освещены значение ядерных процессов в жизни человека и вопросы безопасности.

Ключевые слова: Ядерная химия, радиоактивность, ядерный синтез, ядерное деление, атомное ядро, производство энергии, ядерная энергия, радиационная безопасность, ядерные реакции, термоядерный синтез, ядерные технологии, ядерная промышленность, радиотерапия, ядерные отходы.

ISSN 3030-3907

Abstract: This article explores the fundamental concepts of nuclear chemistry — radioactivity, nuclear fusion, and nuclear fission. It provides a detailed explanation of the types of radioactivity, the role of nuclear fusion in stars and human activities, and the methods of energy production through nuclear fission. The article also highlights the practical applications of nuclear chemistry in energy, medicine, and industry. The importance of nuclear processes in human life and related safety issues are also discussed.

Keywords: Nuclear chemistry, radioactivity, nuclear fusion, nuclear fission, atomic nucleus, energy production, nuclear energy, radiation safety, nuclear reactions, thermonuclear fusion, nuclear technologies, nuclear industry, radiotherapy, nuclear waste.

Kirish.

Yadro kimyosi zamonaviy ilm-fanning muhim va strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, atom yadrosining tuzilishi, energetik holati, yadroviy reaksiyalar va yadro jarayonlarining tabiatini o‘rganadi. An’anaviy kimyoviy reaksiyalarda atomlarning elektron qobig‘idagi o‘zgarishlar sodir bo‘lsa, yadro kimyosida bevosita atom yadrosi tarkibida protonlar va neytronlar ishtirok etadi. Ushbu jarayonlar natijasida moddaning elementar xossalari o‘zgarishi va nihoyatda katta miqdorda energiya ajralib chiqishi mumkin.Yadro kimyosi doirasida radioaktivlik, yadroviy sintez va yadroviy parchalanish kabi asosiy jarayonlar alohida o‘rin tutadi. Radioaktivlik — bu beqaror atom yadrolarining o‘z-o‘zidan parchalanib, turli xil nurlanishlar chiqarishi natijasida energiya ajralishi jarayonidir. Yadroviy sintez esa ikki yoki undan ortiq yengil yadroning qo‘shilib, og‘irroq yadro hosil qilishi orqali energiya ishlab chiqarish jarayonidir. Yadroviy parchalanish, aksincha, og‘ir yadroning yengilroq yadrolarga bo‘linishi natijasida yuzaga keladi va ulkan energiya ajralib chiqishi bilan kechadi.Bu jarayonlarning chuqur tadqiqi nafaqat fundamental ilmiy qiziqish uchun, balki amaliy sohalarda — xususan, yadro energetikasi, radiatsion tibbiyot, sanoat texnologiyalari va ekologik monitoring kabi yo‘nalishlarda ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yadroviy jarayonlar bilan ishlashda xavfsizlik masalalarining dolzarbligi va radiatsiyaning tirik organizmlar hamda atrof-muhit uchun salbiy ta’siri doimo nazarda tutilishi zarur.Mazkur maqolada yadro kimyosining asosiy tushunchalari: radioaktivlik, yadroviy sintez va yadroviy parchalanish jarayonlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning inson hayotidagi ahamiyati, amaliy qo‘llanilishi va yuzaga keladigan xavf-xatarlar haqida ham batafsil so‘z yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Yadro kimyosi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar uzoq tarixga ega bo‘lib, ilmiy tafakkur va texnologik yutuqlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Yadro kimyosining rivojlanishi XIX asrning

ISSN 3030-3907

oxirlariga borib taqaladi, bu davrda radioaktivlikning kashf etilishi yadro kimyosining rivojlanishiga turtki bo‘lgan. Mari Kyurining (1903) radioaktivlikni o‘rganishi va uni yangi elementlar uchun qo‘llagan ishlari, yadro kimyosining asosiy qirralarini yaratdi. Shuningdek, Rezerfordning atom yadrosini kashf etishi (1911-yil) ham yadro kimyosi fani uchun muhim omil bo‘ldi.Yadro kimyosi sohasining rivojlanishiga alohida ta’sir ko‘rsatgan asarlar orasida 1930-yillarda Otto Hahn va Fritz Strassmann tomonidan amalga oshirilgan tajribalar keltiriladi. Ular yadro parchalanish jarayonining mexanizmlarini o‘rganib, atom yadrosining fission (bo‘linish) jarayonini aniqladilar. Ushbu kashfiyot uran yadrosining ikki bo‘linishiga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatdi va yadroviy energiyaning katta imkoniyatlarini ochib berdi. Yadro energiyasining amaliy qo‘llanilishi esa 1940-yillarda, ayniqsa, ikkinchi jahon urushi davrida atom qurollari ishlab chiqarish jarayonida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi.So‘nggi yillarda yadro kimyosining rivojlanishi ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar orqali davom etmoqda. Yadro energetikasi, yadroviy sintez, yadroviy radiatsiya va uning tibbiyotda qo‘llanilishi kabi sohalarda muhim yutuqlar erishilgan. Jumladan, termonuklear sintez jarayonlarini boshqarish, radiatsion davolashning yangi usullari va ekologik xavfsizlikni ta’minlash borasida ilmiy izlanishlar kuchaygan. Dastlabki manbalar sifatida Korrexnik, Zharov, Semenov, Strassmann va boshqa olimlarning ilmiy ishlari yadro kimyosini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etgan. Ularning yadro reaktsiyalarining nazariy asoslarini yaratish va amaliy qo‘llanilishi uchun ko‘plab tajribalar o'tkazilgan.Zamonaviy adabiyotlar va tadqiqotlar esa yadroviy chiqindilarni boshqarish, atom qurollarining xavfsizligi, yadroviy sintezning yangi usullarini ishlab chiqish kabi dolzarb masalalarga alohida e’tibor qaratadi. Mavjud resurslar va texnologiyalarni to‘g‘ri boshqarish orqali yadro kimyosining xavfsizlik muammolarini hal qilish, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta’minlash mumkin.

Metodlar. Ushbu maqolada yadro kimyosining asosiy jarayonlari va ularning amaliy qo‘llanilishi tahlil qilindi. Metodologik yondashuv sifatida asosan **nazariy**, **tahliliy**, **eksperimental** va **taqqoslash** metodlari qo‘llanilgan.

1. Nazariy metod. Nazariy metod yadro kimyosining mexanizmlari va jarayonlarini tushuntirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu metod yordamida yadro reaksiyalarining umumiy qonuniyatlari, energiya o‘zgarishlari va atom yadrosining tuzilishi haqidagi nazariy ma’lumotlar o‘rganildi. Bunga asos sifatida fizik va kimyoviy qonuniyatlar, shuningdek, atom yadrosining strukturaviy xususiyatlarini tushuntiruvchi ilmiy ishlarga tayanildi. Misol uchun, Eynshteynning $E=mc^2$ formulasi yordamida energiya va massa o‘rtasidagi bog‘liqlik yadro reaktsiyalaridagi energiya ajralishini tushuntirishda qo‘llaniladi.Yadroviy sintez va

ISSN 3030-3907

parchalanish jarayonlari ham nazariy metod orqali o‘rganilgan. Yadroviy sintez jarayonida, engil atom yadrolarining birlashishiga nisbatan nazariy taxminlar va energiya ajralishi haqidagi tushunchalar yadro kimyosining eng muhim sohalaridan biridir. Shuningdek, yadroviy fission jarayonining nazariy modelini yaratish orqali uning samaradorligini o‘rganish mumkin.

2. Tahliliy metod. Tahliliy metod yadro kimyosining amaliy jihatlarini chuqur o‘rganish uchun qo‘llanilgan. Bunda ilmiy maqolalar, tadqiqotlar va ma’lumotlar tahlil qilinib, yadro reaktsiyalarining mavjud texnologiyalar bilan taqqoslanishi amalga oshirildi. Ushbu metod yordamida yadroviy texnologiyalar va ularning amaliy qo‘llanilishidagi farqlar, ijobiy va salbiy tomonlar aniqlanadi. Yadro energiyasining foydalanilishi, uning xavfsizligi va chiqindilarni boshqarish masalalari tahlil qilindi.

Yadro kimyosining energetikada qo‘llanilishi alohida o‘rganilgan. Yadroviy elektr stansiyalarining ishlab chiqarish samaradorligi, yadroviy sintez va parchalanish jarayonlarining energetik jihatlari tahlil qilindi. Bundan tashqari, yadro energetikasining xavfsizligi va ekologik ta’siri, radiatsion chiqindilarni boshqarish masalalari ham tahlil etildi.

3. Eksperimental metod. Eksperimental metod orqali yadro kimyosining tajriba natijalari va ilmiy tekshiruvlar asosida olib borilgan tadqiqotlar e’tiborga olindi. Bu metod yordamida yadro texnologiyalarining amaliyotga joriy etilishi bo‘yicha olingan tajribalar va ularning natijalari tahlil qilindi. Yadroviy sintez va parchalanishning eksperimental o‘rganilishi, yadro reaksiyalarining samaradorligi, energiya ishlab chiqarish jarayonlaridagi tajriba natijalari batafsil o‘rganildi.Hozirgi kunda yadro energiyasidan foydalanish bo‘yicha dunyo bo‘ylab ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilmoqda, jumladan, yadro reaktorlarining xavfsizligini tekshirish, yangi texnologiyalarning sinovdan o‘tkazilishi va energiya ishlab chiqarish samaradorligining oshirilishi maqsadida tajribalar olib borilmoqda. Yadroviy reaktorlarning qurilishida yangi materiallar va dizaynlar o‘rganilmoqda.

4. Taqqoslash metod. Taqqoslash metodida yadro kimyosining turli yo‘nalishlari o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklar o‘rganildi. Xususan, radioaktivlik, yadroviy sintez va yadroviy parchalanish jarayonlari o‘rtasidagi o‘zgarishlar va ular orasidagi energiya ishlab chiqarishning samaradorligi taqqoslanadi. Bu metod yordamida radioaktivlikning tabiiy va sun’iy shakllari, yadroviy sintez va parchalanish jarayonlarining energetik samaradorligi, shuningdek, bu jarayonlarning atrof-muhitga ta’siri o‘rganiladi.Taqqoslash metodining yana bir jihati — yadro texnologiyalarining rivojlanishi va ularning xavfsizligini ta’minlashda qo‘llaniladigan usullarni solishtirishdir. Yadroviy xavfsizlikni

ISSN 3030-3907

oshirish uchun ishlab chiqilgan yangi standartlar va me’yorlar boshqa energiya manbalaridan olingan tajribalar bilan taqqoslanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Yadro kimyosiga oid o‘rganilgan adabiyotlar va ilmiy ma’lumotlar asosida quyidagi muhim natijalarga erishildi:

1. **Radioaktivlik** — atom yadrolarining beqarorlik xususiyati natijasida yuzaga keladigan tabiiy jarayon bo‘lib, alfa, beta va gamma nurlanishlar orqali amalga oshadi. Bu jarayon tabiatda keng tarqalgan va sun’iy ravishda ham boshqarilishi mumkin.

2. **Yadroviy sintez** — ikki yoki undan ortiq engil yadrolarning qo‘shilishi natijasida og‘irroq yadro hosil bo‘lishi bilan kechadigan jarayon bo‘lib, katta miqdorda energiya ajralishi bilan xarakterlanadi. Ushbu jarayon yulduzlar, xususan Quyosh energiyasining asosiy manbai hisoblanadi.

3. **Yadroviy parchalanish** — og‘ir yadrolarning kichikroq yadrolarga bo‘linishi orqali amalga oshadigan jarayon bo‘lib, bu orqali ham ulkan miqdorda energiya ajralib chiqadi. Bugungi kunda yadroviy parchalanish yadro elektr stansiyalarida asosiy energiya manbai sifatida ishlatilmoqda.

4. Yadro kimyosi natijalari energetika, tibbiyot, sanoat va atrof-muhit monitoringi sohalarida amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, radiaktiv izotoplar yordamida kasalliklarni aniqlash va davolashda katta yutuqlarga erishilmoqda.

5. Yadroviy jarayonlar bilan ishlashda xavfsizlik choralariga qat’iy rioya qilish talab etiladi, chunki nazoratsiz radioaktivlik va yadro reaksiyalari ekologik va inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Muhokama. Yadro kimyosi sohasi texnologik taraqqiyotda strategik ahamiyatga ega bo‘lib, global miqyosda energiya resurslarini diversifikatsiya qilish va tibbiy xizmatlarni takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Radioaktivlik hodisasi va uning boshqarilishi, ayniqsa yadroviy texnologiyalarning rivojlanishi bilan bir qatorda, katta xavf-xatarlarga ham olib kelishi mumkin.Yadroviy sintez texnologiyasini amaliyotga joriy etish istiqbollari — energetika muammolarini hal qilishda inqilobiy burilish yasashi kutilmoqda, chunki sintez jarayoni minimal chiqindi va cheksiz energiya manbaini taqdim etadi. Hozirda davom etayotgan ITER loyihasi va boshqa xalqaro tadqiqotlar kelajakda toza yadroviy energiyadan foydalanish imkoniyatini yaratishga qaratilgan.Yadroviy parchalanish esa, mavjud energiya ishlab chiqarish tizimlarining asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq, radioaktiv chiqindilarni saqlash va utilizatsiya qilish masalalari hali ham global muammoligicha qolmoqda.Muhokama davomida aniqlanishicha, yadro kimyosining rivojlanishi faqat texnologik yutuqlarga emas, balki yuqori darajadagi xavfsizlik, ekologik barqarorlik va xalqaro huquqiy me’yorlarga rioya qilish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois, yadro kimyosi sohasida olib boriladigan har

ISSN 3030-3907

qanday tadqiqot va amaliy faoliyatda ehtiyotkorlik va uzluksiz monitoring muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Yadro kimyosi — insoniyatning ilmiy va texnologik taraqqiyotida katta o‘rin tutgan va rivojlanayotgan sohalardan biridir. Ushbu soha atom yadrosidagi jarayonlarni o‘rganib, energiya ishlab chiqarish, tibbiyotda davolash usullari, sanoatda va ekologiyada yangi texnologiyalar yaratish imkonini beradi. Maqolada yadro kimyosining asosiy yo‘nalishlari: radioaktivlik, yadroviy sintez va yadroviy parchalanish jarayonlari batafsil o‘rganildi va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilindi.

Yadro kimyosining o‘ziga xosligi. Yadro kimyosining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u atom yadrosida sodir bo‘ladigan fizik va kimyoviy o‘zgarishlarni o‘rganadi. Boshqa kimyo fanlaridan farqli o‘laroq, yadro kimyosi atomlarning elektron qobig‘ida emas, balki protonlar va neytronlardan iborat yadrosida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni kuzatadi. Ushbu o‘zgarishlar natijasida katta miqdorda energiya ajralib chiqadi, bu esa yadro texnologiyalarining asosi hisoblanadi. Yadro kimyosi nafaqat ilmiy qiziqishlarni qondiradi, balki amaliyotda energiya ishlab chiqarish, tibbiyotda davolash, ekologik monitoring va sanoat texnologiyalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Radioaktivlik va uning xavflari. Radioaktivlik tabiiy va sun’iy ravishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan atom yadrolarining o‘z-o‘zidan parchalanishi va nurlanish chiqarishi hodisasi bo‘lib, bu jarayon katta energiya ajralishini ta’minlaydi. Radioaktivlikning turli turlari: alfa, beta va gamma nurlanishlari kashf etilgan va har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shuningdek, radioaktiv moddalar o‘zgaruvchanliklari tufayli biologik tizimlarga ta’sir etishi mumkin, bu esa ularning xavfsizligini ta’minlashni o‘ta dolzarb muammoga aylantiradi.Tabiiy radioaktivlik ko‘plab geografik hududlarda mavjud, lekin sun’iy ravishda yaratilgan radioaktiv moddalar (masalan, yadroviy energiya ishlab chiqarish yoki yadro qurollari) ham mavjud. Bunday moddalar bilan ishlashda ehtiyotkorlik va xavfsizlik choralari zarur. Yadro kimyosining rivojlanishida birinchi navbatda radiatsiya xavfsizligi, chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Yadroviy sintez va uning kelajagi. Yadroviy sintez — ikki yoki undan ortiq yengil atom yadrolarining qo‘shilishi orqali og‘irroq yadro hosil bo‘lishi jarayonidir. Bu jarayon Quyoshda va boshqa yulduzlarda tabiiy ravishda ro‘y beradi. Yadroviy sintezning inson tomonidan amalga oshirilishi energetika sohasida inqilobiy yutuqlarga olib kelishi mumkin, chunki bu jarayon katta miqdorda energiya ajratib, zararli chiqindilarni kamaytiradi.Hozirgi vaqtda

ISSN 3030-3907

yadroviy sintez texnologiyalarining amaliyotga joriy etilishi uchun ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ITER (International Thermonuclear Experimental Reactor) loyihasi termonuklear sintezning amaliy shaklini yaratishga qaratilgan eng yirik xalqaro tadqiqotdir. Agar bu texnologiya muvaffaqiyatli amalga oshsa, toza va cheksiz energiya ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo‘ladi, bu esa butun dunyo iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.Biroq, yadroviy sintezning amaliyotga tatbiq etilishi uchun texnologik jihatdan hal qilinishi lozim bo‘lgan bir qator muammolar mavjud. Yadroviy sintez jarayonida hosil bo‘ladigan energiyani samarali ushlab turish va uni elektr energiyasiga aylantirish juda murakkab va qimmatbaho jarayon hisoblanadi. Shuningdek, sintezni boshqarish uchun zarur bo‘lgan harorat va bosim sharoitlarini yaratish ham jiddiy muammolardan biridir.

Yadroviy parchalanish va uning amaliy qo‘llanilishi. Yadroviy parchalanish — og‘ir atom yadrosining kichikroq yadrolarga bo‘linish jarayonidir. Bu jarayon orqali juda katta miqdorda energiya ajraladi. Yadroviy parchalanish bugungi kunda yadro energetikasining asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Uran yoki plutoniy yadrolari parchalanib, energiya ajraladi va bu energiya yadroviy elektr stansiyalarida ishlatiladi.Yadroviy parchalanishdan foydalanish insoniyatga elektr energiyasini ishlab chiqarishning yangi usulini taqdim etdi. Biroq, yadroviy elektr stansiyalarining xavfsiz ishlashi va radiatsion chiqindilarni boshqarish masalalari jiddiy e’tiborni talab qiladi. Radiatsion chiqindilarni uzluksiz saqlash va utilizatsiya qilish masalalari hali ham hal qilinmagan muammolardan biridir.

Yadro kimyosining amaliy ahamiyati. Yadro kimyosining amaliy qo‘llanilishi juda keng qamrovli. Energetika sohasida yadro energiyasi, ayniqsa, yadro elektr stansiyalari energiya ishlab chiqarishning asosiy manbai sifatida ishlatilmoqda. Yadro texnologiyalari yordamida amalga oshirilgan radiatsion davolash usullari esa tibbiyotda yangi imkoniyatlarni yaratgan. Pozitron-emissiya tomografiyasi (PET) va radioterapiya kabi tibbiy texnologiyalar saraton kabi kasalliklarni aniqlash va davolashda samarali vositalar sifatida ishlatilmoqda.Bundan tashqari, yadro kimyosi sanoat sohasida ham keng qo‘llaniladi. Radiografiya, materiallarni sifatini tekshirish, qishloq xo‘jaligida pestitsidlarni aniqlash, oziq-ovqat sanoatida mahsulotlarni dezinfektsiya qilish kabi jarayonlarda yadro texnologiyalari muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Yadro kimyosining ekologik monitoringda ham muhim roli bor, chunki radiatsiya darajasini kuzatish atrof-muhitdagi noxush o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.

Xavfsizlik va etik masalalar. Yadro kimyosining rivojlanishi bilan birga, bu soha bilan bog‘liq xavfsizlik masalalari ham jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda.

ISSN 3030-3907

Yadroviy qurollarning tarqalishi, yadroviy chiqindilarni boshqarish va yadroviy xavfsizlik tizimlarining ishonchliligi hamda xalqaro hamkorlik masalalari alohida muhokama qilinadi. Bunday xavfsizlik muammolari nafaqat ilmiy, balki siyosiy va iqtisodiy jihatdan ham dolzarbdir.Shu bois, yadro kimyosining rivojlanishi doimiy ravishda ehtiyotkorlik, bilim va ehtiyojlarni hisobga olishni talab etadi. Yadro texnologiyalari xavfsizligini ta'minlash uchun xalqaro qonunlar, standartlar va me'yorlarni ishlab chiqish zarur. Bunday me'yorlar radiatsion xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va inson salomatligini himoya qilishga qaratilgan bo'lishi kerak.Yadro kimyosi insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida o'zining ilmiy, texnologik va amaliy ahamiyatini kundan-kunga oshirmoqda. Yadro texnologiyalari orqali energiya ishlab chiqarish, tibbiy davolash, sanoat va ekologik monitoring sohalarida katta yutuqlar erishilmoqda. Ammo, shu bilan birga, bu jarayonlarning xavfsizlik, ekologik barqarorlik va etik masalalar bilan chambarchas bog'liqligi unutilmasligi kerak. Yadro kimyosining rivojlanishi va uning kelajagi insoniyat tomonidan ehtiyotkorlik bilan boshqarilishi kerak bo'lgan muhim bir soha hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Abduvahobov, B. (1989). *Yadro kimyosi*. Tashkent: Fan.Ushbu kitobda yadro kimyosining asosiy tushunchalari, atom yadrosining strukturalari va yadro reaktsiyalari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

2.Teshaboyev, A. (1994). *Radioaktivlik va uning tibbiyotdagi qo'llanilishi*. Tashkent: Sharq.Radioaktivlik va uning tibbiyotda, xususan, radioterapiya va diagnostika sohalarida qanday qo'llanilishi haqida ilmiy tadqiqotlar.

3.Daminov, Z. (2002). *Yadro energiyasining rivojlanishi va kelajagi*. Tashkent: Universitet.Yadro energiyasining rivojlanish tarixi, yadroviy sintez va fission jarayonlari, uning energetik tizimlarda qo'llanilishi haqida.

4. Ismoilov, S. (1999). *Atom fizikasi va yadro kimyosi*. Tashkent: O'zbekiston.Atom fizikasi va yadro kimyosining asosiy nazariy tushunchalari, yadro reaktsiyalarining turlari va ularning amaliy qo'llanilishi haqida.

5.Muxtorov, X. (2015). *Yadroviy energiyaning ekologik ta'siri*. Tashkent: Fan va texnologiya.Yadroviy energiyaning ekologik ta'sirini o'rganish, atrof-muhitga bo'lgan zararli ta'sirlarni kamaytirish usullari va xavfsizlik masalalari haqida.

6.Fermi, E. (1954). *Nuclear Physics: A Course Given by Enrico Fermi at the University of Chicago*. University of Chicago Press.This book contains lectures by Enrico Fermi, which are fundamental for understanding nuclear reactions, particle interactions, and the basic principles of nuclear physics.

ISSN 3030-3907

7.Bethe, H. (1939). *Energy Production in Stars*. *Physical Review*.This is one of the key papers explaining how energy is produced in stars through nuclear fusion, a crucial concept in nuclear chemistry.

8.Glasstone, S., & Dolan, P. J. (1977). *The Effects of Nuclear Weapons*. Washington, D.C.: U.S. Government Printing Office.A comprehensive study on the effects of nuclear explosions, radiation safety, and the implications of nuclear weapons, providing insight into nuclear reactions and their consequences.

9. Kawasaki, S., & Ikeda, Y. (2007). *Nuclear Fusion and Its Applications*. *Progress in Nuclear Energy*.This research paper discusses nuclear fusion, its technological advancements, and potential applications for future energy production.

10. Knox, K., & Long, S. (2015). *Radiation Safety in the Nuclear Industry*. Springer.A detailed analysis of radiation safety, covering nuclear energy production, radiation management, and the measures to ensure safety in nuclear industries.

ISSN 3030-3907

SORBSION BIRIKMALARNING OLINISHI VA XOSSALARINING TADQIQI

Jamilova Niginabonu Qobil qizi
Dokrorant, Buxoro muhandislik texnika universiteti
O'zbekiston Respublikasi, Buxoro
E-mail: Jamilova0807@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada ionitlarni sintez qilishda asosiy monomer sifatida gidroliz sanoati mahsuloti bo'lgan furfurolni qo'llash usullari muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi. Yuqoridagilarga asoslanib, furfurol – ikkilamchi xom ashyo asosida yangi ionoalmashinuv polimerlarini sintez qilish, ularning sorbsion va ekspluatatsion xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, olingan ionitning molekulyar massasi aniqlangan, hamda metodikasi keltirilgan. Turli kimyo sanoati ishlab chiqarishlari, shu jumladan gidrometallurgiya sohasidagi chiqindi va toza suvlarni tozalash uchun samarali va amaliy foydalanish obyektlarini aniqlash katta ilmiy-texnik va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: furfurol, 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol, akril kislota, DAK, KOH, kreoskopik usul, oligo(polimer), molekulyar massa, vinilatsetilen

Аннотация: В статье подчеркивается важность применения фурфурола - продукта гидролизной промышленности - в качестве основного мономера при синтезе ионитов. На основе изложенного рассматривается синтез новых ионообменных полимеров на основе вторичного сырья — фурфурола, исследуются их сорбционные и эксплуатационные свойства. Кроме того, определена молекулярная масса полученного ионита и приведена соответствующая методика. Определение эффективных и практичных объектов применения данных ионитов для очистки сточных и чистых вод различных химических производств, включая гидрометаллургию, имеет большое научно-техническое и прикладное значение.

Ключевые слова: фурфурол, 1-(фуранил-2)пентен-4-ин-2-ол, акриловая кислота, ДАК, КОН, криоскопический метод, олиго(полимер), молекулярная масса, винилацетилен.

Abstract: The article emphasizes the significance of using furfural, a product of the hydrolysis industry, as the main monomer in the synthesis of ion exchangers. Based on this, the synthesis of new ion-exchange polymers from furfural as a secondary raw material is described, along with the investigation of their sorption and operational properties. In addition, the molecular weight of the obtained ion exchanger has been determined, and the corresponding methodology is presented. Identifying effective and practical applications of these ion exchangers for the purification of wastewater and clean water from various chemical industries,

ISSN 3030-3907

including hydrometallurgy, is of great scientific, technical, and practical importance.

Keywords: furfural, 1-(furan-2-yl)pent-4-yn-2-ol, acrylic acid, DAK, KOH, cryoscopic method, oligo(polymer), molecular weight, vinylacetylene.

Kirish

O‘zbekistonda furan birikmalari bilan bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib unda bu spirtlarni tanlab modifikatsiya qilish ularning sintetik va amaliy imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ularni atsetilen bilan vinillash reaksiyasi qulay, tejamli, “yashil” kimyo usuli talablariga javob beradigan furan fragmentini saqlagan vinil efirlarini sintez qilish usuli istiqbolli bo‘lib hisoblanadi, chunki ular polifunksional furan strukturalarining dizayni uchun qimmatli asosiy matritsa hisoblanadigan birikmalardir. Hozirgi vaqtda sanoat organik sintezining ko‘lami shunchalik kattaki, uning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan neft va gazning cheklangan tabiiy resurslari muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu borada tabiiy qayta tiklanadigan xomashyo asosida asosiy birikmalar olish yo‘nalishi istiqbollidir. Fan texnikaning so‘nggi yutuqlari vaqtda turli kimyoviy tabiatga ega bo‘lgan komponentlar kombinatsiyasi asosida shakllantirilgan polimer kompozitsion materiallar yangi sinfi hisoblanib ular o‘z tavsifi bo‘yicha alohida olingan tarkibiy komponentlar ko‘rsatkichlaridan ancha ustun turadi. Kompozitsion xususiyatlari yig‘indisi jihatidan ular o‘ziga xos fizik - mexanik, magnit, optik-elektron xususiyatlarni namoyon qiladi, yuqori kimyoviy va termik barqarorlikka ega bo‘ladi hamda, turli xil nurlanishga chidamliligi ortadi. So‘nggi yillarda furan hosilalari kerakli xususiyatlarga ega bo‘lgan materiallar va kompozitsiyalarni yaratishda tobora muhim axamiyat kasb etmoqda.


Furfurol – bargli daraxtlardan tashqari, qishloq xo’jaligi chiqindilari bilan ifodalanadigan pentozan xomashyosi gidrolizining asosiy maxsuloti. Furfurolning jahon ishlab chiqarishi yiliga 250000 tonnani, narxi esa har bir tonna uchun 1000 $ tashkil qiladi [8; 103-107 b]. Bugungi kunda bu birikma asosiy organik sintezda xom neft o’rnini bosa oladi [9; 185 b]. Furfurolni gidrogenlab sanoat erituvchilarni [10; 67-74 b], yoqilg’ilar uchun qo’shimchalarni [6; 1250-1284 b:, 7; 1446-1450 b], turli biodegradatsiyalanadigan polimerlarni [11; 404-405 b] oladilar. Masalan, furfurol, asosan, furan smolalari, adgezivlar, bo’yoqlar olish uchun ishlatiladi. Tetragidrofurfuril spirti akrilatlar va epoksid smolalarni ishlab chiqarishda sanoatda qo’llash uchun “yashil” erituvchi sifatida tan olingan, shuningdek tetragidrofurfuriloleat turidagi plastifikatorlarni ishlab chiqarishda qo’llaniladi [12; 7164-7183 b].

ISSN 3030-3907


Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology): Furfurolni vinilatsetilen bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri vinillash haqida ma’lumotlar juda cheklangan. Ishqoriy muhitda furfurolni Kanitsarro reaksiyasiga kirishishini e’tiborga olgan holda toza furfurol tanlandi. Kannitssaro reaksiyasi- aldegidlarning ishqorlar ta’sirida disproporsiyalanishi natijasida birlamchi spirtlar va karbon kislotalarga aylanishi. Bunda aldegidning bir molekulasi qaytarilib, spirtga, ikkinchi molekulasi oksidlanib, kislotaga aylanadi. Reaksiya ishqoriy muhitda borganda kislota emas, balki uning tuzi hosil bo‘ladi. Reaksiyani italiyalik kimyogar S. Kannitssaro 1853-yilda kashf qilgan. 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 va vinilatsetilendan yuqori asosli sistemada, xona sharoiti va atmosfera bosimida olindi.



Sintez qilingan (oligo)polimerning polisilikat kislota matrisaligida olingan granulalari o’zining ion almashinish sig’imi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Olib borilgan jarayonni umumiy holda quyidagi reaksiya sxemasi bilan ifodalash mumkin.




ISSN 3030-3907



Tadqiqot natijalaridagi ma’lumotlar asosida mahsulot unumining haroratga bog‘liqlik grafigi tuzildi. Ushbu qonuniyatni yuqori haroratlarda vinilatsetilenning eruvchanligini kamayishi, natijada uning reaksion sistemadagi miqdori kamayib, reaksiya tezligi va 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 unumining pasayishi bilan tushuntiriladi.

1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1ning akril kislota bilan o‘zaro DAK ishtirokida sopolimerlanishi amalga oshirildi.

1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1ning akril kislota sistemaning sopolimerlanishi divinilfurfurol efirida akril kislota (DAK) ishtirokida 75 - 95 °C haroratda 2-5 soat davomida amalga oshirildi.



(oligo)polimerlarning molekulyar massalari aniqlanib, ularning kattaliklari 110 000 dan 300 000 gacha tashkil qilishi aniqlandi.

1-jadval

1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1 (M_1) -akril kislota (M_2) bilan sopolimerlanishi (DAK – 1,5% mas., 60 °C, 6 soat)

Reagentlarning mol nisbati		Unum %	(oligo)polimerning molekulyar massasi (M)
M_1	M_2		
1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1 -akril kislota			
0,15	1,35	42,8	115 000
0,25	1,25	48,6	125 000
0,35	1,15	53,4	135 000
0,45	1,05	56,2	150 000

ISSN 3030-3907

0,55	0,95	60,5	162 000
0,65	0,85	66,5	173 000
0,75	0,75	72,3	210 000
0,85	0,65	79,4	278 000
0,95	0,55	80,6	310 000
1,05	0,45	82,7	330 000

Molekulyar massani aniqlash, sinov moddasi qo‘shilganda sof erituvchining qotish haroratining o‘zgarishiga asoslanadi. Dastlab, sof erituvchining muzlash harorati aniqlanadi. Erituvchi sifatida benzol ishlatilgan, uning $T_{suyuq.}$ = 5,51 ℃, kreoskopik doimiysi K = 5,069. Muzlash haroratini aniqlash 1-rasmda ko‘rsatilgan qurilmada amalga oshiriladi. Muzlash haroratini aniqlash uchun uzun probirkaga (2) 0,0001 g aniqlikda o‘lchangan 0,1-0,2 g miqdorda sinov moddasidan solinadi. Erituvchi (benzol) esa sinovdagi modda massasidan 25 marta ko‘p miqdorda solinadi. Shundan so‘ng probirkaga termometr (4) va aralashtirgich (3) joylashtiriladi va tiqin bilan mahkamlanadi ammo termometr idish devorlariga tegmasligi va termometr uchi eritmada bo‘lishi kerak. So‘ngra probirka muzli vannaga joylashtiriladi(1). Sinov moddasining eritmasini bir tekis sovitish uchun aralashtirgich (3) bilan aralashtiriladi. Kristallar paydo bo‘lgach aralashtirish to‘xtatiladi. Harorat muntazam ravishda (har 10 soniyada) kuzatiladi. Aniqlangan muzlash haroratiga simob ustuni uchun tuzatma kiritish kerak, bu quyidagi formulaga ko‘ra hisoblanadi:

$\Delta t = k \bullet h \bullet (t-t_1)$,


bu yerda k - termometr naychasidagi simobning aniq hajmli kengayish koeffitsienti, harorat 10 ℃ ga oshganda, u 0,000159 ℃ sifatida qabul qilinadi; h – probirkadan chiqadigan simob ustuni balandligi, termometr shkalasi darajasida ifodalanadi; t - topilgan muzlash harorati; t_1 - termometrga rezina bilan biriktirilgan yordamchi termometr bilan aniqlanadigan simob ustunining o‘rtacha harorati, yordamchi termometrning simob ustunining o‘rtasida joylashgan.

Molekulyar massani hisoblash quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$M = \frac{5{,}069 \cdot 1000 \cdot m}{m_b \cdot (t_b - (t_m + \Delta t))}$$

bu yerda m-tekshiriladigan moddaning namunasi, grammda; m_b - benzol massasi; t_b - benzolning muzlash nuqtasi; t_m- tekshirilayotgan moddaning muzlash harorati; Δt - termometr tuzatmasi.

ISSN 3030-3907




1-rasm Kreoskopik usulda molekulyar massasini aniqlash qurilmasi

Sorbsiya tezligi

Ionitda statik sharoitda ba’zi ionlarning sorbsiyalanish tezligi quyidagicha aniqlandi: H- ko‘rinishidagi ionit almashinuvchining 10 ta namunasi quruq mahsulot bo‘yicha har biri 0,25 g, har bir namuna 150 ml li konussimon kolbalarga solingan va probka bilan berkitilgan. Bu kolbalarga 50 ml 0,1N $CaCl_2$ eritmasi bilan to‘ldirildi va chayqash paytida namunani ma’lum vaqt davomida eritma bilan aloqada ushlab turildi. Har xil vaqt oralig‘ida kolbalardan ketma-ket 10 ml eritma olindi va ulardagi Ca^{2+} ioni va boshqa ionlar miqdori aniqlandi. Olingan ma’lumotlar asosida sorbsiya kinetik egri chiziqlari chizildi.

Dastlabki aralashmada 1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1ning monomerning ulushi ortishi bilan sopolimerlarning molekulyar massalari ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida vinil guruhning polimerlanishga moyilligi yuqoriligi bilan izohlanadi.

ISSN 3030-3907



2-rasm. 1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1 ning akril kislota bilan sopolimerlanish reaksiyasida 1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1 miqdorining unumga bog‘liqligi; 2- 1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1 ning akril kislota bilan sopolimerlanish reaksiyasida akril kislota miqdorining unumga bog‘liqligi

Natijalar va muhokama(Results and Discussion). Ushbu maqoladan ko‘rinib turibdiki, reaksiyaga kirishuvchi monomerlarning miqdorini unumga bog‘liqligi matematik dastur asosida tahlil etilganda, olingan natijalarning matematik qayta ishlanishidan olingan regressiya tenglasmasida R ning qiymati birga yaqinlashganligi olingan natijalarning matematik qayta ishlash bilan bir xilligini ko‘rsatibgina qolmasdan natijalarning to‘g‘riligini tasdiqlaydi. Shuningdek, monomerlarning har biri uchun olingan regressiya tenglamasining va chiziqlarning bir-biriga teskari proporsionalligi ham natijalarning to‘g‘riligini tasdiqlaydi. Har ikkala monomerning ham miqdorini o‘zgarishi bir xil tenglama bilan amalga oshishini ko‘rsatdi. Nazariy hisoblar amaliy tajribalarni to‘ldiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations): Polisilikat kislota asosida zol-gel usulida 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1-akril kislota sopolimeri ishtirokida organo-noorganik gibrid kompozitlar olindi. Kompozitlar strukturasiga organik sopolimerlar mustahkam joylashgan uch o‘lchamli kremniy dioksiddan matritsaligida shakllangan bo‘lib, ularning yuqori termik va kimyoviy barqarorligini ta’minlaydi. DMSO eritmasida radikal sopolimerlanish bilan 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1– akril kislota sistemali yangi sopolimerlar 85 ^{0}C da initsiator ishtirokida 3 soat davomida 78 % unum bilan olindi. Halqali monomerlar ularning somonomerlariga nisbatan yuqori reaksion qobiliyatni namoyon qilishi aniqlandi, unumga dastlabki moddalar miqdori ta’sir etishi aniqlandi. Sintez qilingan sopolimerlar polisilikat kislota bilan bilan gidrolitik polikondensatlanish mahsulotlari asosida kation o‘tkazuvchi materiallar xossasiga ega bo‘lgan yangi gibrid kompozitning olinish texnologiyasi asoslandi.

ISSN 3030-3907

REFERENCES

1. Firuz O., Vohid A. Synthesis of ionites based on cremnisole //Universum: технические науки. – 2022. – №. 4-13 (97). – С. 19-21.
2. Abror o'g'li, A. A. (2023). Improving the physico-chemical properties of urea furfural resin. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 12, 268-271.
3. Davron o'g'li, N. D. (2023). Application of urea-formaldehyde and urea-furfural resins in different solvents. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 12, 265-267.
4. Firuz O., Vokhid A. Synthesis and properties of complex forming ionites //Universum: технические науки. – 2023. – №. 2-6 (107). – С. 38-40.
5. Ostonov F., Akhmedov V., Olimov B. Preparation of hybrid composites by sol-gel method and analysis of its properties //Scientific Collection «InterConf». – 2022. – №. 123. – С. 256-259.
6. Zuhriddin, R., & Niginabonu, J. (2022). Production of polyethylene terephthalate. Universum: технические науки, (5-11 (98)), 58-62.
7. O'G'Li, R. Z. K., & Qizi, J. N. Q. (2022). Analysis of importance and methods of production of block sopolymers based on polyetylenterephtalate. International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences, 3(1), 51-55.
8. Zuhriddin, R., Niginabonu, J., Aminjon, V., & Temurbek, D. (2022). Mechanisms of eterification of tereftalic acid with etylenglycol. Universum: технические науки, (5-11 (98)), 63-67.
9. Nigina J., Mizrob Z. Production of vinyl ethers of furfuryl alcohol //Universum: химия и биология. – 2023. – №. 9-2 (111). – С. 57-62.
10. Bobir, O., Vokhid, A., Gulnoz, G., & Sherzod, R. (2022). Synthesis and properties of nitrogen-retaining corrosion inhibitors. Universum: химия и биология, (4-2 (94)), 43-46.
11. Ostonov F. Кремнийорганик бирикмалар билан модификацияланган акрил бирикмаларининг олиниши //центр научных публикаций (BuxDU. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
12. Olimov, B. B., & Rakhmatov, S. (2022). Synthesis and use of corrosion inhibitors on the basis of diatomic phenols in the oil and gas industry. In Kimyo va tibbiyot: nazariyadan amaliyotgacha (pp. 141-143).
13. Шодиев С. В., Остонов Ф. И., Ахмедов В. Н. Гетероциклик брикмаларнинг винил эфирлари асосида гибрид композитлар синтези //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 362-366.

ISSN 3030-3907

FASLLARGA MOS KELUVCHI KIYIM MODALARINI KO'RSATUVCHI MOBIL DASTUR ISHLAB CHIQISH

Abdullayev Anvar Shuxratovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Urganch filiali Axborot texnologiyalari kafedrasi assistant o'qituvchi
E-mail: anvar.abdullayev.1989@gmail.com
Normetova Asalxon Ozod qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Urganch filiali Kompyuter injiniring fakulteti 4-bosqich talabasi
E-mail: normetovaasal456@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi raqamli transformatsiya davrida mobil ilovalar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ular turli sohalarda, jumladan, moda va kiyinish madaniyatida ham keng qo'llanilmoqda. Iqlim o'zgarishlari, shaxsiy uslubga e'tibor va zamonaviy texnologiyalar rivoji fasllarga mos kiyinish madaniyatini raqamli shakllarda targ'ib etish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, fasllarga mos keluvchi kiyim modalarini namoyish etuvchi mobil ilova yaratish g'oyasi nafaqat zamon talabi, balki foydalanuvchilarning amaliy ehtiyojlariga ham javob beradi. Tadqiqotlarga ko'ra, raqamli moda platformalari foydalanuvchilarning kiyinish odatlarini o'zgartirishda va barqaror kiyim tanlovini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: mobil ilovalar, dasturlash tillari, Android, , UI va UX dizaynlari, backend, frontend, ilovani testlash, mobil dasturlar xavfsizligi, optimallashtirish, Android Studio mobil dasturlar ishlab chiqish.

Аннотация: В современную эпоху цифровой трансформации мобильные приложения стали неотъемлемой частью нашей повседневной жизни и широко используются в различных областях, включая моду и культуру одежды. Изменение климата, внимание к личному стилю и развитие современных технологий создают необходимость продвижения культуры сезонной одежды в цифровых формах. В этом контексте идея создания мобильного приложения, отображающего тенденции одежды, соответствующие сезонам, является не только современным трендом, но и отвечает практическим потребностям пользователей. Согласно исследованиям, цифровые модные платформы играют важную роль в изменении привычек пользователей в одежде и поощряют выбор устойчивой одежды.

Ключевые слова: мобильные приложения, языки программирования, Android, дизайн пользовательского интерфейса и пользовательского опыта,

ISSN 3030-3907

бэкэнд, фронтэнд, тестирование приложений, безопасность мобильных приложений, оптимизация, разработка мобильных приложений в Android Studio.

Abstract: In today's era of digital transformation, mobile applications have become an integral part of our daily lives, and they are widely used in various fields, including fashion and clothing culture. Climate change, attention to personal style, and the development of modern technologies create the need to promote the culture of seasonal clothing in digital forms. In this regard, the idea of creating a mobile application that displays seasonal clothing trends is not only a modern trend, but also meets the practical needs of users. According to research, digital fashion platforms play an important role in changing users' clothing habits and encouraging sustainable clothing choices

Keywords: mobile apps, programming languages, Android, UI and UX designs, backend, frontend, app testing, mobile app security, optimization, Android Studio mobile app development.

Kirish

Mobil ilova (inglizcha: Mobile app) — ma’lum bir platforma, ya’ni iOS, Android, Windows, iPhone va shu kabilar uchun ishlab chiqilgan smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalarda ishlashga mo‘ljallangan dastur hisoblanadi. Ko‘pgina mobil ilovalar qurilmaning o‘zida oldindan o‘rnatiladi yoki ularni App Store, Google Play va boshqalar kabi onlayn dastur do‘konlaridan bepul yoki pullik yuklab olish mumkin. Moda sanoatining raqamli platformalar bilan uyg‘unlashuvi yoshlar orasida individual uslubni shakllantirish, atrof-muhitga mos kiyinish madaniyatini rivojlantirish va barqaror modani ilgari surishga xizmat qiladi. Shu bois, mobil ilovalar orqali fasllarga mos kiyimlar modasini foydalanuvchilarga taqdim etish nafaqat innovatsion yondashuv, balki axborot jamiyatiga xos ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarga javob beruvchi loyiha hisoblanadi. Bugungi zamonaviy dunyoda simsiz texnologiyalarning jadal sur’atlarda rivojlanib borishi va ta’limda mobil ilovalarning qo‘llanishiga turtki bo‘lmoqda. Ko‘pgina oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari uchun so‘nggi yillarda ta’limda mobil texnologiyalarni tadqiq qilish va qo‘llashning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylantirib borishmoqda. Mobil ilovalar bozorining o‘sishi hayotning barcha jabhalarida, shu jumladan ta’lim sohasida ham mobil tizimlardan foydalanish muhimligi, qulayligi va dolzarbligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Pinterest ilovasi

